

ISSN: 2181-3558

«SCIENCE AND RESEARCH»

# JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION  
AND RESEARCH

---

INTEGRATSIYALASHGAN

TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF  
INTEGRATED  
EDUCATION AND  
RESEARCH**

**ISSN 2181-3558**

**VOLUME 2, ISSUE 4**

**COLLECTION C**

**APRIL 2023**



*Tahririyat a'zolari*  
*Editorial board*

*Berdialiev A. f.f.d., prof.*  
*Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.*  
*Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.*  
*Babadjanova D. tarix.f.d., prof.*  
*Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.*  
*Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.*  
*Madumarov T.T. yur.f.d., prof.*  
*Mirzayeva S.R. fil.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.*  
*Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.*  
*Salayeva M.S. ped.f.d., prof.*  
*Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent*  
*Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent*  
*Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent*  
*Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent*  
*Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent*

*Achilov N.K. fil.f.d., dotsent*  
*Imomova G.M. fil.f.n., dotsent*  
*Zakirova H.R. f.f.n., dotsent*  
*Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik*  
*Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent*  
*Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent*  
*Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent*  
*Djuraeva M.Y. f.f.f.d.*  
*Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent*  
*Otadjanova M.O. f.f.d.*  
*Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Hasanov A.M. fil.f.f.d.*  
*Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent*  
*Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent*  
*Safarova U.A. fil.f.d., dotsent*  
*Dexqonova M.Sh. f.f.d.*  
*Hasanov A.M. fil.f.d.*

*Mas'ul kotib: M.Yusupov*

## BOSHQALARGA QARAGANDA KAMROQ TENGLIKKA EGA BO'LGAN AYOLLAR HUQUQLARI

*Marjona Muzaffarova Umid qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavr talabasi*  
[marjonmuzaffarova0705@gmail.com](mailto:marjonmuzaffarova0705@gmail.com)

*Ayollar huquqlari inson huquqlaridir.*  
*(Women's rights are human rights)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kundagi davlat boshqaruv organidagi xotin-qizlarning roli va ahamiyati haqida statistik ma'lumotlar aks ettirilgan. Shuningdek, O'zbekiston hududida amalda bo'lgan gender tengligi hamda xotin-qizlarga oid qonunchilik tahlil qilingan bo'lib, xorijiy amaliyot va tajribalar bilan ham boyitilgan. Maqolada ayollar huquqlari bu inson huquqlari ekanligi va bu bo'yicha xulosalar qismi ifoda etilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, ayollar huquqlari, O'zbekiston qonunchiligi, davlat boshqaruv organidagi xotin-qizlar, inson huquqlari.

**Аннотация.** В данной статье представлены статистические данные о роли и значении женщин в государственном управлении на сегодняшний день. Также было проанализировано и обогащено зарубежной практикой и опытом гендерное равенство и законодательство о женщинах на практике в Узбекистане. В статье говорится о том, что права женщин являются правами человека и некоторые выводы по этому поводу.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, права женщин, законодательство Узбекистана, женщины в органах государственного управления, права человека.

**Abstract.** This article presents statistical information about the role and importance of women in state administration today. Also, gender equality and legislation on women in practice in Uzbekistan was analyzed and enriched with foreign practices and experiences. The article states that women's rights are human rights and some conclusions about this.

**Key words:** gender equality, women's rights, legislation of Uzbekistan, women in state administration, human rights.

Xotin-qizlar uchun ham xalqaro miqyosda, ham mamlakat ichida inson huquqlari asosan tenglik tamoyiliga asoslanadi. Tenglik diskriminatsiyaga qarshi qonunning markaziy elementi va ayollar huquqlari bo'yicha Yevropa va xalqaro huquqning asosiy mavzusidir. Shunga qaramay, jamiyatda ayollarning kamsitilishi, erkaklarga nisbatan kamroq tenglik va erkinlik holatlari saqlanib qolmoqda. Bu qonunlar, konvensiyalar va sud amaliyotida qo'llaniladigan tenglik tushunchasini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Ushbu maqola O'zbekistondagi qonunlarini tanqidiy tahlil qilish orqali ayollar huquqlari, gender tenglik va xotin-qizlarning inson huquqlarini yoritishga qaratilgan. Asosiy e'tibor O'zbekistonga qaratilgan

bo'lsa-da, shunga o'xshash tahlil Yevropa yoki xalqaro huquqqa nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Ayollar dunyo aholisining ko'p qismini tashkil etishiga qaramay, ayollar erkaklar bilan to'liq teng huquqli bo'lgan jamiyat hali ham yo'q. Masalan, 1996 yilda ayollar butun dunyo bo'ylab hukumatlardagi vazirlik lavozimlarining atigi 7 foizini egallashgan. Tadbirkorlik va oliy ta'lim sohasida yuqori lavozimdagi ayollar soni bo'yicha ko'rsatkichlar o'xshash. Ayollar hali ham kundalik hayotda keng tarqalgan diskriminatsiyaga uchramoqda va ko'pincha rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy hayotida munosib vakillikka ega emaslar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti har doim ayollarning inson huquqlarini ta'minlash genderga asoslangan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etishi va ularga fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq ishtirok etish imkonini berishi kerakligini ta'kidlab keladi.

Ayollar huquqlari - bu qariyb 70 yil avval sayyoramizdagi har bir inson uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan mustahkamlab qo'yilgan asosiy inson huquqlaridir. Bu huquqlarga zo'ravonlik, qullik va kamsitishlardan xoli yashash, ta'lim olish, mulkka egalik qilish, ovoz berish, adolatli va teng ish haqi olish huquqlari kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi xotin-qizlarning taraqqiyot va tinchlikka qo'shgan muhim hissasini e'tirof etgan holda va dunyoning ko'p joylarida hali ham ayollar teng huquqlarga ega emasligidan xavotir olib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1976-1985 yillarni "Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollarning milliy manfaatlarini dunyo bo'ylab qo'llab-quvvatlash uchun o'n yilligi" deb e'lon qildi. Ayollar uchun o'n yillikning eng muhim yutug'i ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning qabul qilinishi (1979) va tezda kuchga kirishi (1981) bo'lib, unda ayollarga nisbatan diskriminatsiyaga barham berish, gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirishning barcha tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha qo'mita tashkil etilgan.

Milliy ayollar harakati, o'z navbatida, so'nggi o'n yillikdagi jahon konferensiyalariga katta ta'sir ko'rsatdi va ushbu harakat Nyu-Yorkdagi Bolalar sammitida (1990) qiz bolaning alohida ehtiyojlari haqida; Rio-de-Janeyrodagi Yer sammitida ayollarning barqaror rivojlanishdagi markaziy roli (1992); Qohiradagi aholi konferensiyasida ayollarning reproduktiv huquqlari (1994) va Kopengagendagi ijtimoiy sammitda (1995) qashshoqlikni bartaraf etishda ayollarga alohida e'tibor qaratildi.<sup>1</sup> "Human rights today", 38-bet]

Statistikaga qaraydigan bo'lsak, hozirda O'zbekiston aholisi taxminan 34 million 290 ming kishini bo'lsa va shundan 50,3% ini ayollar tashkil qiladi, ya'ni jamiyatda ayollarga nisbatan erkaklar kam. Ammo shunga qaramasdan, davlat boshqaruvi sohasida xotin-qizlarning roli erkaklarning rovidan ancha pastdir. Bu jarayonni oldini olish maqsadida so'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat

<sup>1</sup> "Human rights today", UN publication 1998; 38-bet

Mirziyoyev bilan birga hukumat va jamiyatda ayollar uchun juda keng ijobiy o'zgarishlar bo'lmoqda. O'zbek oilasida hal qiluvchi rol o'ynaydigan ayollar mamlakatda o'z haq-huquqlari yildan yilga tiklanganligiga, keng imkoniyatlar eshiklari ochib berilganligiga guvoh bo'lib kelishmoqda. Masalan, Prezidentimiz Respublika jamoat xotin-qizlar kengashini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdilar va bu, o'z navbatida, jamiyatda ayollar rolini oshirishga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomidir.

Bugungi kunda xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor, imkoniyatlar va imtiyozlarga nazar solsak, taxminan 10-15 yil oldinga taqqoslaydigan bo'lsak, bu ko'rsatgich juda ham shiddat bilan o'sib borayotganini guvohi bo'lamiz va buni anglash qiyin bo'lmaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning (05.03.2021 yildagi PQ-5020) "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi qarori va Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining (28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son) qarori asosida sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi, shuningdek shu qaror asosida O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Bu harakatlarning barchasi jamiyatimizdagi xotin-qizlarning nafaqat huquq va manfaatlarini qonuniy ravishda himoya qilishga, balki jamiyat va davlat boshqaruvida ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiyhuquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularni tazyiq va zo'raonlardan himoya qilishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Afsuski, mamlakatimizda ayollarga berilayotgan shuncha e'tibor, imkoniyatlarga qaramay, vazirlik lavozimlarida va parlamentda ishlayotgan ayollar bo'yicha 2021-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatni aks ettiruvchi vazirlik lavozimlarida va parlamentda ayollarning ulushi bo'yicha tuzilgan mamlakatlar reytingida O'zbekiston "Parlamentdagi ayollar" bo'yicha 2% foizdan 4,9% ni ko'rsatmoqda va o'z navbatida eng quyi o'rinlarda, ya'ni 180-o'rinda turganligi achinarli holatdir. Ammo "Vazirlik lavozimlarida ayollar" bo'yicha 30% dan 34.9% foizni tashkil etadi va 46-o'rinni, shuningdek, Germaniya, Kanada, AQSH davlatlaridan oldingi qatordan o'rin egallaganimiz bilan faxrlansak arziydi.

Shu o'rinda, xorijiy hamkorlarimiz tomonidan O'zbekiston hududida ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligi, ayollarning uyg'un rivojlanishi, ularning katta ijodiy va ma'naviy salohiyatini amalda tadbqiq etish uchun olib borilgan siyosat haqida aytgan gaplardan iqtibos keltirsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

**AQSh Ayollar tashkilotlari milliy kengashining raisi, Ayollarni o'rganish va o'qitish instituti prezidenti Syuzan Skanlanning fikr bildirishicha,** O'zbekistonda ayollar huquqlarining himoyasi bo'yicha qabul qilinayotgan choratadbirlar yuqori bahoga munosibdir. "O'zbekiston ta'limning boshlang'ich bosqichidanoq qizlarning yuqori maosh to'lanadigan kasblarga (ilm-fan,

texnologiya, injeneriya va boshqalar) tayyorlanishi nuqtai nazaridan boshqa mamlakatlardan, shu jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlaridan oldinda, deb hisoblaydi u. Respublikaga safarlarim chog'ida qizlar orasida bunday bitiruvchilarni ko'p uchratdim, men ularning sa'y-harakatlari va muvaffaqiyatlaridan quvonaman. Ayollarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yuzasidan ko'rilayotgan choratadbirlar, ayniqsa, qishloq joylarda ayollar ehtiyojlariga qaratilayotgan e'tibor alohida diqqatga sazovordir. O'zbekistonga birinchi safarim chog'ida butun mamlakat bo'ylab homilador ayollar va yosh onalarga maxsus tibbiy xizmat ko'rsatadigan sayyor guruhlarining faoliyati bilan tanishdim. Bunday usulni Amerikada ham qo'llasa bo'ladi".

**Fuqarolik jamiyati muammolari tadqiqot markazining (Ukraina) direktori Vitaliy Kulik** qayd etishicha, gender munosabatlari butun madaniyatni, jamiyat qurilishi, davlat institutlari, qaror qabul qilish usullari va fikrlash uslubini o'zida mujassam etadi. Ular tilda, urf-odatlarda, san'at va hatto ishlab chiqarishda ham o'zining o'chmas izini qoldiradi. "O'zbekistonda maksimal darajadagi bandlikni ta'minlashga, ishlaydigan ayollarning daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan samarali gender siyosati ishlab chiqilgan va u hayotga tadbiiq etilmoqda, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining bitiruvchi qizlari bandligi ta'minlanishiga ko'maklashish amalga oshirilmoqda. "Ayollarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi, ularning farovonligi va ijtimoiy himoyasi yaxshilanishi bo'yicha majmuaviy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bo'yicha O'zbekiston tajribasi Markaziy Osiyo davlatlari uchun davlat gender siyosatining modeli bo'lishi mumkin, ayrim masalalarda esa u jinslar teng huquqliligi ta'minlanishidagi Yevropa tajribasini ham boyitadi", deb hisoblaydi V.Kulik.<sup>[2]</sup>

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, oliy ma'lumotli mutaxassis, bunyodkor, yangiliklar yaratuvchi, ijodkor bo'lgan bugungi O'zbekiston xotin-qizlari o'zining mehnatkashligi, iqtidori va salohiyati, kuchi bilan ulkan natijalarga erishib kelmoqda. Ayni paytda ular oila va jamiyatimizda tinchlik, totuvlik, farovonlik va hamjihatlikni ta'minlashdek mas'uliyatli vazifalarni ham, hattoki, o'zining nozik yelkasida ko'tarib kelmoqda.

Davlat tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dod va intilishlarini yuzaga chiqarish uchun barcha shart-sharoit yaratish borasida izchil ishlar olib borilayotganligini bilamiz va buning guvohi bo'lib kelmoqdamiz. Bu yo'nalishdagi islohotlarning natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholangani holda O'zbekiston ayollari alohida e'zoz va hurmat topgan mamlakat sifatida nom qozondi. Albatta, shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda ayollar huquqini himoya qilish, ularga erkinlik, tenglik, qulay sharoit yaratib berish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zero, xotin-qizlar huquqlari inson huquqlaridir.

<sup>2</sup> <http://uzbekistan-geneva.ch/xalqaro-ekspertlar-o-zbekiston-ayollar-huquq-va-manfaatlarini-himoya.html>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. "Bugungi inson huquqlari", Birlashgan Millatlar Tashkiloti nashri, 1998-yil.
2. Richard Clayton and Hugh Tomlinson, Oxford University Press; Updated edition (November 6, 2003).
3. Inson huquqlari darslik.



## “GENDER TENGLIK FAOLI” VA “YIL AYOLI” MILLIY TANLOVI

*Marjona Muzaffarova Umid qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavr talabasi*

*[marjonmuzaffarova0705@gmail.com](mailto:marjonmuzaffarova0705@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kundagi davlat boshqaruv organidagi xotin-qizlarning roli va ahamiyati haqida statistik ma'lumotlar aks ettirilgan. Shuningdek, O'zbekiston hududida amalda bo'lgan gender tengligi hamda xotin-qizlarga oid qonunchilik tahlil qilingan bo'lib, ular uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar bo'yicha alohida to'xtalib o'tilgan. Maqolada birgina "Gender tenglik faoli" va "Yil ayoli" ko'rik tanlovi orqali mamlakatimizdagi xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlarni ko'rish mumkin hamda bu bo'yicha xulosalar qismi ifoda etilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, "Gender tenglik faoli", "Yil ayoli" ko'rik tanlovi, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, tanlov g'oliblari.


**Аннотация.** В данной статье представлены статистические данные о роли и значении женщин в государственном управлении на сегодняшний день. Также были проанализированы гендерное равенство и законодательство о женщинах, действующее на территории Узбекистана, и отдельно рассмотрены созданные для них возможности и привилегии. В статье можно увидеть возможности, предоставленные женщинам в нашей стране благодаря конкурсам «Активистка гендерного равенства» и «Женщина года», а также часть выводов.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, «Активистка гендерного равенства», конкурс «Женщина года», поддержка женщин, победительницы конкурса.

**Abstract.** This article presents statistical information about the role and importance of women in state administration today. Also, gender equality and the legislation on women in practice in the territory of Uzbekistan were analyzed, and the opportunities and privileges created for them were discussed separately. In the article, it is possible to see the opportunities given to women in our country through the "Gender Equality Activist" and "Woman of the Year" competition, as well as the part of the conclusions.

**Key words:** gender equality, "Gender Equality Activist", "Woman of the Year" competition, support for women, competition winners.

**Bosh qomusimiz bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Respublikasi Konstitutsiyasida har ikkala jins vakillarining tengligi kafolatlangan bir davrda yashamoqdamiz. Bugungi kunda yil sayin yurtimizda yuqori lavozimlarda ishlovchi ayollar soni ortib bormoqda, bu borada 2022 yilning 27-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Senat kengashi tomonidan qabul qilingan qaror gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida muhim qadam bo'ldi.**



Aslida, insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblangan gender tenglik, ya'ni erkaklar va xotin-qizlar tengligi bu eng yuqori darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotning ham asosiy negizidir. Sababi ba'zi mutaxassis olimlarning fikricha, faqat erkaklardan iborat jamoaga nisbatan erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari bir necha barovar yuqoriroq natija ko'rsatar ekan. Yana bir muhim jihati shundaki, agar bizning yurtimizda gender tenglik yuqori darajada ta'minlansa, bu rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishga, yurtimizga ko'proq investitsiyalar jalb qilishga katta yordam bergan bo'ladi. Chunki yer yuzidagi har vin inson o'z huquq va kafolatlari ta'minlangan, erkin holda yashashni, mehnat faoliyatini davom ettirishni xohlashadi. Shuningdek, tarixga nazar soladigan bo'lsak, qadimgi yunon olimlari Suqrot, Arastu va Aflotunlar eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polislarini nazarda tutishgan.

Jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, har jihatdan ibratli xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni keng targ'ib qilish va jamoatchilikka yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan har yili milliy ko'rik-tanlovi o'tkazilmoqda. Shulardan biri bugungi kunda o'z nomi bilan mashhur bo'lgan va tashkillashtirishda, amalga oshirishda qizg'in jarayonlar kuzatilayotgan "Gender tenglik faoli" va "Yil ayoli" milliy ko'rik-tanlovlaridir. Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Senati binosida "Gender tenglik faoli" milliy tanlovining respublika bosqichini o'tkazish borasida qizg'in muhokamalar olib borilmoqda. Mazkur tanlovni o'tkazishdan asosiy maqsad bu- har bir tashkilotda va ularning faoliyatida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni shakllantirish, ushbu masalalar bo'yicha jamoatchilik e'tiborini keng jalb qilish va turli xil tuzilmalar faoliyatiga gender tenglikni singdirishdan iboratdir.

Tanlov haqida qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsam, mazkur tanlovda gender tenglikni ta'minlash sohasida yuqori natijalarga erishgan va shu yo'nalishda jamiyat rivoji uchun tashabbus ko'rsatayotgan, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, o'zlarining sohalarida dolzarb vazifalarni amalga oshirayotgan vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari, hokimliklar, tadbirkorlik

subyektlari va ommaviy axborot vositalari qatnashish imkoniyatiga egadirlar. Ishtirokchilar ikki xil tartibda: jamoaviy va yakka tartibda ishtirok etish huquqiga egalar. Tanlovning asosiy 7 ta nominatsiyalari mavjud bo'lib, 3 ta qo'shimcha nominatsiyalar ham ajratilgan. Tanlov har yili 1-iyundan boshlab, 30-dekabrgacha nominatsiyalardan kelib chiqqan holda tashkil etiladi va fuqarolarning qanday nominatsiyaga topshirishlariga qarab turli bosqichlarga ajratilgan. Eng qiziqarli tomoni, tanlovning har bir bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar har bir nominatsiya bo'yicha unvon, faxriy diplom, esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. "Gender tenglik faoli- 2021" Respublika tanlovining natijalariga ko'ra, "**Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hokimlik**" -Samarqand viloyati hokimligi, "**Gender tenglikni ta'minlashda eng faol NNT**" – "To'maris" ayollar va yoshlar markazi, "**Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan internetdagi eng yaxshi axborot portal**" – "Human.uz" axborot portali jurnalisti Nargiza Yunusova va boshqalar munosib taqdirlandilar.

O'zbekistonda uy bekalari ham milliy tanlovlarda ishtirok etishlari haqida hech eshitganmisiz? O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining qaroriga ko'ra, "Yil ayoli" tanloviga 35 yoshdan yuqori hamda o'z yo'nalishi bo'yicha kamida 5 yil mobaynida uzluksiz ishlab kelayotgan ayollar va yuqorida aytib o'tganimizdek, uy bekalari ham ishtirok etsalar bo'ladi. Senatning qayd etishicha, mazkur ko'rik tanlov mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shayotgan, turli sohalar bo'yicha mehnat qilayotgan, o'z oilasida va farzand tarbiyasida o'rnak bo'layotgan, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida har yili o'tkazib kelinmoqda. Bunday sifatlarni quyidagi "Yil ayoli- 2021" tanlov g'olibalari orqali topishimiz mumkin: **Oliy o'rin**- Gran pri, statuetka va Prezident sovg'asi- avtomobil sohibasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi "Orzu" fermer xo'jalik rahbari Palzada Saliyeva deb topildi.

**1-o'rin** - Samarqand davlat tibbiyot instituti 2-son Otorinolaringologiya kafedrasi mudiri Nasriddinova Mahzuna Taxsinovna,

**2-o'rin** - Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Sharopova Dilfuza Qudratovna,

**3-o'rin** - Shahrisabz shahridagi «Mevazor-Saodat» ishlab chiqarish kooperativi boshlig'i Nizomova Saodat Kenjayevnalar taqdirlandilar.



Mazkur yil ayollari osonlikcha bunday natijaga erishganlari yo‘q, albatta. Ular 2 bosqichni ham muvaffaqiyatli tugatib, respublika bosqichigacha qadam qo‘yishdi va bu bosqichda ham 3 shart bo‘yicha saralanib olindilar. Mazkur g‘olibalardan tashqari, turli xil nomdagi nominatsiyalar bo‘yicha ham ayollar taqdirlanadilar. Masalan, “Yilning eng vatanparvar ayoli”, “Yilning eng faol olim ayoli”, “Yilning eng yaxshi uy bekasi”, “Yilning eng jonkuyar ustoz” va boshqalar.

Bunday sa‘y-harakatlar nafaqat o‘zbek xalqining e‘tiborida, balki jahondagi boshqa davlatlarning ham e‘tibor markazidadan joy olmoqda. Masalan, 2022-yil Yaponinaning “Atpress” elektron nashrida “O‘zbekistonning gender tenglik sohasidagi sa‘y-harakatlari” sarlavhali maqola e‘lon qilingan bo‘lib, unda ta‘kidlanishicha, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglik, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, jamiyat va davlat hayotidagi rolini mustahkamlash masalalari davlat siyosiyati darajasiga ko‘tarilgan.

Bundan tashqari, ayni paytda mamlakatda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash va gender tengligiga erishish borasida shiddat bilan sa‘y-harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 tadan ortiq qonunchilik hujjati qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta‘limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Bunday natijalarning barchasi O‘zbekistonda olib borilayotgan yirik islohotlar natijasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ularning oiladagi mavqeyini mustahkamlash borasida yetarli ahamiyat va e‘tibor berib kelinmoqda hamda bu boradagi ishlar yanada jadallashtirilgan tarzda davom etib kelmoqda. O‘z navbatida, gender tenglikni

ta'minlash va xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirish maqsadida ko'zlangan "Yil ayoli" va "Gender tenglik faoli" milliy ko'rik-tanlovlari o'z samarasini namoyish etmoqda, ya'ni turli xil tashkilotlar, vazirliklar va hattoki, nodavlat notijorat tashkilotlar ham "Gender tenglik faoli" tanlov g'olibi bo'lish uchun o'z faoliyatida gender tenglikni ta'minlashga intilishmoqda. Yoki bunday rag'batlantirishning natijasiga yana bir yorqin misol qilib, ayollarning boshqaruv faoliyati deysizmi, ta'lim sohasida deysizmi foiz ko'rsatgichi ancha yuqoriladi. Bunday tanlovning yana bir muhim jihati bu- "Yil ayoli" tanlovida uy bekalarining ham ishtiroklarini ta'minlashga qaratilganligidir. Shunday ekan, mamlakatimiz rivojlanishi uchun, gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotida o'z o'rnini topish uchun birlashaylik. Zero birikkan – kuch, birikmagan esa puchdir.

## HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI MUNOSIB HARAKATLAR

*Muzaffarova Marjona Umid-qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi*  
[marjonmuzaffarova0705@gmail.com](mailto:marjonmuzaffarova0705@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'tgan davrdagi O'zbekiston SSR va bugungi kundagi mamlakatimizning huquq tizimi uchun o'zining muhim hissasini qo'shgan birinchi ayol huquqshunos Xadicha Sulaymonovaning hayoti va huquq sohasidagi ijodi batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, uning huquqshunoslikka ilk qadamlari, munosib harakatlari orqali erishgan yutuqlari, huquqshunoslik bo'yicha qilgan mehnatlari, o'qituvchilikdan Oliy Sud sudyasi, akademik bo'lgan davri hamda uning nomiga bag'ishlanib sud-ekspertizasiga Xadicha Sulaymonova nomi berilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xadicha Sulaymonova, huquq, "Hujum" kompaniyasi, akademik, jinoyat huquqi, sud-ekspertisasi, ilk huquqshunos ayol.

**Аннотация.** В данной статье подробно рассказывается о жизни и деятельности первой женщины-юриста Хадичи Сулаймановой, внесшей важный вклад в правовую систему Узбекской ССР в прошлом и правовую систему нашей страны сегодня. Также приводится информация о ее первых шагах в юриспруденции, достижениях достойными усилиями, работе в юриспруденции, работе судьей Верховного суда от учителя, научной карьере, а также имя судебного эксперта Хадичи Сулаймановой назван в ее честь.

**Ключевые слова:** Хадича Сулайманова, закон, компания «Худжум», академик, уголовное право, судебная экспертиза, первая женщина-юрист.

**Abstract.** This article describes in detail the life and work of the first female lawyer Khadicha Sulaimanova, who made an important contribution to the legal system of the Uzbekistan SSR in the past and the legal system of our country today. Also, information is given about her first steps in law, her achievements through worthy efforts, her work in law, her time as a judge of the Supreme Court from a teacher, her academic career, and the name of Khadicha Sulaimanova, a forensic expertise named after her.

**Key words:** Khadicha Sulaimanova, law, "Hujum" company, academician, criminal law, forensic expertise, the first female lawyer.

Og'ir kasallik vaqtida: "Menga hech bo'lmasa yana bir yilcha umr kerak edi, bir yil... ilmiy fikrlarimni yozib qoldirishim uchun" deya ezgu orzusi armon bo'lgan akademik, huquqshunos Xadicha Sulaymonova qisqa umr kechirishiga qaramasdan, kelajak avlod uchun ulkan ilmiy merosini qoldirib ketdi.



Yosh bo'lishiga qaramasdan, 22 yoshida Oliy sud sudyaligiga tavsiya etilgan Xadicha Sulaymonova 1913-yilda Andijon viloyatida ziyoli oilada dunyoga keladi. Boshiga tushgan og'ir kunlarga qaramasdan o'z maqsadi sari intilgan va shu yo'lda jon fido qilgan insonlardan biri edi. Huquq sohasiga kirib kelishiga o'sha paytlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham sabab bo'lgan. Masalan, "Hujum" kompaniyasi tuzilib, xotin-qizlar paranjilarini tashlagan yillarda Nurxon ismli qizning o'z akasi tomonidan o'ldirilgani bo'yicha ochiq sud Xadichada ulkan qiziqish uyg'otgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur sud jarayonida jamoat qoralovchi sifatida Tojixon Shodiyeva ishtirok etadi. Sud jarayonida Tojixondagi g'azabni ko'rgan yosh Xadicha jinoyatchini qoralashning daxshatli kuchiga to'la ishonch hosil qiladi va uning qalbida Tojixondek bo'lish, stolda o'tirgan qattiqqo'l, sabotli sudyalardek bo'lish niyati paydo bo'ladi.

Toshkentda ilk bor Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan paytlarda huquqshunoslikka bo'lgan qiziqishi Xadicha Sulaymonovani ushbu dargohga yetaklaydi va 1935 yilda o'qishni peshqadam talabalaridan biri sifatida yakunlashiga olib keladi. O'qishni bitirgach, tuman sudiga sudya qilib ishga yuboriladi va ko'p vaqt o'tmay u Oliy sud sudyaligiga tavsiya qilinadi. 3 yil o'tgach, Xadicha Sulaymonova Moskva yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasi aspiranturasiga qabul qilinadi. 1945-yilda yurisprudensiya sohasida birinchi olima ayol, yuridik fanlar doktori, professori maqomlariga sazovor bo'ladi. Agar bunday yutuqlarni davom ettiradigan bo'lsak, barmoqlarimiz yetmaydi va ko'p ishlarda birinchilardan, "qaldirg'och"lardan hisoblaniladi.

II jahon urushining boshlanishi sababli aspiranturadagi o'qishi to'xtaydi va yosh olima Toshkent davlat yuridik institutiga ishga jo'natiladi. Mazkur institutda 2 yil yordamchi, so'ng dotsent vazifasini bajaruvchi bo'lib talabarga dars berish

orqali pedagogika sohasiga qadam qo'yadi. Shundan so'ng, 45 yilda o'zining uzoq muddatdagi izlanishlari natijasida mehnatining mevasi hosil bera boshlaydi, dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qiladi va huquqshunoslik sohasida ilmiy darajaga ega bo'lgan birinchi o'zbek ayoli sifatida tarixga muhrlanadi. Shu yili Toshkent yuridik instituti Jinoyat huquqi kafedrasini rahbari etib tayinlanadi. Xadicha Sulaymonova bu bilan to'xtab qolmay, yana o'z orzulariga erishish maqsadida doktoranturaga o'qishga kirib, doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Ko'rinib turibdiki, insonda o'qish uchun va Vatanini rivojlantirish uchun niyat bo'lsa va ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun chindan ham harakat qilsa, albatta bu inson o'z maqsadlariga erishadi, bunga esa zamonning, yoshning yoki boshqacha bir obyektiv sabablar to'sqinlik qila olmaydi.

Jazolashdan asosiy maqsad ozodlikdan mahrum qilish emas, balki aybdor o'z xatosini qalbi bilan his etsin va qilgan qilmishlaridan pushaymon bo'lsin, biz unga ishonaylik – deb uqtirardi Xadicha va shu yo'l bilan sudyalari, huquqshunoslarni adolatli bo'lishga chorlar edi. Bunga yaqqol misol qilib, O'zbekiston Oliy sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga yo'llagan protestini ko'rishimiz mumkin. Ushbu protestda Toshkent viloyati sudyasi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy xatti-harakati qoralangan bo'lib, o'z navbatida adolatni tiklashga yordam bergan. Bu insonning huquq sohasining taraqqiyotiga qo'shgan yana bir hissasi bu - tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan ishi bo'lib, o'zi bilan bir kunda akademik unvonini olgan Ibrohim Mo'minov bilan birgalikda falsafa va huquq institutini tashkil etishi bo'ldi. Institut shakllanib, o'z faoliyatini boshlagandan so'ng yana bir ezgu ishga qo'l uradi, ya'ni "O'zbekiston sovet davlati va huquqi tarixi" nomli uch jildi kitob hammualliflikda nashr qilinadi.

O'zbekistonda ilk huquqshunos ayol bo'lish baxti nasib qilgan Xadicha Sulaymonova Toshkent yuridik institutida kunduzi ma'ruzalar o'qir, amaliy mashg'ulotlar o'tkazar, charchab uyga borganidan so'ng yarim tungacha dissertatsiyasini yozish bilan band bo'lar edi. Mashaqqatlar o'z natijasini berib, dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgandan so'ng, huquqshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasi berildi. Uning ilmiy-tadqiqotlarining o'ziga xos jihati shundaki, mamlakatimizda jinoyat huquqining rivojlanishi borasida ilmiy va amaliy takliflar bilan birga o'sha yillarda kuchga kirgan birinchi O'zbekiston Jinoyat kodeksiga ancha mukammal tarzda sharh berilgan. Bundan tashqari, inqilobga qadar Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi ijtimoiy-siyosiy hamda davlat qurilishi huquqining belgilariga alohida e'tibor berilgan va Turkistonda davlat va qonunchilikning yaratilishi tarixi yoritilgan III tomli "O'zbekiston sovet davlati va huquqi tarixi" nomli kitob nashr etiladi.

Xadicha Sulaymonovna nafaqat zukko olimasi, balki tug'ma tashkilotchi va boshqaruvchi xislatlari o'zida namoyon bo'lgan shaxs sifatida boshqalardan ajralib turgan. Olimasi 1954 yilda Toshkent yuridik institutiga direktor lavozimiga tayinlanadi va shu yili "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoniga munosib deb topiladi. 1956- 1958 yillarda O'zbekiston SSR Adliya vaziri, O'zbekiston SSR FA (Fanlar Akademiyasi) haqiqiy a'zosi, akademik,



O'zSSR Ministrlar soveti huzuridagi yuridik komissiya raisi va hayotining so'nggi yillarida esa O'zSSR Oliy sudi raisi etib tayinlanadi. Mazkur lavozimlarda ishlagan vaqtlarida ko'p mashhur insonlar tomonidan e'tirof etiladi. Chuqur bilim sohibasi, iste'dodli olim hayotini yurtimizda ko'p yaxshi va savobli ishlarni amalga oshirishga hamda huquqshunoslik fani rivojiga hissa qo'shishga, bor bilimni munosib shogirdlarni tarbiyalashga bag'ishladi. Albatta, mashaqqatli harakatlar o'z egasining maqsadlarini amalga oshirishga yordam bermay qolmadi. Xadicha Sulaymonovaning tinimsiz mehnatlari, izlanishlari va huquqshunoslik sohasining rivojlanishi uchun chekkan mashaqqatlari meva bera boshladi, hududlarda qonuniylik ilgarigi holatga nisbatan ancha ta'minlandi, bir qancha huquqqa oid kitoblar chop etilib, shu sohada ta'lim olayotgan talabalarga ancha yengillik yaratildi va bu kelajak uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

Davlatimizdagi huquq sohasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Masalan, olim nomi berilgan hozirgi Sud-ekspertiza markazi ham ko'p urinishlar, mashaqqatli harakatlar evaziga bunyod etilgan. Sud-tergov ishlarining haqiqatga nechog'lik yaqinligi aynan shu narsa- sud ekspertizasi natijalariga bog'liqligini tushunib yetgan akademik Xadicha Sulaymonova ipidan ignasigacha, institut binosiga tamal toshini qo'yishdan boshlab, uni zamonaviy kerakli jihozlar, asbob-uskunalar bilan ta'minlashdek mashaqqatli ishga bosh bo'lgan. 2021 yilga kelib Markazning 70 yilligi nishonlandi va ushbu kunda Markaz direktori Akram Xalilovning ta'kidlashicha, bugungi kunda Markazda amalga oshiriladigan sud ekspertlik turlari 50 taga va mutaxassisliklar esa 69 taga yetgan. Shuningdek, institut binosida Xadicha Sulaymonova muzeyi ham ochilgan, bo'lib muzeyda olimaning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'zgacha zavq bilan o'rganish imkonini beradi.

Akademik Xadicha Sulaymonova mamlakatimiz va huquq sohasi uchun munosib darajada fidoyilarcha xizmat qildi desak adashmaymiz. Bu insonning sharofati bilan sovet davri bo'lishiga qaramay, milliy huquq tizimimiz bir pog'onaga yuksaldi, qatag'on qurbonlarini oqlashda o'z hissasini qo'shdi hamda bir qator xalqaro anjumanlarda ishtirok etib, yurtimizni xalqaro maydonga olib chiqib tanitdi. Bir so'z bilan aytganda, iste'dodli olimaning o'z kasbiga fidoyiligini, kasbining mutaxassis ekanligini u o'qitgan shogirdlariga, u yozgan kitoblariga, u tomonidan qilingan barcha ezgu amallariga qarab anglash qiyin emas. Uning ibratli va sermazmun hayoti, bosib o'tgan yo'llari shogirdlar uchun yo'lchi yulduz bo'ladi va ilmiy-madaniy merosi nafaqat huquq sohasida ta'lim oladiganlar uchun, balki boshqalar uchun ham ajoyib namuna bo'lib xizmat qiladi.

## ANTI-K DAVR XORAZM ME'MORCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Salayev Soliyjon Zokirjon o'g'li*  
*magistrant, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola qadimgi Xorazm me'morchiligi va uning o'ziga xos xususiyatlari, o'sha davr arxitekturasi tarixiy ildizlari va shu bilan birgalikda boshqa davlatlarda uchramaydigan alohida strukturasi haqida so'z yuritadi.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается об архитектуре древнего Хорезма и специфических чертах, исторических корнях архитектуры того времени, также ее особом строении, не встречающемся в других странах.

**Annotation.** This article talks about the architecture of ancient Khorezm and its specific features, the historical roots of the architecture of that time, as well as its special structure that is not found in other countries.

**Kalit so'zlar:** Ahamoniylar sulolasi, Iskandar Zulqarnayn, ellinlashtirish, xom g'isht, paxsa, somon, zardushtiylik.

**Ключевые слова:** династия Ахеменидов, Александр Македонский, эллинизация, кирпич-сырец, солома, солома, зороастризм

**Key words:** Achaemenid dynasty, Alexander the Great, Hellenization, raw brick, straw, straw, Zoroastrianism.

Markaziy Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy hududlari orasida Xorazm o'ziga xos rivojlanish yo'li va shunga mos ravishda madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, hattoki, asosan "tabiiy sharoit bilan belgilanadigan" ayrim o'ziga xoslik bilan ajralib turadi.<sup>3</sup> Va agar biz tarixga nazar tashlasak, Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm- Ahamoniylarga qaram bo'lmagan, mustaqil satraplik, Ahamoniylar shohining munosib ittifoqchisi bo'lgan.<sup>4</sup> Bunda asosiy rolni Amudaryo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan O'zboy kanali o'ynagan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, "Ahamoniylar davlatining har bir hududi o'z an'alarini rivojlantirishda davom etmoqda, garchi u o'zining rasmiy fors san'atiga e'tibor qaratish zarurati bilan bog'liq ko'ringan bo'lsada".<sup>5</sup> Ahamoniylar, o'z navbatida, ular bosib olgan hududlarda sug'orish ishlaridan tashqari, istehkomlar va turar-joy binolari qurish bilan ham shug'ullanganlar.

Iskandar Zulqarnaynning davlat tepasiga kelganida va yunon-makedon qirollari hukmronligi davrida u Osiyoda - mustaqil davlat edi. Xorazmda ellinlashtirish uchun shart-sharoit yo'q edi, buning sabablaridan biri qadimgi Eron zodagonlari va qadimgi Eron xudolariga sig'inish edi. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, "qadimgi xorazmliklarning madaniy aloqalari, asosan, Osiyo davlatlarining

<sup>3</sup>Rtveladze E.V., Alimova D.A. O'zbekiston davlatchiligi tarixi, I jild – Toshkent, 2009 y. 107.

<sup>4</sup>O'sha yerda, p. 131.

<sup>5</sup>Nikulina N.M. Qadimgi yunon va qadimgi Sharq san'atining o'zaro bog'liqligi to'g'risida // Sovet Sharqi xalqlari madaniyati va san'atida antiklik va qadimiy an'analar. - M., 1978, b. 39.

turli hududlariga cho'zilgan.<sup>6</sup> va arxitekturada butunlay "eski Sharq ruhi hukmronlik qilgan"<sup>7</sup>. Arxitektura va umuman madaniyatdagi bunday mustaqillikka "kuchli siyosiy tashkilot va qisman qulay geografik joylashuv ham sabab bo'ldi."<sup>8</sup>. Ushbu hudud me'morchiligining o'ziga xosligi uning hech qanday tarzda izolyatsiya qilinishini anglatmaydi. Sharq an'analarini ijodiy o'zlashtirgan holda, bu davr Xorazmda o'ziga xos uslub yaratilgan.

Shunday qilib, asosiy qurilish materiali xom g'isht bu hududda paxsadan oldin paydo bo'lgan (Jonboz-qal'a No7). Bu katta kvadrat shaklidagi g'isht bo'lib, uning o'lchamlari 40-42 sm dan 10-11 sm qalinlikda bo'lgan va eramizning birinchi asrlarida 44-45 smga o'zgargan. Ma'lumki, binolarning shakli g'isht shakliga bog'liq edi - "kvadrat g'isht formati bilan g'ishtning yarmini ishlatishga to'g'ri kelgan"<sup>9</sup>. Xorazmda xom g'ishtdan tashqari kombinatsiyalangan devor - paxsa va xom g'ishtning kombinatsiyasi ham qo'llanilgan. Masalan, kuchliroq mustahkamlik uchun Janbasqal'aning pastki qismidagi qal'a devorlari paxsadan, devorlarning o'zi paxsa va xom g'isht, yuqori qismi xom g'ishtdan qilingan, bundan esa "konstruksiyanı yaxshi tushunish"<sup>10</sup>ni ko'rish mumkin. Xorazmdagi paxsa qurilishiga xos bo'lgan yana bir konstruktiv tafsilot suv o'tkazmasligi uchun paxsa bo'laklari ostiga qamish qatlamining kiritilishidir.<sup>11</sup>. Bunday konstruktiv texnika devorlarni tuzlarning kirib kelishidan himoya qildi. Qumli tuproqlarda (Ayoq-qal'a №3) binolar uchun uzluksiz chiziqli poydevorlarni tashkil qilish tizimi ham qiziqish uyg'otadi.

Qadimgi Xorazm me'morchiligi bo'yicha barcha asosiy bilimlar 1937-yilda 40 yildan ortiq umrini ushbu mintaqani o'rganishga bag'ishlagan S.P. Tolstov orqali yetib kelgan. U Qadimgi Xorazmning bilim darajasi yuksakligini qayd etgan<sup>12</sup>. Bu hududning antik davr arxitekturasi qadimgi me'morlarining tabiiy sharoitga asoslangan qurilish materiallari va konstruksiyalari haqidagi bilimlari kuchli ekanligi, ularning zukkoligidan dalolat beradi. Me'morchilikdagi qum bilan tsementlangan g'ishtlar mustahkam qobiq hosil qiladi, bunday yo'nalish qumtepalarni tashqi loy qatlami va qurilish parchalari bilan mahkamlash orqali shakllangan.. Tolstovning so'zlariga ko'ra, bunday tuzilmalar ko'proq barqarorlikni ta'minlaydi va binoni tuproq tuzlaridan himoya qildi. Keyinchalik, III asrda inshootlarda ohak o'rniga allyuvial qum ishlatilgan. Oldindan ishlov berishni talab qilmagan holda, u g'isht, gips, ohaklarda "ularning plastikligini oshirish va

<sup>6</sup>Vorobieva M.G. Qadimgi Xorazm san'ati va hunarmandchiligi yodgorliklarida qadimiy an'analar // Sovet Sharqi xalqlari madaniyati va san'atida qadimiylik va qadimiy an'analar. - M., 1978, b. 234.

<sup>7</sup>Lelekov L.A. O'rta Osiyodagi ellinistik badiiy madaniyatning mahalliy markazlari // Sovet Sharqi xalqlari madaniyati va san'atida antiklik va qadimiy an'analar. - M., 1978, b. 228.

<sup>8</sup>Pugachenkova G.A. O'rta Osiyo antik davr arxitekturasi // VDI, 1951, No 4, b. 189.

<sup>9</sup>Voronina V.L. Markaziy Osiyoning qadimiy qurilish texnologiyasi // Fanlar akademiyasi, 1953 yil, 3-son, b. 9.

<sup>10</sup>O'sha yerda, p. 13.

<sup>11</sup>Pugachenkova G.A. Markaziy Osiyo mintaqasining qadimiy istehkom me'morchiligining xususiyatlari (so'nggi tadqiqotlar nuqtai nazaridan). Matn yozuvi, p. 17.

<sup>12</sup>Tolstov S.P. Beruniy va uning davri // Beruniy. - M., 1950 yil.

quritilganda yorilishning oldini olish" uchun qo'shimcha sifatida ishlatilgan.<sup>13</sup>. Ma'lumki, Xorazm seysmikligi 5-7 ballgacha bo'lgan hudud bo'lib, shuning uchun qum massaviy material sifatida uni zilzilalar paytida fizika qonunlariga bo'ysunadigan me'moriy yodgorliklar poydevorida ishlatish uchun ideal xomashyo edi. Va ishonchliligi uchun "paxsa qatlamlari katta xonalarning pollari ostiga yotqizilib, ular yaratgan xandaqlarda qumni lokalizatsiya qilishdi"<sup>14</sup>. Shuningdek, qum namlikni saqlamaslik xususiyatiga ega bo'lib, u yer osti suvlari yuqori bo'lgan Xorazm tuprog'i uchun muhimdir.

Ayniqsa, II-III asrlarda qurilish texnikasi yaxshilandi. Bundan ko'rinib turibdiki, har xil turdagi g'ishtli gumbazli inshootlarning qurilishi tabiatan juda nozik bo'lgan va ularning kengligi bu tuzilmalar uchun ta'sirchan hajmga ega (masalan, Tuproq-Qal'ada 3,6 m). Qayd etish joizki, "Xorazmliklar qabr o'rnatish san'atini mukammallikka yetkazgan, material va texnika eng mayda detallarigacha o'ylangan".<sup>15</sup>. Miloddan avvalgi 5—4-asrlarda Xorazm me'morchiligida eng qadimgi qabr va arklar tasvirlangan. Tadqiqotlarga ko'ra, "tabiiy-iqlim sharoitlari, shuningdek, mintaqaning seysmikligiga ko'ra, yarim cho'l, quruq hududlarda gumbazlar yaxshi rivojlangan"<sup>16</sup>. Va, siz bilganingizdek, "qadimiy me'morchilikning shakllanishida yetakchi rol o'ynagan bir-biriga o'xshashlik" edi.<sup>17</sup>. Hatto kemerli va tonozli tuzilmalar uchun ishlatiladigan g'isht shakli ham g'ayrioddiy trapetsiya shaklida edi, bu esa xanjar shaklidagi qismlarni qisqartirdi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, g'ishtlarning shakllari va standarti egri shakliga mos ravishda o'rnatildi. G'ishtning og'irligini kamaytirish uchun loy tarkibiga somon qo'shilgan, bu esa ushbu qurilish materialiga yanada ko'proq mustahkamlik bergan. Ushbu g'ishtning o'lchamlari vaqt o'tishi bilan o'zgargan - antik davr boshlarida yuqori va pastki poydevorlar 28 va 25 sm, antik davr oxirlarida - 20 va 17 sm.

Qadimgi Xorazmda, ilk antik davrda ellipssimon uch markazli gumbazlar, shuningdek, vertikal va qiya "segmentlar" bilan qoplangan yarim geometrik muntazam ellips (Qo'y-Qirilgan-qal'a) ko'rinishidagi gumbazlar ishlatilgan. miloddan avvalgi bir necha ming yillar davomida Misrda, Mesopotamiyada, keyin Eronida ma'lum bo'lgan. Egri chiziqlar konturida kamon oralig'i va balandligi o'rtasida mavjud bo'lgan ma'lum bir qonuniyat aniqlandi. Masalan, Tuproq-qal'ada tonoz balandligining uning kengligiga nisbati Misr uchburchagidagi ikki tomonning nisbatiga teng edi. Bu usul qadimgi Sharq qurilish texnikasida (Misr, Sosoniylar Eronida) keng ma'lum bo'lgan. Shuningdek, g'isht uchun ham, egri chiziqlar shakli uchun ham yagona shakl omili mavjudligi aniqlandi, ulardan

<sup>13</sup>Toprak-qal'a // Tr. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi XIV. Rep. ed. Yu.A. Rapoport va E.E. Nerazik. - M., 1984, b. 24.

<sup>14</sup>O'sha yerda, p. 28.

<sup>15</sup>Voronina V.L. Qadimgi Xorazmning qurilish jihozlari // 1945-48 yillardagi Xorazm ekspeditsiyasining arxeologik va etnografik ishlari. - M., 1952, b. 94.

<sup>16</sup>Baymatova N.S. O'rta Osiyoning gumbazli me'morchiligiga oid eslatmalar (miloddan avvalgi IV-III ming yillik - eramizning VIII asrlari) // O'rta Osiyo: manbalar, tarix, madaniyat. - M., 2005, b. 165.

<sup>17</sup>Lapirov-Skoblo M.S. Qadimgi Xorazmda qabr shaklini yasashning ayrim usullari haqida, b. 244.

foydalanish orqali egri chiziqning oddiy konstruktsiyasi va ularning bir xil konturi olingan.<sup>18</sup> Ya'ni bu hududga xos xususiyat, tadqiqotchilar me'moriy dekorning kompozitsion qurilishida geometrik naqsh o'rnatdilar. Albatta, bunday naqshlar binolarni qurishda mavjud edi. Masalan, Qo'y-Qirilgan qal'a rejasining nisbati "diagonallar usuli" ga asoslangan geometrik konstruktsiyalarga asoslangan edi va uning qurilishida modul o'rnatildi, ulardan foydalanish tufayli "elementlarga . reja bo'yicha aniq mutanosiblik berildi."<sup>19</sup>. Va Tuproq-Qal'ada, tadqiqotga ko'ra, eng oddiy asboblari (qoziq va ip) yordamida "rejalashtirish sxemasining aniq to'rtburchaklar taqsimoti amalga oshirildi".<sup>20</sup>, to'g'ri burchak ostida bir nechta asosiy devorlarni qurish qobiliyatini ko'rsatdi, shunda keyingi tartibning qolgan qismi oddiy o'lchovlar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan. Ya'ni, Xorazmning qadimiy quruvchilari nafaqat material va konstruktsiyalarning xossalari haqida yaxshi texnik bilimga ega bo'lgan, balki amaliy geometriyadan ham yaxshi xabardor bo'lgan, shuningdek, "shakl va nisbatlarning didiga ega" edi.<sup>21</sup>.

Shaharlarning asosiy qismini, ularning me'moriy va tashkiliy muhitini turar-joy binolari tashkil etdi. A. Pop ta'kidlaganidek, kamtarona turar-joy me'morchiligini o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki unda qadimgi an'analar ko'pincha saqlanib qolgan. Xorazm me'morchiligi konservativizm va an'analarning barqarorligi bilan ajralib turadi. Turar joyni rejalashtirishda ibtidoiy davrga oid chuqur an'analar seziladi. Bunga Miloddan avvalgi 4-3-asrlarning bir xil turdagi turar-joylarini misol qilish mumkin, masalan aholi punktlarida ming yildan ko'proq vaqt davomida qurilgan oddiy binolar Qo'rg'oshin-qal'a va Jonboz-qal'a Katta uylarda 7-9 xona bo'lgan. Uy old qismdan (ustunli dahliz), maishiy xonalardan, oshxonalardan (Tuproq-Qal'a va Ayoq-Qal'a posyolkalari) iborat edi - "barcha hollarda xonalarning maqsadi tan olinadi, uy-ro'zg'or xonalari binolar bilan bog'langan »<sup>22</sup>. 3 xonali kichik uylar ham topilgan (Jonboz-Qal'ada). Tuproq-qal'ada planlashtirilgan ochiq hovlilar va minora mavjudligi bilan almashinadigan o'zaro bog'langan binolar zanjiri shaklida takrorlanadi. Shunday xonadonlar 3-6 ta bo'lgan, boylarning uylarida rejalashtirish g'oyasi "hovli-ayvan tartibi. deb ataladigan tizimga asoslanadi.

Barcha uylar tarqoq toifaga kirgan - ular bir-biridan uzoqda izolyatsiya qilingan guruhlarga bo'lingan (har biri 2-3 ta), izolyatsiya qilingan (Berkut-Qal'a vohasida) Qadimgi Xorazmning o'ziga xos xususiyati kulolchilik ustaxonalarining qishloq aholi punktlari chegarasida, suv manbalari yaqinida (Marv, Termizdan farqli o'laroq) 3-4 km radiusda hunarmandchilik maskanlari mavjud bo'lganligidir. Bunday joylashtirishning sabablaridan biri "kulolchilik alohida shart-sharoitlarni

<sup>18</sup>Orlov M.A. III asr saroyining "Jangchilar zali" ni qayta qurish. AD Toprak-qal'a // 1945-48 yillardagi Xorazm ekspeditsiyasining arxeologik va etnografik asarlari. - M., 1952, b. 61.

<sup>19</sup>Lapurov-Skoblo M.S. Ba'zilar haqida ..., p. 244.

<sup>20</sup>Toprak-qal'a. Qal'a. Rep. Ed. Yu.A. Rapoport va E.E. Nerazik. - M., 1984, b. 39.

<sup>21</sup>Voronina V.L. Qadimgi Xorazmning qurilish texnikasi, b. 103.

<sup>22</sup>Nerazik E.E. Xorazmdagi qishloq uyi, 1-bet. 216.

talab qiladi va pechlarning joylashishi yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkin edi".<sup>23</sup>.

G.A. Pugachenkovaning so'zlariga ko'ra, turar-joy me'morchiligida "bu tamoyillar monumental arxitekturada eng to'liq estetik timsolni olgan" ekanligi isbotlangan.<sup>24</sup>. Bu borada Xorazm ham bundan mustasno emas. Bu hududda, ma'lumki, zardushtiylik keng tarqalgan bo'lib, u "me'moriy asosga ega bo'lgan va jamiyatning g'oyaviy hayotida muhim rol o'ynagan.<sup>25</sup>. Ulardan biri Jonboz-Qal'adagi "Olovli uy" bo'lib, u jamoat diniy marosimlari va taomlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan.<sup>26</sup>. Oval supada o'chmas olov yongan. Xonaning atrofida 1,5 g'ishtli U shaklidagi skameyka (supa) bo'lib, u "olov-xonning funktsiyalarida jamoat elementi mavjudligini" ko'rsatadi va katta saroy va jamoat ibodatxonalari, shuningdek turar-joy binolari bo'lishi tamoyilini tasdiqlaydigan bir xil tamoyilga asoslanadi. Ba'zan loyihalar ramziyligiga (Qo'yqirilgan Qal'aning dumaloq loyihasi) asoslangan bo'lib, ularning me'morchiligida sak-massaget ta'siri seziladi. Qurilish jarayonida "me'morlar binodan astronomik kuzatishlar nuqtasi sifatida foydalanishga imkon beradigan hisob-kitoblarga asoslanishdi".<sup>27</sup>. Ya'ni, bu yodgorlik ibodatxona, maqbara va astronomik vazifalarini o'zida mujassam etgan. Shuningdek, Tuproq-qal'ada bir nechta olov ibodatxonalari topilgan - ibodatxonaning markaziy qismida mustahkam platformada kichik ziyoratgohlar, saroy qo'rg'onida, shuningdek, shahar bo'ylab ibodatxonalar mavjud bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu maqolaning mavzusi Xorazm arxitekturasi bo'yicha natijalarni biroz to'liq ko'rib chiqish, uni bir ish doirasida amalga oshirish hatto qisqacha imkonsizdir, balki bu hududning me'moriy xususiyat masalalariga to'xtalib o'tish kerak. "Xorazm sivilizatsiyasi Mesopotamiya madaniyatining ma'lum ta'sirida shakllangan".<sup>28</sup>, keyin qadimgi Sharq mamlakatlari (Misr, Mesopotamiya, Eron) va Xorazm me'morchiligi o'rtasida shaharsozlik, istehkom, qurilish va me'moriy kompozitsiyaning ayrim masalalariga ta'sir ko'rsatgan yaqqol o'xshashliklar mavjud edi. Bu haqiqatni ushbu hududni o'rgangan barcha tadqiqotchilar (S.P.Tolstov, E.E.Nerazik va boshqalar) qayd etgan. Lekin shu bilan birga, qadimiy Xorazm madaniyati yuksak darajada bo'lib, irrigatsiya, istehkom, aniq fanlar rivoji bilan birga yagona uslubga ega bo'lgan Xorazmning o'ziga xos me'morchiligi ham jadal rivojlanib bordi, deb bermalol ayta olamiz. Bunga ko'p jihatdan muhandislik muammolarini oqilona va aniq hal qilish, qurilish materiallari va konstruksiyalarining xususiyatlarini mukammal bilish, nozik o'ziga xos did, shuningdek, ma'naviy va moddiy madaniyatdagi an'analarning konservatizmi va barqarorligi yordam beradi.

<sup>23</sup> Aholi punkti Toprak-qal'a, bilan. 139.

<sup>24</sup> Pugachenkova G.A. Baqtriya turar-joy binosi // O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyati. - M., 1976, b. 38.

<sup>25</sup> Jabborov I., Dresvyanskaya G. O'rta Osiyoning ruhlari, avliyolari, xudolari. Din tarixi bo'yicha insholar. - Toshkent, 1993 y., b. 129.

<sup>26</sup> Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm. - M., 1948, b. 96-98.

<sup>27</sup> Jabborov I., Dresvyanskaya G. O'rta Osiyoning ruhlari, avliyolari, xudolari, b. 111.

<sup>28</sup> Toprak-qal'a. Saroy, s. 289.

## AMIR TEMUR YURISHLARIDA QO'LLANGAN HARBIY TAKTIKA VA XIYLLALAR

*Ibragimov Abrorbek Maxammadkomilovich*  
podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi Harbiy san'at kafedrasida katta o'qituvchisi  
[abror.05@inbox.ru](mailto:abror.05@inbox.ru)

*Junaydullaev Oxunjon Qaxorjon o'g'li*  
kapitan, O'R QK Akademiyasi HX va DM fakulteti magistri  
[akaduz@umail.uz](mailto:akaduz@umail.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temurning faoliyatining davrlari, qo'shinining tashkiliy tuzilmasi, qurollanishi, yurishlari, yurishlarda qo'llangan harbiy taktika va xiylalar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Movarounnahr, davr, harbiy yurishlar, amir, mo'g'ullar, ulus, lashkarboshi, otliq askar, o't sochar qurol, to'p-ra'd, jangovar tartib, zambarak, harb ishi.

**Annotation.** This article discusses the periods of activity of the great leader Amir Temur, the organizational structure of his army, weapons, campaigns, military tactics and tricks used in campaigns.

**Keywords:** Movarounnahr, era, military campaigns, emir, Mongols, ulus, army chief, cavalry, firearms, artillery, order of battle, cannon, military work. Amir Temur bin Taragai Bahadir (1336-1405) has two distinct periods in his life and work.

**Аннотация.** В данной статье описываются периоды деятельности великого главнокомандующего Амира Темура, организационная структура, вооружение, походы, военная тактика и приемы, применявшиеся в походах.

**Ключевые слова:** Мовароуннар, эпоха, военные походы, эмир, монголы, улус, военачальник, конница, огнестрельное оружие, артиллерия, боевой порядок, пушка, военная работа.

Amir Temur bin Tarag'ay Bahodir (1336-1405) hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davr 1360-1386 yillarni o'z ichiga oladi. Temur bu davrda Movarounnahrda Mo'g'ul xonligidan mustaqil kuchli markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashadi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan turk va tojik zodagonlari oq suyaklar kabi sotsial kuchlar bilan birgalikda o'rta asr o'zboshimcha feodallariga, markazlashish va birlashishga zid harakatlarga, mamlakatni parchalangan holatda saqlashga kurash olib boradi.

Temur faoliyatining ikkinchi davri asosan 1386 yildan boshlanib, 1402 yilgacha davom etadi. Bu davr Temurning uch yillik, besh yillik va yetti yillik deb ataluvchi harbiy yurishlari bilan harakterlanadi.

Temurbek yoshlik chog'ida harb ishiga o'zgacha muhabbat va ehtiros bilan qaray boshladi. Unda harbiy san'atga bo'lgan qiziqishning o'ta erta paydo bo'lishida padari buzurkvori, amir Qazag'an davlatining arkonlaridan biri,

mardligi, shijoati va olijanobligi bilan nom chiqargan amir Tarag'ayning ma'lum darajada ta'siri borligi shubhasizdir.

Navqiron yoshga yetgan Temurbek salkam bir yarim asirlik mo'g'ullar istibdodiga chek qo'yish, feodal tarqoqlik natijasida Chig'atoy ulusida hukm surayotgan o'zaro nizolar va urushlarga barham berish, tashqi va ichki zulm tufayli tinkasi qurigan xalq ommasiga madad qo'lini cho'zish, xarob bo'lgan shahar va qishloqlarni qayta obod qilish, ulusni tashqaridan bo'ladigan bosqinlardan himoya qilish singari olijanob maqsadlarni yuzaga chiqarishning birdan-bir yo'li hokimyatni qo'lga kiritish ekanligini anglab yetdi. Temurbek qasd qilgan yumushni nihoyasiga yetkazishda unga tayanch va suyanch bo'lishga ahd qilgan, shodlik onlarini yoki zahmat azoblarini u bilan baham ko'rishga, og'ir daqiqalarda undan yuz o'g'irmaslikka qasamyod qilgan birodarlarining beg'araz ko'magi va ayniqsa, mo'g'ul bosqinchilari zulmidan aziyat chekkan movarounnahr xalqi barcha tabaqalarining qo'llab-quvvatlashi hamda bevosita ishtiriokida 1370 yili hokimyatni qo'lga olish, Shimoliy Anado'li, Hindiston kabi mintaqalarga birligidan mahrum mamlakatni birlashtirish, istiqlolni qayta tiklash baxtiga muyassar bo'ldi. Temurbek taxtga o'tirish boisi o'laroq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar o'z ifodasini harb ishida va harbiy san'atda ham namoyon etadi.

Asosiy karvon yo'llari ustidan nazorat o'rnatish ulus qudratini yanada oshirish, xalq turmush tarzini yaxshilash singari ustuvor maqsadlar yo'lida Temurbek o'sha davrda tengi yo'q harbiy kuchlari bilan Jata, Eron, Afg'oniston, Kavkaz, Iroq, Shom, Misr, Dashti Qipchoq, Shimoliy Anado'li, Hindiston kabi mintaqalarga bir necha bor qo'shin tortib bordi, olamshumul zafarlar quchdi. Harb tarixi Temurbekni jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida, xaqli ravishda, tan oladi. Uning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ldi.

Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi sifatida Temurbek o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoraba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona(mohirona) boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga muyassar bo'ldi.

Sohibqiron turk-mo'g'ul xalqlari, xususan Chingizxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib borish amallarini atroflicha o'rganib, tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritadi. Temurbek barpo etgan armiyaning tuzilishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bo'lsa-da, biroq quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi:

Chingiziylar qo'shinni yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkarlaridan iborat bo'lgan holda, Temurbek armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi; Chingizxon davrida qo'shin asosini ko'chmanchi omma tashkil qilgan edi. Temurbek qo'shiniga oliy bosh qo'mondon ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik,



hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan;

Temurbek qo'shinida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchagina bo'lgan. Ma'lumki, Chingizxon qo'shini, zabt etilgan mamlakatlar aholisidan majburiy tartibda tuzilgan hasharni xisobga olmaganda, piyoda askarlarga ega bo'lmagan; Temurbek Sharqda birinchilardan bo'lib o'z armiyasiga o't sochar qurol, ya'ni to'p-ra'dni olib kirdi. Sohibqiron tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi. Temurbek jahon harb san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Temurbek armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan. Temurbek qo'shini tarkibini Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'iliston, Xorazm, Mozandaron, Jata singari yerlardan yig'ilgan askarlar tashkil qilar edi. Unda muntazam qo'shinga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mavjud edi. Qo'shin son jihatidan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi–yasol jangdan-jangga takomillashtirilib borilgan. Armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslahanjom bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim boshi, tutgan bayroq yoki tug'i orqali ham farqlangan. Bunday ajralib turish jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan.

Dushman mudofaasini turli usullar yordamida barbod qilish, g'anim tomonning yirik va mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo'lgan shaharlariga qo'qisidan kuchli zarba berish, zabt etilgan mamlakatning boshliqlarini va ayniqsa lashkarboshilarini hibsga olish, qal'a hamda qo'rg'onlarni uzoq muddat davomida muxofaza qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng qamrovda kurshab olish, uning qishloq, shahar, tuman, viloyatlarini birin-ketin fath etish, dushmanni batamom yakson etgunga qadar ta'qib qilish, fath bo'lgan yurtalarni boshqarish uchun o'zining ishonchli vakillarini tayinlash singari strategik maqsadlarini ko'zlab ish yuritish Temurbekka ko'plab zafarlar olib keldi.

Taktika jihatdan Temurbek armiyasi o'ziga xos xususiyatlariga ega edi. Qo'shinning yasoli Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Chingiziylar qo'shini jangovar tartibidan farqli o'laroq, yetti qism-qo'lga ajratilgan, razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilish uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkor boshqarishga alohida katta etibor qaratilgan.

Temurbek o'nlik, yuzlik, minglik hamda tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga bevosita rahbarlik qilgan. Lashkarboshilik salohiyatiga ega bo'lgan qo'mondonlarning to'g'ri tanlanganligi va o'z joyiga qo'yilganligi aksar hollarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Sohibqironning harbiy san'atiga rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri, qo'shin qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muxofaza qilish va aksincha g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-qunbul (qo'shin qanotlarini himoya qiluvchi qism), qunbulning jori etilishidir. Bunday mutlaqo yangi harbiy qism, tarixning guvohlik berishicha, Aleksandr Makedonskiy, Ganibal, Lyudvig XIV, Buyuk Fridrix, Chingizxon kabi dongdor sarkardalar qo'shinida ham bo'lmagan. Faqat XIX asrning atoqli lashkarboshisi Napoleon Bonapart armiyasining jangovar tartibida qo'shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjudligini kuzatish mumkin.

Harbiy mutaxassislarining fikricha, Napoleon Sharq mamlakatlariga harbiy safar qilishdan avval Temurbek armiyasi tuzilishini, uning jang olib borish yo'l-yo'riqlarini sinnchiklab o'rgangan, zarur topgan taktik usullarni o'zlashtirgan. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, otliq askarlar Temurbek armiyasining zarbdor qismi hisoblangan, ular og'ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlariga bo'lingan. Yoy, sadoq va qilich bilan yengil qurollangan otliqlar asosan razvedka va soqchilik bilan shug'ullangan, o'ta zarur chog'dagina dushman kuchlari bilan jang qilish huquqiga ega bo'lgan. Dubulg'a, zirh (sovut), qilich, yoy, sadoq qalqon va nayza bilan ta'minlangan og'ir qurolli suvoriylar sara jangchilardan tuzilgan, g'animning asosiy zarbasiga qarshi turgan, jang natijasini hal etishda katta rol o'ynagan. Yurishga jo'nashdan oldin Temurbek arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash-mashvaratga chorlagan. Ayni chog'da ulusning turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek tobe yurtlaridan qo'shin to'plash uchun maxsus buyruq - tunkal (qo'shinning belgilangan joyga to'planish to'g'risidagi oliy bosh qo'mondon buyrug'i) e'lon qilingan.

Farmon kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo'mondonning ad'yutanti-tavachi (hukmdorning farmonini qismlarga yetkazuvchi amaldor, ad'yutant) tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavachining zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo'shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o'rni, jangovar tartib - yasoli hamda bir joydan ikkinchi joyga ko'chishni nazorat qilish ham yuklatilgan edi. To'nkalg'a (buyruqqa) binoan viloyat hokimlari, tuman yoki shahar beklari, qal'a, qo'rg'on dorug'larining Temurbek tomonidan tuzilgan ro'yxat-songa muvofiq o'z jangchilari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog'i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan belgilab qo'yilgan to'planish o'rni- miod yeriga (va'da vaqti, kelishilgan vaqt) o'z vaqtida kechikmasdan yetib kelishi shart xisoblangan.

Temurbek dashti Qipchoqqa qilingan yurish (1390-1391) oldidan qo'shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat, qurol-yarog', kiyim-kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilan ta'minlashni o'z noiblariga buyurgan. Har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o'q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo'shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o'n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o'roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan. Qo'shimcha har bir jangchining shuningdek, yarim man og'irligida arqon, bir dona pishiq teri va bitta qozon olib

kelishi lozim bo'lgan. Sohibqiron yurishga jo'nashdan ancha avval yog'ining (yov, dushman, g'anim) qurolli kuchlari, mudofaa inshootlari, u yerdagi ichki vaziyat kabilar haqida aniq va to'la ma'lumotga ega bo'lish maqsadida uning yurti yoki qarorgohiga o'z ayg'oqchi (xabargir, josus) larini peshma-pesh yuborib turgan. G'anim to'g'risida zarur ma'lumotlarga ega bo'linganidan so'nggina yurishga taraddud qo'rilgan. Sohibqiron safar chog'i qo'shinni qiyin o'tib bo'lmas joylardan boshlab boruvchi yo'lchi, ya'ni qajarchilarni mahalliy xalq ichida yollab olish masalasiga jiddiy yondashgan.

Safar arafasida Temurbek an'anaviy ravishda o'z pirlari va rahnamolari huzuriga sof ishonch hamda pok ibodat bilan tashrif buyurib, ziyorat shartlarini bajo keltirgan. Yetarli miqdordagi cherik (qo'shin, lashkar) jam bo'lgach, barcha qo'shin turlari-yoychilar, nayzavarlar (nayzador), qoruraandozlar (ichiga yonuvchi modda-naft solingan shisha irg'ituvchi), sangandozlar (tosh otuvchi), taxshandozlar (taxsh (arbalet) otuvchi), mayjaniq (tosh otish qurolli, katapult), arroda (tosh otuvchi moslama), va tiricharx otuvchilar hamda boshqa askariy qismlar ko'rikdan o'tkazilgan. Temurbek armiyasida ichiga yonuvchi modda- neft solingan ko'zachalar irg'ituvchi o't sochish quroli- ra'dning (to'p, zambarak) uziliksiz ishlab turishini ta'minlovchi maxsus to'pchilar-ra'dandozlar (to'pchi, ra'd to'pi otuvchi) mavjud bo'lgan.

Mustaxkam qal'a va qo'rg'onlarni qamal qilishda, dushman kuchlariga qirg'in keltirishda samarali qurol hisoblangan ra'dani boshqaruvchi to'pchilarining soni 10 ming kishiga yetgan. Ra'dandozlar Temurbek tomonidan ilk marta 1379 yili qo'llagan. Amir Temur Hindistonga qilgan yurishida (1398-1399), Dehliga yaqinlashib qolganligidan tahlikaga tushgan shahzoda Sulton Mahmud, Malluxon va o'zga nomdor hind sarkardalari rahnamoligidagi o'n ming suvoriylar, yigirma ming sara piyodalar va bir yuz yigirma jangovar fillardan iborat qo'shin bilan unga ro'baro' bo'ladi.

Sohibqiron birinchi galda jangchilarning kapalagini uchirib, ularni dahshatga solgan fillarni daf qilish borasida bosh qotiradi. Zudlikda fillarga ofat keltiruvchi o'tkir tig'li uchburchak shakldagi sanchiq-mo'ndullardan minglab yasaladi va fillar hujumi paytida ularning oyoqlari tagiga tashlashni, buqalar (boshqa ma'lumotlarga qaraganda tuyalar) boshiga va yonlariga xashak (tikan) bog'lab, ularni yoqib fillarga qarshi yuborishni, shuningdek, jangchilarga o'q va nayzalarni fillarning badaniga qarata otmay, ularning xartumini qilich bilan uzib tashlashni buyurdi. Ikkala qo'shin jang harakatlarini boshlagach, Temurbek o'z askariy qismlarini chekinishga buyuradi. Temuriy jangchilarining tisarilganini ko'rib, dushman qochdi xayol qilgan hindlar olg'a tashlanadi. Fillar, ularning ketidan otliq va piyodalar junbushga keladi. Mo'ndu tikilgan yerga yetganda fillar oyog'iga sinchiqlar kiradi, Temurbek qo'shinlari fillar xartumiga jarohat yetkazishdi, natijada ular orqaga chekinishga majbur etdi, dushman qo'shinlari orasida tartibsizliklar keltirib chiqardi. Fillar jon holatida o'z qo'shinlarining ikki qanoti tomonga qocha borib, ularni toptab tashladi. Bu choralar jangchilarda mardlik uyg'otdi va muvaffaqiyat keltirdi .

Xulosa qilib aytganda, o'tmishdagi va hozirgi bo'layotgan urushlarda (qurolli mojaralarda) g'alaba qozonish nafaqat qo'shinlarning zamonaviy qurol-yarog'lar bilan butlanganligi va jangovar tayyorgarligiga, balki ushbu jangovar harakatlarda qo'llanilayotgan taktik hiylalar va usullarga bog'liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Temur tuzuklari.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2011.
2. Nurali Qobul. Jahon mulkining sultoni yoxud Fotih Temur va Yildirim
3. Bayazid .V-kitob. "Kamalak" nashriyoti, 2016. 110 bet.
4. Ibroxim Mo'minov. Amir Temurning o'rta osiyo tarixida tutgan o'rni va roli.O'R FA "Fan" nashriyoti, 1993. 15 bet.
5. Hamidullo Dadaboev. A.Temurning harbiy mahorati. 1996. 8-20 betlar.
6. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob - T.: Mehnat, 1992 y -120 b.
7. Mixail Ivanin. "Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va A.Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi". O'R FA "Fan" nashriyoti, 2018 y- 243-253 betlar.

## MUAYYAN YASHASH JOYIGA EGA BO'LMAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISH MARKAZLARI FAOLIYATI

*Эргашев Бекзод Фанижон ўгли*  
*ИИБ Академияси 3-босқич курсанти, сафдор*

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida" va "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq ichki ishlar organlarining muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari faoliyatini tartibga soladi.

**reabilitatsiya markazi** — muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni ularning shaxsi aniqlangungacha ma'muriy sudning ajrimi asosida o'ttiz sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga saqlab turish va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan ichki ishlar organlari tizimidagi davlat muassasasi.

**muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxs** — shaxsini tasdiqlovchi hujjati, shuningdek, biron-bir manzilda doimiy yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinmagan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan 18 yoshdan oshgan shaxs.

**reabilitatsiya qilish** — muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa turdagi yordam ko'rsatish, shuningdek, ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Reabilitatsiya markazlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlarga amal qiladi.

Reabilitatsiya markazlarida muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni saqlash bo'yicha reabilitatsiya markazlarining ichki rejimiga muvofiq quyidagi maxsus shart-sharoitlar ta'minlanadi:

reabilitatsiya markazlarida saqlanayotgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash va ularni tashqi salbiy ta'sirlardan himoya qilish;

reabilitatsiya markazlari hududiga begona shaxslarning erkin kirishini hamda bu erda saqlanayotgan shaxslarning markaz hududidan erkin chiqishini cheklash;

reabilitatsiya markazlarida saqlanayotgan shaxslarni doimiy va uzluksiz nazorat qilish, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ularning buyumlari, olayotgan va yuborayotgan pochta jo'natmalari hamda yo'qlovlarini ko'zdan kechirish.

Reabilitatsiya markazlariga olib kirilishi taqiqlangan ashyolar va oziq-ovqat mahsulotlari quyidagilardan iborat:

qonun hujjatlari bilan muomalada bo'lishi taqiqlangan yoki cheklangan ashyolar;

pullar, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlar, turli markadagi soatlar va boshqa qimmatliklar;

optik asboblari, ko'zoynak bundan mustasno.

alkogol mahsulotlari, shuningdek, tarkibida spirt bo'lgan atir va boshqa mahsulotlar;

barcha turdagi radioapparatlari, kompyuter texnikasi, yozuv mashinkasi, nusxa ko'chirish vositalari;

aloqa vositalari, jumladan, uyali aloqa vositasi, radiotelefonlar, ratsiyalar va ularning barcha turdagi qismlari;

pichoqlar, qaychilar, ustalar, elektr ustara bundan mustasno, shuningdek, boshqa barcha turdagi sanchuvchi va kesuvchi hamda inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfli, jinoyat quroli sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolar;

oynalar, kamera devoriga o'rnatilgan oyna bundan mustasno;

o'yin kartalari;

xamirturush va achitqilar;

uyda pishirilgan, shuningdek, iste'mol qilinishi isitish va pishirishni talab qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya markazlarining xonalarida alohida-alohida joylashtirish ularning shaxsini va psixologik jihatdan mosligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Chekuvchilar, qoidaga ko'ra, chekmaydiganlardan alohida joylashtiriladi.

Quyidagi shaxslar alohida joylashtirilishi shart:

erkaklar va ayollar;

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

uqumli kasalliklarga chalingan yoki tibbiy kuzatuvga muhtoj bo'lgan bemorlar;

reabilitatsiya markazi boshlig'ining qaroriga ko'ra, hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash manfaatlaridan kelib chiqib ayrim shaxslar.

Reabilitatsiya markazlariga qabul qilingan shaxslar ichki ishlar organlarining axborot markazlari, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari, shuningdek, ekspert-kriminalistika xizmatining mavjud elektron axborot bazalari orqali tekshiriladi.

Elektron axborot bazalarida reabilitatsiya markazlariga qabul qilingan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda, ularning o'zi haqida bergan tushuntirishlardan kelib chiqib, ular yashagan joylardagi tuman (shahar) ichki ishlar organlariga fotosuratlarini ilova qilingan holda so'rov xatlari yuboriladi.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning fuqarolik pasportlarini rasmiylashtirish uchun davlat bojlari tuman (shahar) ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalarining talabnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjet mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

## ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ МАЪМУРИЙ ХУДУДДАГИ КРИМИНОГЕН ВАЗИЯТНИ ЎРГАНИШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Абдухалилов Абдуллох Абдурахмон ўгли*  
*Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси*  
*3 ўқув курс 309 гуруҳ курсанти*

**Аннотация.** Ушбу мақола орқали муаллиф ҳуқуқбузарликлар профилактикасида профилактика инспекторининг маъмурий ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганиш ва таҳлил қилиш фаолиятининг аҳамиятини, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тушунчасини, мазкур мавзуга доир чет эл тажрибасини, ва адабиётларда мавзуга оид келтирилган жумлаларни кўрсатиб ўтиб мавзунини илмий таҳлил қилган.

**Калит сўзлар:** ҳуқуқбузарлик, жиноятчилик, криминоген вазият, ҳуқуқни муҳофаза қилиш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси.

**Аннотация.** Посредством данной статьи автор научно проанализировал тему, показав значение деятельности профилактического инспектора по изучению и анализу криминогенной ситуации в административной сфере в предупреждении преступлений, концепции профилактики преступлений, зарубежного опыта по данной теме, а также предложения, связанные с темой в литературе.

**Ключевые слова:** правонарушение, преступление, криминогенная ситуация, правоприменение, профилактика правонарушений.

**Annotation.** In this article, the author shows how important the peace of the family is, the meaning of the family as a link of society, the specific aspects of the activities of the prevention inspector working with troubled families, his opinion on the work that should be carried out by the prevention inspector said.

**Key words:** offense, crime, criminogenic situation, law enforcement, crime prevention.

Бугунги кунда 2021-2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини ревожлантиришнинг Тараққиёт стратегияси жамият ҳаётининг барча соҳаларидаги, хусусан, Ички ишлар тизимидаги ислоҳотларнинг «йўл ҳаритаси» га айланди. Тараққиёт стратегиясида «Халқ давлат идораларига емас, балки давлат органлари халқимизга хизмат қилиши керак», деган тамойил давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланди.

Ўзбекистон Республикасида давлатчилигининг тикланиши ва ривожланишида, шу аснода олдимизга қўйган езу мақсадларга еришиш, ҳуқуқий демократик давлат қуриш, инсон, унинг манфаатлари, ҳуқуқ ва еркинликлари энг олий қадрият ҳисобланадиган фуқаролик жамиятини шакллантиришда Конституциянинг мустаҳкам пойдевори бўлиб келаётганини етироф этиш мақсадга мувофиқ.

Ички ишлар органлари жамиятда жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ҳуқуқнузрликлар ва жинойтларни барвақт олдини олиш бўйича кенг қамровли ишлар олиб борилмоқда. Шунингдек фуқароларнинг ҳуқуқлари, еркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, жамоат тартибини сақлаш, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва профилактикаси бўйича Республикада яхлит ҳуқуқий тизими яратилган бўлиб, унда Ички ишлар органлари муҳим ўрин тутди.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятидаги рақамли ахборот тизимлари, уларнинг имкониятлари ва вазифалари. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятининг самарадорлигини оширишда “E-inspektor” электрон комплекс тизими вазифаси, имкониятлари ва ундан фойдаланиш. Профилактик ҳисобдаги шахслар билан ишлаш бўйича электрон ахборот тизими вазифаси ва унинг имкониятлари. Пробация назоратидаги шахсларнинг хулқ-атворини реал вақт режимида кузатиш учун электрон браслет ва ундан фойдаланиш. Электрон браслетларни ҳамда маълумотларни сақлаш ва қайта ишлаш учун сервер ва ушбу тизимга алоқадор қурилмалар ва улардан фойдаланиш. Мониторинг қилишнинг замонавий мобиль технологиялари, махсус дастурий таъминотлар, уларнинг имкониятлари ва вазифалари. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятида маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш бўйича “E-ma'muriy ish” ягона электрон ҳужжат алмашинуви тизими вазифаси, имкониятлари ва ундан фойдаланиш. Профилактика хизматида ҳисоботларни унификация қилиш ва уни бошқа ташкилотларнинг ҳисобот юритиш ҳамда идоравий ахборот тизимлари билан ўзаро интеграция қилишда “E-hisobot” ахборот тизими вазифаси ва ундан фойдаланиш имкониятлари.

Ҳозирги даврда цивилизация ривожланишининг бош тенденцияларидан бири — шаҳарларда истиқомат қилувчи аҳолининг кўпайиши ва шаҳар асосий иқтисодий драйверларга айланиб келиши. Таббийки, шу нуқтаи назардан шаҳарларда истиқомат қилувчи аҳоли учун зарур бўлган шароитлар яратилиши муҳим вазифадир.

Бугунги кунда маъмурий ҳудуддаги криминоген вазиятга ташқи омиллар таъсири ҳам кундан-кунга кучайиб бормоқда. Айниқса, дунё давлатлари ва халқлари ўртасидаги муносабатлар ва муаммоларнинг глобаллашуви, жадаллашуви, халқаро жинойтчилик, унинг уюшган тури, терроризм, гиёҳвандлик, қурол-яроғ ва одам савдоси каби кўринишларининг кенгайиб бораётганлиги, шунингдек ўзларининг ғаразли мақсадларини амалга ошириш учун турли йўл ва усуллар билан минтақадаги, алоҳида давлат ёки унинг маълум бир ҳудудидаги барқарор вазиятни бузишга ҳаракат қилаётган кучларнинг мавжудлиги ҳар қандай барқарор вазиятга салбий таъсирини ўтказди. Бундай ҳолатларни олдини олишда ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганиб уни таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади.



Бугунги ривожланиб бораётган даврда бутун дунёда жумладан республикаимиз Ўзбекистонда ҳам ҳуқуқбузарликларни содир этилиш сабаблари ва уларга имкон берадиган шарт-шароитларни ўрганиш, таҳлил қилиш ва ҳуқуқбузарликларни бартараф этиш чора-тадбирларини амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади. Шунини аълоҳида такидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёев: “Асосий қонунимизда умумий эътибор этилган демократик принциплар билан бирга, халқимизнинг бебаҳо қадриятлари ва бой давлатчилик тажрибасини ифодалаш муҳим еди. Биринчи Президентимизнинг сай-ҳаракатлари билан, Конституцияимизда “Инсон ва унинг кадр-қиммати” деган улуғ тушунча марказий ўринга қўйилди” деб такидлаб фуқароларнинг ҳуқуқ ва еркинликларини ҳимоя қилиш мамлакатимизда доимо асосий вазифа сифатида эътибор этиб келинганлигини такидлаб ўтди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги қонун. 2014 йил 14 май.
3. [http:// lex.uz](http://lex.uz) (Национальная база законодательства Республики Узбекистан)
4. Jinoyat huquqi Maxsus qism darslik M.X.Rustambayev Toshkent 2018.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори// URL: [http://www.lex.uz.;](http://www.lex.uz;)

## ВОЯГА ЕТМАГАН ШАХСЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ ВА ПСИХОЛОГ ИШТИРОКИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*М.А.Ахмедова*

*IV Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti*

Аннотация: Ушбу мақолада вояга етмаган шахслар томонидан содир этилган жиноятларни олдини олиш, процессуал ҳаракатларини амалга оширишда уларнинг ҳуқуқий ҳимояси кучайтириш, ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида ишни судга қадар юритишда педагог ва психолог иштирокини такомиллаштириш масалалари кўриб чиқилиб, олимларнинг фикрлари таҳлил қилинган. Шунингдек, айрим хорижий давлатларнинг жиноят-процессуал қонунчилиги қоидаларига ҳам муурожаат қилинган.

Таянч сўзлар: вояга етмаганлар, педагог ва психолог, мутахассис, хорижий давлатлар тажрибаси, махсус билимлар, жиноят-процессуал қонунчилиги.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования участия педагогов и психологов в доведении дела до суда в целях предупреждения преступлений, совершаемых несовершеннолетними, усиления их правовой защиты при осуществлении процессуальных действий, защиты их прав и интересов, анализа мнения ученых. Также были упомянуты положения уголовно-процессуального законодательства некоторых зарубежных стран.

Ключевые слова: несовершеннолетние, педагог-психолог, специалист, опыт зарубежных стран, специальные знания, уголовно-процессуальное законодательство.

Abstract: In this article, the issues of improving the participation of pedagogues and psychologists in bringing the case to court in order to prevent crimes committed by minors, strengthen their legal protection in the implementation of procedural actions, protect their rights and interests, and analyze the opinions of scientists. The provisions of criminal-procedural legislation of some foreign countries were also referred to.

Key words: minors, pedagogue and psychologist, specialist, experience of foreign countries, special knowledge, criminal-procedural legislation.

Мамлакатимизда 2017-2021 йилларда амалга оширилган ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ислохотлар натижасида тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўйилган бўлиб, шу йилларда барча соҳалар сингари ёшларга оид давлат сиёсатида ҳам тарихий ва оламшумул ўзгаришлар амалга оширилди.

Бундан ташқари Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш Концепциясини<sup>29</sup> ишлаб чиқилганлигини, сўнгги йилларда ёшларга оид бир қанча давлат сиёсатининг самарадорлигини таъминлаш ва ёшларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида 50 дан ортиқ қонун ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинганлиги айтишимиз мумкин.

Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси ёшлари кунини белгилаш тўғрисида»<sup>30</sup> ги, «Таълим тўғрисида»<sup>31</sup> ги, «Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида»<sup>32</sup> ги, «Инновацион фаолият тўғрисида»<sup>33</sup> ги Қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»<sup>34</sup> ги ва «Вояга етмаган шахсларга жамоат тарбиячиларини тайинлаш тартиби тўғрисида»<sup>35</sup> ги Қарорлари ҳамда «Вояга етмаганлар ишлари бўйича идоралараро комиссиялар тўғрисида»<sup>36</sup> ги низомда ёшларнинг ҳуқуқларига доир кўплаб янги нормалар қабул қилинди.

Ўзбекистоннинг янгича қиёфасини яратиш, янги демократик жамиятни барпо этишдек улуғ мақсад сари олға ташлар эканмиз, демакки, бунга эришиш учун олдимизда аниқ режалар бўлиши лозим. Юртимизда “Ҳаммаси халқ учун” ғояси остида амалга оширилаётган ислохотлар ва бугун ҳар бир фуқаро ўз ҳаётида ижобий ўзгаришларни ҳис қилаётганлиги давлатимиз раҳбарининг “Янги Ўзбекистон стратегияси” китобида кейинги 5 йилда амалга ошириладиган стратегик йўл аниқ ва равшан баён этилганлигини қайд этишимиз мумкин<sup>37</sup>. Бугунги кунда ёшларимиз халқимизнинг асосий таянчи ва суянчи бўлиб, мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотларни самарали амалга оширишда ҳал қилувчи куч бўлиб майдонга чиқаётганини таъкидлаб, ўз ўрнида, ёшларни ҳар тарафлама баркамол бўлиб етишишлари учун барча шароитлари яратилаётганлигини эътироф этишимиз мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг таъбири билан айтганда, “Томирларида буюк боболарининг қони оқаётган ёшларимиз улуғ аждодларимизнинг муносиб ворислари бўлиши, улар каби улкан мақсадлар

<sup>29</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 18.01.2021 йилдаги 23-сон <https://lex.uz/docs/5234746>

<sup>30</sup>Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 25.08.2017 йилдаги ЎРҚ-437-сон <https://lex.uz/docs/3317994>

<sup>31</sup>Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон <https://lex.uz/docs/5013007>

<sup>32</sup>Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 29.10.2019 йилдаги ЎРҚ-576-сон <https://lex.uz/docs/4571490>

<sup>33</sup>Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 24.07.2020 йилдаги ЎРҚ-630-сон <https://lex.uz/ru/docs/4910391>

<sup>34</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 03.08.2021 йилдаги 490-сон <https://lex.uz/docs/5550539>

<sup>35</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 03.06.2021 йилдаги 339-сон <https://lex.uz/docs/5443123>

<sup>36</sup>Вояга етмаганлар ишлари бўйича идоралараро комиссиялар тўғрисидаги Низом ЎЗР Президентининг 14.03.2017 й. ПҚ-2833-сонли қарорига 3-илова

<sup>37</sup>Шавкат Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашр. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022.

сари интилиб яшаши ва юксак марраларга эришиши учун барча шарт-шароитларни яратишимиз зарур<sup>38</sup>.

Бугунги кунда, вояга етмаганлар томонидан ҳуқуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатлар содир этилишига имкон берадиган сабаблар ва шарт-шароитларни аниқлаш ва бартараф этишга қаратилган, ижтимоий, ҳуқуқий, тиббий ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш мақсадида бир қанча чора-тадбирлар амалга оширилиб келинмоқда.

Вояга етмаганлар учун назарда тутилган жиноий жазоларни либераллаштириш, процессуал ҳаракатларни амалга оширишда уларнинг ҳуқуқий ҳимоясини кучайтириш, шунингдек бузилган ҳуқуқларини тиклаш бўйича барча зарур чораларни кўриш вазифаси суд-ҳуқуқ соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий устувор йўналишларидан бири сифатида белгилаб берилди. Жумладан, Жиноят-процессуал кодексида вояга етмаганларнинг жиноят ишларини юритишга оид бир қанча нормалар тизимлаштирилиб, улар томонидан содир этилган жиноятларини тўғри ва самарали юритиш асосида педагог ва психолог иштирокини таъминлаш бўйича алоҳида нормалар белгилаб берилди.

Педагогик ва психологик билимлар қўллашнинг бирмунча кенг қўламига эга бўлиб, мутахассис ва эксперт ролини бажаришдан ташқари педагог ва психолог жиноят процессида мустақил процесс иштирокчиси сифатида иштирок этиши мумкин. Ушбу масалада қонунчилик тизимини янада такомиллаштириш орқали вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноят ишларини юритишда педагог ва психологнинг янада кенгроқ жалб қилиш мақсадга мувофиқ бўлади.

А.П. Гуськованинг фикрига кўра, махсус психологик билимлар жиноят процессида иккита шаклда қўлланилиши мумкин:

- психологик экспертизани ишлаб чиқиш
- вояга етмаганни сўроқ қилишда мутахассис сифатида психологнинг иштироки кўринишида<sup>39</sup>.

Бундан кўриниб турибдики сўроқ қилишда психолог ролининг бу каби талқин қилинишига рози бўлиш қийин. Биринчидан, психологнинг мутахассислар қаторига киритиш, назаримизда, етарлича асосларга эга эмас. Иккинчидан, мутахассиснинг агар психологнинг мутахассис деб ҳисоблайдиган бўлсак унинг роли бу билан тугал маъно касб этмайди.

Хусусан Л.А. Мифтахова томонидан батафсилроқ классификация таклиф қилинган бўлиб, жиноят процессида психолог иштирокининг тўртта алоҳида шакллари ажратиб кўрсатади:

<sup>38</sup> Ўша манба

<sup>39</sup> Гуськова А.П. Вояга етмаганга нисбатан жиноятни судда кўришда мутахассис-психологнинг роли // Халқаро илмий-амалий конференция материаллари «Замонавий шароитда суд экспертизасининг назарияси ва амалиёти», М.: ТК Велби, Нашриёт: Проспект, 2007. Б. 126.

Суд-психологик экспертиза ва бундан келиб чиққан ҳолда процессуал ҳаракатларда эксперт-психологнинг иштироки;

Тергов ва суд ҳаракатларини амалга оширишда психологнинг мутахассис сифатида роли;

Вояга етмаган гумонланувчи, айбланувчи, судланувчиларни сўроқ қилишда “алтернатив педагог” тарзда психологнинг иштироки;

Психологнинг маълумот-маслаҳат фаолияти<sup>40</sup>.

Бундай таснифлаш муваффақиятли ҳисобланади, чунки муаллифнинг турли тергов ва процессуал ҳаракатларни юритишда психолог ролини дифференциация қилиш имконини беради. Ушбу ёндашувда психологнинг тергов ҳаракатларида ҳам эксперт сифатида, ҳам мутахассис сифатида иштирокига алоҳида аҳамият берилади, у мутахассисга маълумот олишда ёрдам бериши мумкинлиги назарда тутилади.

Суриштирув ва дастлабки тергов ҳаракатларини юритишда мутахассис сифатида психологнинг роли охиригача очиб берилмаган. ЖПК 69-моддаси терговчи (суриштирувчи) томонидан мутахассисни кўздан кечириш, тинтув ўтказиш, олиб қўйиш, сўзлашувларни текшириш ва ёзиб олиш учун жалб қилишни назарда тутаяди, бу эса мутахассисда техник ва криминалистик билимлар бўлиши зарурлигини назарда тутаяди. Психолог томонидан техник воситаларни қўллашнинг ягона воситаси, полиграфдан фойдаланиш имконияти бўлиши мумкин. Бироқ, ушбу мосламани қўллаш жиноят-процессуал нормалари билан тартибга солилмаган, бу эса уни у ёки бу тергов ҳаракати доирасида қўллаш имкониятини шубҳа остига олади.

Шундай қилиб, амалдаги ҳуқуқий тартибга солиш шароитида психологнинг махсус билимлари хусусиятини ҳисобга олган ҳолда суриштирув ва дастлабки тергов ҳаракатларини ўтказишда психологнинг мутахассис сифатида иштирокини *мустақил процесс иштирокчиси* шаклига ажратиш зарурлигини кўрсатади.

Жаҳон андозаларига назар ташласак, педагог ва психолог билимларини қўллаш юзасидан бир қанча тасавурларга эга бўлишимиз мумкин. Яъни, жиноят процессида психологнинг ўрни ҳақидаги ғояларни ривожлантиришнинг жиддий босқичи гувоҳликнинг ишончилигини текшириш учун психологни жалб қилиш заруриятининг асосланиши эди. Бу ёндашув Ханс Гросс томонидан тасдиқланган бўлиб, у гувоҳликнинг ишончли бўлиши учун гувоҳларни ўрганиш зарурлигига ишора қилган<sup>41</sup>.

Германия судлари амалиётида эса, проф. Н.Н. Полянскийнинг сўзларига кўра, бундай текширув илгари ҳам ўтказилган бўлиб, 1896 йилда Мюнхендаги қотиллик бўйича суд жараёнида ҳимоячининг илтимосига биноан икки нафар эксперт таклиф қилинган ҳамда улар гувоҳларнинг

<sup>40</sup>Мифтахова Л.А. Психологнинг жиноят процессида иштироки муаммолари: Юрид. фанлар номзоди дисс. ... Уфа, 2001. Б. 32-33.

<sup>41</sup>Гросс Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики. Новое изд., перепеч. с изд. 1908 г. М.: ЛексЭст, 2002. С.131.

кўрсатувларига жуда катта эътибор қаратиб, бу воқеага кундалик матбуот қанчалик таъсир кўрсатганлиги тўғрисида хулоса беришган<sup>42</sup>.

Юқорида қайд этилган масала юзасидан В. Штерннинг лаборатория тадқиқотлари ёрдам берган бўлиб, у ўз илмий тадқиқот ишларида виждонан бўлсада, ёлгон кўрсатув бериш ёки содда қилиб айтганда – ҳақиқатнинг онгсиз ва беихтиёр равишда бузилишини аниқлаган. Унинг таъкидлашича, одоб-ахлоқ юзасидан виждонан берилган гувоҳлик барча шубҳалардан устун бўлган тақдирда ҳам маълум фоиз хатолар йўлга қўйилишини ҳисобга олиш керак<sup>43</sup>. Хар хил турдаги жиний масалалар бўйича жалб қилинган гувоҳларнинг айнан бир масала бўйича берилган кўрсатувлари, бир биридан фарқ қилиши мумкин. Бу нотўғри идрок қилиш, хотиранинг индивидуал хусусиятлари, тасодифий гувоҳликнинг мураккаблиги билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Педагог ва психологнинг тергов ҳаракатларида иштирокини таъминлаш вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлашнинг муҳим қафолати бўлиб, мазкур тергов ҳаракатини амалга оширишда уларнинг иштироки шартидир.

Юқоридаги таҳлиллар асосида, ишни судга қадар юритиш босқичида педагог ва психолог иштирокини янада такомиллаштириш борасида фуқайдаги муаллиқлик таърифни беришгп лоим топдик:

Вояга етмаганларни сўроқ қилишда педагог ва психолог иштирокини таъминлашдан мақсад – *вояга етмаганларнинг тўлиқ ва ишончли кўрсатмасини олишга ёрдам бериш; улар билан психологик алоқа ўрнатиш; сўроқ қилиш учун қулай муҳитни яратиш ҳамда ўсмирнинг оптимал ҳиссий ҳолатини таъминлаш; ва бундан ташқари, педогогик жиҳатдан тўғри саволларни шакиллантиришда ёрдам бериш, сўроқ режасини тузиб унинг оптимал муддатини аниқлаш; далилларни қайд этишда суриштирувчи, терговчига ёрдам бериш* дан иборат.

Жиноят процессининг жаҳон андозаларига назар ташлаб, кўплаб давлатлар қонунчилигини таҳлил қиладиган бўлсак, педагог ва психологнинг иштирокини таъминлаш анча такомиллашган бўлиб, жумладан, айрим МДХ давлатлари, хусусан, Қозоғистон Республикаси ЖПК 538-моддаси, Тожикистон Республикаси ЖПК 430-моддаси, Туркманистон Республикаси (ЖПК 514-моддаси), Белврусъ Республикаси (ЖПК 435-модда ) Жиноят қонунчилигида вояга етмаган шахсларни сўроқ қилишида ўқитувчи ва психолог иштирок этиши шартлиги ва шу билан бирга педагог ва психологнинг процесснинг бошқа иштирокчилари сифатида ҳуқуқий мақоми белгилаб берилганлигини кузатиш мумкин.

РФ ЖПК да педагог ва психолог иштироки алоҳида тартибда белгиланмаган бўлсада, 191-моддасига кўра 16 ёшга тўлмаган вояга етмаган

<sup>42</sup> Полянский Н.Н. Доказательства в иностранном процессе. Юриздат МЮ СССР. М., 1946. С. 109.

<sup>43</sup> Штерн В. Психологические методы испытания умственной одаренности // Петроград. 1915. С. 3-5, С. 11-14.

жабрланувчи ёки гувоҳларни сўроқ қилиш, юзлаштириш, шахсини аниқлашда педагог ва психологнинг иштироки мажбурий бўлиб, 16 ёшга тўлган вояга етган шахсларга нисбатан педагог ва психологга жалб қилиш масаласи терговчининг ихтиёрига кўра чақирилиши кўзда тутилган.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига назар ташласак, 554-моддасига биноан – *вояга етмаган гумон қилинувчини ёки айбланувчини сўроқ қилишда суриштирувчининг, терговчининг ёки прокурорнинг ихтиёрига кўра ёхуд вояга етмаган гумон қилинувчи ёки айбланувчи ҳимоячисининг, қонуний вакилининг илтимосига биноан педагог ва психолог иштирок этиши мумкинлиги* кўрсатилган бўлиб, унинг бошқа процесс иштирокчилари сифатида иштирок этиши ҳамда ҳуқуқий мақоми белгиланмаган.

Фикримизча, юқорида келтириб ўтилган давлатлар қонунчилигининг тахлилига кўра қонунчилигимизда педагог ва психолог иштирокини такомиллаштиришга доир масалани кўриб чиқиш ҳамда ўзгартириш ва қўшимчаларни критиш каби муаммолар ўз долзарблигини тақозо этади.

*биринчи масала* Жиноят процессида “педагог ва психолог” тушунчасини шакиллантириш орқали уларнинг ҳуқуқий мақомини белгилаш. Яъни, вояга етмаган шахсни сўроқ қилишда иштирок этувчи педагог ва психологнинг ҳуқуқлари қуйидагилардан иборат бўлиши керак: *унинг чақирилишининг мақсадини, шунингдек, қандай вазифани бажариш учун чақирилганини билиши; тегишли махсус билимга эга бўлмаса белгиланган тергов ҳаракатларида қатнашишдан бош тортishi; процессуал ҳаракат бошланишидан олдин вояга етмаган шахсини тавсифловчи иш материаллари билан танишиши; терговчининг рухсати билан вояга етмаганларга саволлар бериши; сўроқ баённомаси билан танишиши ва унда қайд этилган ёзувларнинг тўғрилиги ҳамда тўлиқлиги тўғрисида ёзма изоҳлар бериши; илтимосномалар критиши ва баённомада қайд этилиши лозим бўлган баёнотлар бериши; терговчининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) ва қарорлари устидан унинг ҳуқуқларини тикловчи шикоятлар бериши; бажарган иш учун ҳақ олиши ва иш юритиш жараёнида қилинган харажатларни қопланиши.*

*Иккинчи масала* мазкур шахсларнинг жиноят процессинг мустақил иштирокчиси эканлигини тасдиқловчи нормалар мавжуд эмас, ваҳоланки *эксперт, мутахассис, таржимон* уларнинг мақомини алоҳида моддаларда тартибга солиш орқали жиноят процессининг мустақил иштирокчиси сифатида тан олинган. Жиноят процессининг бошқа иштирокчилари яъни 6-бобига “*Педагог ва психологнинг иштироки*” деб номланувчи 69<sup>1</sup>-моддани киритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Педагог ва психолог иштирокининг кенг ёритилиш, яъни унинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, жалб қилиш хусусидаги тартиби, мақсад ва вазифаларини алоҳида моддаларда тартибга солиш орқали вояга етмаган шахсларни сўроқ қилиш, юзлаштириш ва шахсини аниқлашда

бирқанча имкониятлар юзага келади. Бу эса ўз навбатида вояга етмаганлар жинойт ишларини юритиш самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Хозирги вақтда содир этилган жинойтлар юзасидан суриштирув ёки дастлабки тергов ўтказиш чоғида педагогика ва психология билимларисиз амалга оширишни тассавур этиб бўлмайди. Нафақат педагог ва психолог балки, суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд, тергов харакатларини олиб борар экан инсонларнинг ҳулқ-атворини таҳлил қилиш билан шуғулланганда ҳамиша унинг психологик қатъиятига дуч келади. Тасодифий эмаски, ҳуқуқшунос касбий маҳоратининг таркибий қисмларидан бири, махсус юридик билим билан бир қаторда, педогогик ва психологик тайёргарлик сифатида ҳам эътироф этилади.

Барча жахон мамлакатларида давлат ва жамиятнинг ҳуқуқий асосларини мустахкамлаш, вояга етмаганлар томонидан содир этилаётган ҳуқуқбузарлик ва жинойтларнинг олдини олиш ҳамда уларга қарши курашиш самарадорлигини оширишда педогогик ва психологик билимларнинг ўрни ортиб бормоқда. Ҳар қандай соҳадаги Ички ишлар органи ходимлари томонидан психологик билимларни чуқур эгаллаш ходим томонидан юксак муомала маданиятини таъминлайди. Эгалланган психологик билимлар ходимларнинг ҳуқуқшунослик маданиятини оширибгина қолмай, уларнинг инсонпарварлик моҳиятини ҳам намоён этади.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар жараёнида вояга етмаганлар томонидан содир этилган жинойтларни тергов қилишда педагог ва психолог иштироки билан боғлиқ қонун ҳужжатларини янада такомиллаштириш, бунда вояга етмаганлар томонидан содир этилган жинойтларнинг келиб чиқиш сабаби, шахснинг ижтимоий ахволини, унинг рухий ҳолатини инобатга олган ҳолда ўрганиш вояга етмаган шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини химоя қилишга ҳамда ижтимоий адолатни таъминлашга хизмат қилади.

### Адабиётлар

1. Шавкат Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашр. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // URL: <http://www.lex.uz>.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 18.01.2021 йилдаги 23-сон <https://lex.uz/docs/5234746>
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 25.08.2017 йилдаги ЎРҚ-437-сон <https://lex.uz/docs/3317994>
5. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон <https://lex.uz/docs/5013007>
6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 29.10.2019 йилдаги ЎРҚ-576-сон <https://lex.uz/docs/4571490>



7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 24.07.2020 йилдаги ЎРҚ-630-сон <https://lex.uz/ru/docs/4910391>
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 03.08.2021 йилдаги 490-сон <https://lex.uz/docs/5550539>
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 03.06.2021 йилдаги 339-сон <https://lex.uz/docs/5443123>
10. Вояга етмаганлар ишлари бўйича идоралараро комиссиялар тўғрисидаги Низом ЎзР Президентининг 14.03.2017 й. ПҚ-2833-сонли қарорига 3-илова
11. Шавкат Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашр. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022.
12. Лившиц Ю.Д., Кудрявцева А.В. Вопросы использования специальных познаний в уголовном процессе. Челябинск, 2001. С.
13. Махов В.Н. Использование знаний сведущих лиц при расследовании преступлений: Монография. М.: РУДН, 2000. С. 54.
14. Гросс Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики. Новое изд., перепеч. с изд. 1908 г. М.: ЛексЭст, 2002. С.131.
15. Полянский Н.Н. Доказательства в иностранном процессе. Юриздат МЮ СССР. М., 1946. С. 109.
16. Штерн В. Психологические методы испытания умственной одаренности // Петроград. 1915. С. 3-5, С. 11-14.
17. Қозоғистон Республикаси ЖПК 538-моддаси 2-қисми: «16 ёшга тўлган вояга етмаганлар ишлари бўйича педагог ёки психолог жиноят ишида иштирок этишга терговчи ёки суднинг ихтиёрига кўра ёхуд ҳимоячи, қонуний вакилнинг илтимосномасига кўра қўйилади».

## ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ МАЪМУРИЙ ХУДУДДАГИ КРИМИНОГЕН ВАЗИЯТНИ ЎРГАНИШ ВА ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИ

*Абдухалилов Абдуллох Абдурахмон ўгли  
Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси  
3 ўқув курс 309 гуруҳ курсанти*

**Аннотация.** Ушбу мақола орқали муаллиф ҳуқуқбузарликлар профилактикасида профилактика инспекторининг маъмурий ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганиш ва таҳлил қилиш фаолиятининг аҳамиятини, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тушунчасини, мазкур мавзуга доир чет эл тажрибасини, ва адабиётларда мавзуга оид келтирилган жумлаларни кўрсатиб ўтиб мавзунини илмий таҳлил қилган.

**Калит сўзлар:** ҳуқуқбузарлик, жиноятчилик, криминоген вазият, ҳуқуқни муҳофаза қилиш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси.

**Аннотация.** Посредством данной статьи автор научно проанализировал тему, показав значение деятельности профилактического инспектора по изучению и анализу криминогенной ситуации в административной сфере в предупреждении преступлений, концепции профилактики преступлений, зарубежного опыта по данной теме, а также предложения, связанные с темой в литературе.

**Ключевые слова:** правонарушение, преступление, криминогенная ситуация, правоприменение, профилактика правонарушений.

**Annotation.** In this article, the author shows how important the peace of the family is, the meaning of the family as a link of society, the specific aspects of the activities of the prevention inspector working with troubled families, his opinion on the work that should be carried out by the prevention inspector. said.

**Key words:** offense, crime, criminogenic situation, law enforcement, crime prevention.

Бугунги ривожланиб бораётган даврда бутун дунёда жумладан республикаимиз Ўзбекистонда ҳам ҳуқуқбузарликларни содир этилиш сабаблари ва уларга имкон берадиган шарт-шароитларни ўрганиш, таҳлил қилиш ва ҳуқуқбузарликларни бартараф этиш чора-тадбирларини амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади. Шунинг алоҳида такидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёев: “Асосий қонунимизда умумийтироф этилган демократик принциплар билан бирга, халқимизнинг бебаҳо қадриятлари ва бой давлатчилик тажрибасини ифодалаш муҳим еди. Биринчи Президентимизнинг сай-ҳаракатлари билан, Конституциямизда “Инсон ва унинг кадр-қиммати” деган улуғ тушунча марказий ўринга қўйилди” деб такидлаб фуқароларнинг ҳуқуқ ва еркинликларини ҳимоя қилиш мамлакатимизда доимо асосий вазифа сифатида еътироф этиб келинганлигини такидлаб ўтди.

2021-2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини ревожлантиришнинг Тараққиёт стратегияси жамият ҳаётининг барча соҳаларидаги, хусусан, Ички ишлар тизимидаги ислохотларнинг «йўл харитаси» га айланди. Тараққиёт стратегиясида « Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат органлари халқимизга хизмат қилиши керак», деган тамойил давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланди.

Ўзбекистон Республикасида давлатчилигининг тикланиши ва ривожланишида, шу аснода олдимизга қўйган езу мақсадларга еришиш, ҳуқуқий демократик давлат қуриш, инсон, унинг манфаатлари, ҳуқуқ ва еркинликлари энг олий қадрият ҳисобланадиган фуқаролик жамиятини шакллантиришда Конституциянинг мустаҳкам пойдевори бўлиб келаётганини ётироф этиш мақсадга мувофиқ.

Ички ишлар органлари жамиятда жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ҳуқуқнузрликлар ва жинойтларни барвақт олдини олиш бўйича кенг қамровли ишлар олиб борилмоқда. Шунингдек фуқароларнинг ҳуқуқлари, еркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, жамоат тартибини сақлаш, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва профилактикаси бўйича Республикада яхлит ҳуқуқий тизими яратилган бўлиб, унда Ички ишлар органлари муҳим ўрин тутди.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятидаги рақамли ахборот тизимлари, уларнинг имкониятлари ва вазифалари. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятининг самарадорлигини оширишда “E-inspektor” электрон комплекс тизими вазифаси, имкониятлари ва ундан фойдаланиш. Профилактик ҳисобдаги шахслар билан ишлаш бўйича электрон ахборот тизими вазифаси ва унинг имкониятлари. Пробация назоратидаги шахсларнинг хулқ-атворини реал вақт режимида кузатиш учун электрон браслет ва ундан фойдаланиш. Электрон браслетларни ҳамда маълумотларни сақлаш ва қайта ишлаш учун сервер ва ушбу тизимга алоқадор қурилмалар ва улардан фойдаланиш. Мониторинг қилишнинг замонавий мобиль технологиялари, махсус дастурий таъминотлар, уларнинг имкониятлари ва вазифалари. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятида маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш бўйича “E-ma'muriy ish” ягона электрон ҳужжат алмашинуви тизими вазифаси, имкониятлари ва ундан фойдаланиш. Профилактика хизматида ҳисоботларни унификация қилиш ва уни бошқа ташкилотларнинг ҳисобот юритиш ҳамда идоравий ахборот тизимлари билан ўзаро интеграция қилишда “E-hisobot” ахборот тизими вазифаси ва ундан фойдаланиш имкониятлари.

Ҳозирги даврда цивилизация ривожланишининг бош тенденцияларидан бири — шаҳарларда истиқомат қилувчи аҳолининг қўпайиши ва шаҳар асосий иқтисодий драйверларга айланиб келиши. Таббийки, шу нуқтаи

назардан шаҳарларда истиқомат қилучи аҳоли учун зарур бўлган шароитлар яратилиши муҳим вазифадир.

Бугунги кунда маъмурий ҳудуддаги криминоген вазиятга ташқи омиллар таъсири ҳам кундан-кунга кучайиб бормоқда. Айниқса, дунё давлатлари ва халқлари ўртасидаги муносабатлар ва муаммоларнинг глобаллашуви, жадаллашуви, халқаро жинойтчилик, унинг уюшган тури, терроризм, гиёҳвандлик, қурол-яроғ ва одам савдоси каби кўринишларининг кенгайиб бораётганлиги, шунингдек ўзларининг ғаразли мақсадларини амалга ошириш учун турли йўл ва усуллар билан минтақадаги, алоҳида давлат ёки унинг маълум бир ҳудудидаги барқарор вазиятни бузишга ҳаракат қилаётган кучларнинг мавжудлиги ҳар қандай барқарор вазиятга салбий таъсирини ўтказди. Бундай ҳолатларни олдини олишда ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганиб уни таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги қонун. 2014 йил 14 май.
3. [http:// lex.uz](http://lex.uz) (Национальная база законодательства Республики Узбекистан)
4. Jinoyat huquqi Maxsus qism darslik M.X.Rustambayev Toshkent 2018.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги ПҚ–2833-сон “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жинойтчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
6. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни.

## INTELLEKTUAL MULK HUQUQIDA HAMMUALLIFLIK TUSHUNCHASI. HAMMUALLIFLIK SHARTLARI

*Ergasheva Malika Rasulovna*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Magistratura bosqichi talabasi*  
[malikaergasheva0914@gmail.com](mailto:malikaergasheva0914@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hammualliflik, jamoaviy faoliyat yuritish huquqiy jihatdan yoritiladi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan hammualliflikning yuzaga kelish asoslari tahlil qilinadi. Hammualliflarning huquq va majburiyatlari tavsiflanadi.

**Kalit soʻzlar:** muallif, hammualliflik, jamoaviy faoliyat, intellektual mulk, mualliflik huquqi, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari, hammualliflik shartlari.

**Аннотация.** В данной статье соавторство и коллективная деятельность освещаются с правовой точки зрения. Анализируются основания соавторства в отношении объектов интеллектуальной собственности. Описаны права и обязанности соавторов.

**Ключевые слова:** автор, соавторство, коллективная деятельность, интеллектуальная собственность, авторское право, изобретение, полезная модель, промышленный образец, селекционные достижения, условия соавторства.

**Annotation.** In this article, co-authorship and collective activities are covered from the legal point of view. The basis of co-authorship in relation to intellectual property objects is analyzed. The rights and obligations of co-authors are described.

**Key words:** author, co-authorship, collective activity, intellectual property, copyright, invention, utility model, industrial model, selection achievements, terms of co-authorship.

Intellektual mulk huquqi shaxsning ijodiy faoliyati mahsuli sifatida maydonga kelgan obyektlarga nisbatan qoʻllaniladigan huquqdir. **Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 53-moddasiga** muvofiq<sup>44</sup> har bir shaxsning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi mavjud. Shuningdek, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Intellektual mulk obyektlari oʻz navbatida fuqarolik huquqining alohida maxsus obyektlari hisoblanadi. “Intellektual” soʻzi lotin tilidan oʻzlashgan boʻlib, aql degan maʼnoni beradi. Intellektual faoliyatning bir necha turlari mavjud. Shaxsning intellektual faoliyati natijalari quyidagilarda koʻrinadi:

fan<sup>45</sup>, adabiyot va sanʼat asarlari; ijrolar, fonogrammalar, eshittirish-koʻrsatish tashkilotlarining eshittirishlari va koʻrsatuvlari, elektron hisoblash mashinalari

<sup>44</sup><https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

<sup>45</sup>Intellektual mulk. Darslik.|| Mualliflar jamoasi.-T.: 2021.

uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari; ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari, oshkor etilmagan axborotlar, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari(nou-xau)

Intellektual mulk obyektlarini yaratgan shaxs bevosita uning muallifi hisoblanadi. Agar asar bir necha mualliflar tomonidan yaratilgan bo'lsa, bunday holatda **hammualliflik** yuzaga keladi.

Endi intellektual mulk obyektlaridagi hammualliflikni tasniflaymiz. Quyidagi intellektual mulk obyektlariga nisbatan hammualliflik yuzaga kealadi:

1. Mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan.

2. Turdosh huquq obyektlariga nisbatan.

Ixtirolarga nisbatan.

Foydali modellarga nisbatan.

Sanoat namunasiga nisbatan.

O'simliklarning yangi navlariga nisbatan.

Hayvonlarning yangi zotlariga nisbatan.

Hammualiflik O'zbekiston Respublikasining “ **Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida**”gi Qonuni 12-moddasiga muvofiq quyidagicha tavsiflanadi:

Ikki<sup>46</sup> yoki undan ortiq jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi, mazkur asar bo'linmas bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat'i nazar, **hammualliflarga birgalikda** tegishli bo'ladi. Agar asarning muayyan qismidan uning boshqa qismlariga bog'liq bo'lmagan holda foydalanish mumkin bo'lsa, bu mustaqil mazmunga ega bo'lgan qism deb e'tirof etiladi. Hammualliflarning har biri, agar ular o'rtasidagi kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, asarning o'zi yaratgan, mustaqil mazmunga ega bo'lgan qismidan o'z xohishiga ko'ra doydalanishga haqlidir.

Hammualiflar o'rtasidagi munosabatlar, qoida tariqasida, kelishuv asosida belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, asarga bo'lgan mualliflik huquqi barcha mualliflar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi, o'rtasida teng taqsimlanadi. Agar hammualliflarning asari bo'linmas bir butunni tashkil etsa, asardan foydalanishni yetarli asoslar bo'lmay turib taqiqlab qo'yishga hammualliflardan hech biri haqli emas.

Bundan ko'rinib turibdiki, hammualiflar asarning o'zi yaratgan qismidan ixtiyoriy foydalana oladi. Ular o'rtasidagi kelishuv hamkorlikdagi faoliyat mezonlarini belgilaydi.

Shuningdek, mualliflik huquqi ham cheklangan<sup>47</sup>. Cheklangan muddati bor. Qonunga muvofiq hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi.

<sup>46</sup><https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

<sup>47</sup>И.Б.Якубова. Муаллифлик ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. –Т.: 2020

Qonunda<sup>48</sup> audiovizual asar mualliflari (hammualliflari)sifatida quyidagilardan ko`rsatilgan.

sahnalashtiruvchi rejissor;

ssenariy muallifi;

muayyan audiovizual asar uchun maxsus yaratilgan matnli yoki matnsiz musiqa asari muallifi;

sahnalashtiruvchi operator;

sahnalashtiruvchi rassom.

Shuningdek, intervyuda ham hammualiflikni ko`ramiz.

Intervyuga bo`lgan mualliflik huquqi intervyu bergan shaxsga va intervyu olgan shaxsga, agar ular o`rtasidagi kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo`lmasa, hammualliflar sifatida tegishlidir.

O`zbekiston Respublikasi 2002-yil yangi tahrirda qabul qilingan **“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to`g`risida”**gi Qonuniga muvofiq sanoat mulki<sup>49</sup>obyektiga bo`lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo`ladi va patent bilan tasdiqlanadi.

Sanoat mulki obyektini bir nechta jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati asosida yaratilgan bo`lib, ular o`rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo`lmasa, ularning barchasi shu obyektning teng huquqli **hammualliflari** deb e`tirof etiladi.

Muallif (hammualliflar), agar o`zi (o`zlari) yaratgan sanoat mulki obyektini boshqalar g`ayriqonuniy o`zlashtirib olishi natijasida bu obyektga talabnoma topshirilgan yoki patent olingan bo`lsa, patent berilganligi yuzasidan nizolashish yoxud patent egasi sifatida o`ziga (o`zlariga) patentning o`tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

Ushbu qonunning **10-moddasiga muvofiq** sanoat mulki obyektining patenti quyidagilarga beriladi:

sanoat mulki obyektining muallifiga (hammualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo`riga (merosxo`rlariga);

muallif yoki uning merosxo`ri tomonidan patent berish haqidagi talabnomada yoki sanoat mulki obyektini ro`yxatdan o`tkazilgunga qadar Agentlikka topshirilgan talabnoma beruvchini o`zgartirish haqidagi arizada ko`rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga (ularning o`zi rozi bo`lgan taqdirda);

ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda ish beruvchiga.

Ish beruvchi sanoat mulki obyektini sir saqlagan taqdirda muallifga (hammualliflarga) mutanosib ravishda haq to`lashi shart, haq miqdori shartnomada belgilanadi.

Patent egasi bo`lmagan, o`z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki obyektining

<sup>48</sup><https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

<sup>49</sup><https://lex.uz/docs/-76671>

muallifi (hammualliflari) tegishli sanoat mulki obyektidan foydalanilganligi yoxud unga oid litsenziya sotilganligi uchun haq olish huquqiga ega. Sanoat mulki obyektidan foydalanilganlik yoki unga oid litsenziyani sotganlik uchun tushayotgan mablag'lar hisobidan muallifga (hammualliflarga) to'lanadigan haqning miqdori, uni to'lash shartlari va tartibi muallif (hammualliflar) hamda ish beruvchi o'rtasidagi shartnomada belgilanadi.

Sanoat namunasi haqidagi talabnoma uchun sanoat namunasi muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani berilishi shart.

Foydali model haqidagi talabnoma uchun ham foydali modelning muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi ariza kiritilishi kerak.

Shuningdek, Ixtiro haqidagi talabnomani olish uchun ham ixtironing muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi ariza zarur bo'ladi.

Seleksiya yutuqlarini ham hammualliflikda yaratish mumkin. Seleksiya yutug'ining mualliflariga tegishli huquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasining 2002-yil yangi tahrirda qabul qilingan **“Seleksiya yutuqlari to'g'risida”gi Qonunida** belgilab qo'yilgan. Qonunga muvofiq<sup>50</sup> ijodiy mehnati bilan o'simliklarning yangi navi yoki hayvonlarning yangi zotini yaratgan (chiqargan yoki aniqlagan) jismoniy shaxs seleksiya yutug'ining muallifi deb e'tirof etiladi.

Agar seleksiya yutug'ini yaratishda bir nechta jismoniy shaxs ishtirok etgan bo'lsa, ularning hammasi hammualliflar deb e'tirof etiladi. Hammualliflarga tegishli bo'lgan huquqlardan foydalanish tartibi qonunchilikda hamda ular o'rtasidagi kelishuvda belgilanadi. Muallif (hammualliflar) o'z nomi (nomlari) patent berish haqidagi talabnomada, patentda va seleksiya yutug'i xususida e'lon qilinadigan barcha materiallarda ko'rsatilishi huquqiga ega. Seleksiya yutug'ining muallifiga (hammualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo'riga (merosxo'rlariga) patent beriladi.

Qonunig 7-moddasiga asosan muallif (hammualliflar) seleksiya yutug'i yaratilayotganda:

o'zi (o'zlari) egallab turgan lavozimga xos vazifalarni bajargan bo'lsa; seleksiya yutug'ini yaratish maqsadini ko'zlab zimmasiga (zimmalariga) maxsus yuklatilgan vazifalarni bajargan bo'lsa;

ish beruvchi tomonidan o'ziga (o'zlariga) berilgan moddiy vositalar yoki moliyaviy mablag'lardan foydalangan bo'lsa;

<sup>50</sup><https://lex.uz/docs/-69237>



o'zi (o'zlari) ish jarayonida orttirgan, ish beruvchi tashkilotning o'ziga xos xususiyatini tashkil etadigan bilim va tajribadan foydalangan bo'lsa, bunday seleksiya yutug'i xizmat tartibida yaratilgan deb hisoblanadi.

Agar ish beruvchi yaratilgan seleksiya yutug'i to'g'risida muallif (**hammualliflar**) tomonidan yozma ravishda xabardor qilingan sanadan e'tiboran to'rt oy ichida Agentlikka patent berish haqidagi talabnomani topshirmasa, patent berish haqidagi talabnomani topshirish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechmasa va seleksiya yutug'ini sir saqlash to'g'risida muallifga (hammualliflarga) ma'lum qilmasa, u holda muallif (hammualliflar) talabnoma topshirish va o'z nomiga patent olish huquqiga ega bo'ladi. Bunday holda, ish beruvchi patent egasiga shartnomada belgilanadigan miqdorda tovon to'lab, o'z ishlab chiqarishida seleksiya yutug'idan foydalanishda ustuvor huquqqa ega bo'ladi. Ish beruvchi seleksiya yutug'ini sir saqlagan taqdirda muallifga (hammualliflarga) mutanosib ravishda haq to'lashi shart, haq miqdori shartnomada belgilanadi. Patent egasi bo'lmagan seleksiya yutug'ining muallifi (hammualliflari) seleksiya yutug'iga doir litsenziyadan foydalanilganligi yoxud u sotilganligi uchun haq olish huquqiga ega, bu haqning miqdori va uni to'lash tartibi patent egasi yoki uning huquqiy vorisi bilan tuzilgan shartnomada belgilab qo'yiladi. Muallifga (hammualliflarga) haqni patent egasi yoki uning huquqiy vorisi, agar seleksiya yutug'idan foydalanganlik uchun haq to'lash tartibi va muddatlari to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, patentning amal qilish muddati davomida to'laydi. Haq muallifga (hammualliflarga) seleksiya yutug'idan foydalanilgan hisobot davri tugaganidan keyin uzog'i bilan olti oy ichida to'lanadi.

Shuningdek, seleksiya yutug'iga nom qo'yilayotganda ham hammualliflar huquqlariga amal qilinadi. Seleksiya yutug'ining nomi<sup>51</sup> faqat raqamlardan iborat bo'lib qolmasligi, seleksiya yutug'ining xususiyatlari, kelib chiqishi, ahamiyati haqida, muallifning (hammualliflarning) shaxsi haqida yanglishishlarga olib kelmasligi, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid bo'lmasligi lozim.

Bir nechta shaxs birgalikda bitta seleksiya yutug'i yaratgan bo'lsa, patentga bo'lgan huquq ularning hammasiga tegishli bo'ladi. Ulardan bittasining yoki bir nechtasining patentga bo'lgan huquqdan voz kechishi boshqalarining patent olish harakatlarini sodir etishiga hamda patent olish taomilida ishtirok etishiga taalluqli bo'lmaydi.

Muallif (hammualliflar) o'zining (o'zlarining) xizmat vazifalarini, muayyan topshiriqni bajarishi bilan bog'liq holda yoki ish beruvchi tashkilotning o'ziga xos xususiyatini tashkil etadigan bilim va tajriba yordamida yaratilgan seleksiya yutug'iga beriladigan patentga bo'lgan huquq, agar bu ular o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishlidir.

Muallif (hammualliflar), agar o'zi (o'zlari) yaratgan seleksiya yutug'ini boshqalar g'ayriqonuniy o'zlashtirib olishi natijasida bu seleksiya yutug'iga talabnoma topshirilgan yoki patent olingan bo'lsa, patent berilganligiga qarshi

<sup>51</sup><https://lex.uz/docs/-69237>

e'tiroz bildirish yoxud patent egasi sifatida o'ziga (o'zlariga) patentning o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

Seleksiya yutug'iga nisbatan patent berish haqidagi talabnoma uchun muallif (hammualliflar) va kimning nomiga patent so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs (shaxslar), shuningdek ularning turar joyi yoki manziliga doir ma'lumotlar ko'rsatilgan patent berish haqidagi ariza ham berilishi kerak.

Xulosa, qilib aytganda, hammualliflikda ijod qilingan intellektual mulk obyektlariga jamoaviy asosda egalik qilinadi. Hammualliflar o'rtasidagi munosabatlar kelishuv orqali belgilab qo'yiladi. Patent beriladigan intellectual mulk obyektlari uchun ariza topshirishda hammualliflarning har biri nomi ko'rsatiladi va bu orqali ularning shaxsiy nomulkiy huquqlari muhofaza qilinadi.

#### **Foydalanilgan normativ- huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
5. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir)
6. <https://lex.uz/docs/-76671>
7. O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi (yangi tahrir)
8. <https://lex.uz/docs/-69237>

#### **Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar:**

9. Intellektual mulk. Darslik. //Mualliflar jamoasi.-T.:2020.
10. И.Б.Якубова. Муаллифлик ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. –Т.: 2020

## ОБ ИСТОРИИ ПРОИСХОЖДЕНИЯ И РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ

*Очилова Шоира Сайфиевна*

*доцент кафедры "Гуманитарные науки и  
информационные технологии" Самаркандского  
государственного института иностранных языков*

*Анна Мустафина Джалильевна*

*студенка 1 курса ф-та Таржимон*

**Аннотация.** В статье рассмотрены некоторые аспекты истории происхождения узбекской национальной одежды народов нашего региона и её дальнейшее развитие с древнейших времен до наших дней.

**Ключевые слова:** Узбекская национальная одежда, культура, история, искусство, мода, театр исторического костюма, галерея, художник, модельер

**Izoh.** Maqolada mintaqamiz xalqlarining o'zbek milliy liboslarining kelib chiqish tarixi va uning qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan keyingi taraqqiyotining ayrim jihatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** O'zbek milliy kiyimlari, madaniyati, tarixi, san'ati, modasi, tarixiy liboslar teatri, galereya, rassom, modelyer

**Annotation.** The article considers the history of the origin of the Uzbek national clothes and its further development in the fashion world.

**Keywords:** Uzbek national clothes, culture, history, art, fashion, theater of historical costume, gallery, artist, fashion designer

Узбекская национальная одежда имеет богатую историю, которая насчитывает несколько тысяч лет. Она отражает культуру и традиции узбекского народа и является одним из самых ярких проявлений его национальной идентичности. Более того, очень важно упомянуть что главной ценностью любого народа является его многовековая культура. Именно она объединяет духовно и составляет истинное богатство народов. Узбекское этнографическое наследие богато и разнообразно.

Во многих странах национальный костюм является важной частью традиционной культуры народа. По стилю одежды, тканям, из которых он выполнен, рисункам и узорам можно довольно-таки много узнать о жизни, обычаях и истории народа. Например, узбекский национальный костюм был создан еще в древние времена и до сих пор используется не только как удобная одежда для повседневной жизни, но и как отдельный наряд в индустрии моды.

Узбекский национальный костюм также отражает национальную специфику узбекского народа так, как он тесно связан с его культурой и историей. Имеет характерные для каждого региона отличия и особенности.

В этой статье описывается ход развития узбекской национальной одежды, начиная с древних времен и до настоящего времени.



Так, например женский комплект одежды включает в себя платье-тунику и шаровары. Голову женщины покрывают платком, чапаном или надевают тюбетейку.



*Рис 2. Пример классического варианта узбекской национальной одежды*

Позже, в 20 веке узбекская национальная одежда продолжила свое развитие, благодаря чему были созданы новые виды нарядов, которые сочетали в себе не только традиционные элементы, но уже и современный стиль. Дизайнеры Узбекистана начали использовать новые материалы и технологии, для того чтобы создать еще более стильную, комфортную и практичную одежду.

Более того, на сегодняшний день, благодаря своей уникальности, узбекская национальная одежда пользуется огромной популярностью в мире моды. Изумительные узоры, орнаменты и золотая вышивка на одежде просто покоряют сердца модельеров и ценителей искусства со всего света.

Особенно большому развитию узбекской национальной одежды способствовало создание Театра Исторического Костюма - «Эл Мероси», расположенного в центре города Самарканд.

В этом театре люди могут с легкостью ознакомиться с жизнью, бытом, обычаями и традициями жителей региона начиная с древнейших времен и по настоящее время. Театр представляет костюмы различных исторических периодов, которые стали летописью жизни наших предков. Самобытные исторические наряды языком цвета, формы, орнамента и рисунка раскрывают сокровенные тайны и законы красоты народного костюма и погружают зрителя в магию чарующего Востока.



*Рис. 3 Пример узбекской национальной одежды, представленный Театром Исторического Костюма - «Эл Мероси».*

Во время представления перед зрителями оживают все важные страницы бурной истории. Посетителей также ждёт буйство красок и образов манящего Востока, великолепные костюмы, одухотворяющая музыка и хореография, благодаря чему получится с легкостью погрузиться в водоворот древней и богатой Истории Узбекистана. Например, в одном из самых популярных спектаклей - «По Шёлковому пути», где демонстрация костюмов дополняется хореографией, вниманию публики представлены образы древних скифов - саков и массагетов, огнепоклонников, персидских и согдийских правителей и знати, большая коллекция красочных костюмов эпохи Тимуридов, а также костюмы различных регионов Узбекистана.

Еще интересен тот факт, что представленные костюмы были максимально исторически точно воссозданы по материалам фондов ведущих мировых музеев Эрмитажа, Миланского музея истории, Британского исторического музея, Королевского института искусств и истории в Брюсселе, Института Востоковедения АН РФ, Академии Наук Узбекистана, барельефов и фресок Персеполиса, Афрасиаба, Пенджикента, старинных миниатюр Бехзода и исторических хроник Шах-Наме, Бобур-Наме, Зафар-Наме. При пошиве этих костюмов обычно используются ткани грубой выделки, шкуры, кожа, шелк, бархат, парча, ткани ручной работы. На сегодняшний день в театре создано более двухсот уникальных костюмов.

В этом музее у каждого зрителя появляется уникальная возможность погрузиться в древнюю Историю Узбекистана, почувствовать непоколебимый дух воинов саков и массагетов, ощутить мощь легендарной персидской династии Ахеменидов, стать свидетелями шествия послов ко двору согдийского правителя Вархумана. Вас обдует теплый ветерок от вееров корейских и китайских танцовщиц, легких и грациозных. Никого не оставит равнодушным неистовый, зажигательный танец лязги и самобытная узбекская свадьба.


Этот театр также проводит показы мод по всему миру и выступает не только перед ценителями искусства и узбекской культуры, но и перед мировыми лидерами.



*Рис. 4 Пример женской праздничной узбекской национальной одежды, представленной Театром Исторического Костюма - «Эл Мероси».*

Еще одна организация, которая помогает узбекскому костюму продолжать свое развитие в сфере искусства и моды – это расположенная в городе Самарканде галерея «Айсель». Она проводит свои гастрольные вернисажи и участвует в конкурсах и международных фэшн-проектах по всему миру, а именно: в Москве, Казани, Новосибирске, Алматы, Перми, Ташкенте, Екатеринбурге, Верноне (Франция), Санкт-Петербурге, Самарканде, Калининграде, Астане.

Более того, в этой галерее работает творческая группа художников по текстилю из Самарканда, работающих в основном с шелковыми и натуральными тканями в разных техниках обработки и декорирования тканей как по известным, так и почти забытым народным рецептам. Это и батик "Бандан" - узелковое и ровное окрашивание тканей специальными и натуральными красителями, и батик "Роспись", и горячий батик "Кракле", а также ручная набойка на шелке штампами, вырезанными вручную из древесины фруктовых деревьев. Красками, изготовленными из местных растений. Сюда относится и вышивка по шелку и бархату в технике "Попур", а также гладью по расписному батику, в небольшом количестве народная узбекская техника глади вприкреп "Ироки" и наша собственная технология вышивки по верёвочному рельефу шелковой нитью, подсказанная техникой бухарского золотого шитья. В добавок это еще и цветочные узоры свободной росписи, художественное колорирование тканей, тематическая роспись, ассоциативная живопись и знаковые орнаментальные письмена, имеющие смысловые поэтические формы, зашифрованные в узорах



*Рис. 5 Пример модернизированной узбекской национальной одежды*

Творческая группа «АЙСЕЛЬ» создает артистическую и модельную одежду, на каждый день и для особо торжественных случаев. В разнообразии стилей обязательно присутствует основная "восточная" составляющая - декор и фактура тканей центральноазиатского региона.

Все костюмы, созданные этой творческой группой художников и модельеров являются коллекционным эксклюзивом потому что, повтор и дубль практически невозможен. Даже если и можно повторить крой изделия, то декор и цвет ткани неповторимы.



*Рис. 6 Пример модернизированной узбекской национальной одежды, созданной художниками и модельерами галереи «Айсель»*

В заключение можно добавить, что история узбекской национальной одежды является очень богатой и интересной. Более того она отражает традиции и культуру узбекского народа, а также его стремление к совершенствованию и развитию. Сегодня узбекская одежда продолжает



радовать глаз своей красотой и оставаться важным элементом культурного наследия Узбекистана.

#### **Использованная литература**

1. Сухарева О.А. Уникальные образцы среднеазиатской одежды ХУЛ в.- В кн.: Традиционная культура народов Передней и Средней Азии.- Л.: Наука, 1970, с.101-112.
2. Костюм народов Средней Азии,- М.: Наука, с.70-76.
3. Лобачева Н.П. К истории среднеазиатского костюма.-СЭ,1965, № 6, с.18-27.
4. <http://elmerosi.uz/index.php/ru/>
5. <https://aysel.co.uk/>
6. <https://cheloveknauka.com/iz-istorii-evakuatsii-i-spaseniya-sovetskiy-lyudey-v-gody-velikoy-otechestvennoy-voyny-istoriko-partiynyy-aspekt-problemy>

## INTERNET TARMOG'IDA AUDIOVIZUAL ASARGA BO'LGAN INTELLEKTUAL HUQUQLARNI HIMOYA QILISH MUAMMOLARI VA ULARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

*Kakhkhorova Nigora*

*LLM student at Tashkent State University of Law*

*[nigorakakhkhorova35@gmail.com](mailto:nigorakakhkhorova35@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, kinomatografik asarlarning bugungi kunda huquqiy taribga solinishi va ularni himoyasini kuchaytirishga qaratilgan choralar. Audiovisual asarlarining turlari va ularning qolganlardan o'xshashlik va farqli jihatlari. Bugungi kundagi audiovisual asarlarda huquqbuzaliklar bilan bog'liq holatlar va ularning sonining oshish sabablari va ularga munosib bo'lishi mumkin bo'lgan yechimlar. Xitoyda Mualliflik huquqining kinomatografiya sohasidagi faoliyatni tartibga solishga qaratilgan yangi huquqiy o'zgartirishlar va NETFLIX ning Xitoy o'rnatgan tartibida blockchayn dasturiy qurilmasida ishlashi.

**Kalit so'zlar :** Kinomatografiya, audiovisual, prodeyer, ilova, provayder, mualliflik huquqi, tayyorlovchilar, vibenar.

**Abstract.** In this article, the legalization of cinematographic works today and measures aimed at strengthening their protection. Types of audiovisual works and their similarities and differences from others. Situations related to violations in today's audio-visual works and the reasons for their increasing number and appropriate solutions. New legal changes aimed at regulating activities in the field of copyright in China and the implementation of NETFLIX on the blockchain software device in the manner established by China.

**Key words:** Cinematography, audiovisual, producer, application, provider, copyright, preparers, viber.

**Аннотация.** В данной статье легализация кинематографических произведений сегодня и меры, направленные на усиление их защиты. Виды аудиовизуальных произведений и их сходство и отличие от других. Ситуации, связанные с нарушениями в современных аудиовизуальных произведениях, причины их увеличения и пути их решения. Новые правовые изменения, направленные на регулирование деятельности в сфере авторского права в Китае и внедрение NETFLIX на программном устройстве блокчейна в порядке, установленном Китаем.

**Ключевые слова:** кинематография, аудиовизуальное, производитель, приложение, провайдер, авторское право, монтажники, viber.

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan Internetda intellektual mulk huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish muammolari alohida dolzarbdir. Global tarmoqda intellektual mulk huquqlarini buzishning muhim qismi mualliflik huquqining murakkab ob'ekti - audiovisual asarga to'g'ri keladi, bu mualliflik huquqining boshqa ob'ektlaridan uni yaratishda ishtirok etgan shaxslarning sub'ekt tarkibining ham, tuzilishining ham bir xilligi bilan ajralib

turadi. audiovizual asar tarkibiga kiritilgan ob'ektlarning shakli mualliflik huquqi va turdosh huquqlar. Movie Research va Romir tadqiqot kompaniyalari tomonidan o'tkazilgan umummilliy so'rov natijalariga ko'ra, mahalliy Internet foydalanuvchilarining 95% Internetda filmlarni bepul tomosha qilish usullarini afzal ko'rishadi, ular orasida ijtimoiy va torrent tarmoqlari eng ommabop bo'lib qolmoqda.<sup>52</sup>

Filmlarning Internetdagi noqonuniy nusxalari mualliflik huquqi egalari kino ijarasidan tushgan daromadning katta qismidan mahrum qiladi. Onlayn kontentni himoya qilishga ixtisoslashgan Webkontrol kompaniyasining hisob-kitoblariga ko'ra, 2013 yilda Runetdagi film qaroqchiligi tufayli mualliflik huquqi egalari 1,3 milliard dollar daromad yo'qotgan<sup>53</sup>. Audiovizual asarlarni aniq yozib olishga bo'lgan talab pasaymoqda, filmlarni tomosha qilish vositasi sifatida Internetdan foydalanish tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Internetda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish masalalari xalqaro tus oldi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi onlayn muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish muammolarini hal qilishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatib turibdi, bu esa ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi alohida qonun hujjatlarining qabul qilinishida o'z ifodasini topmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da belgilangan vazifalarga asoslanib, xalqimiz, avvalo, yoshlar ongiga milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirishda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan kino san'atining rolini oshirish maqsadida, "To'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarda tizimlashtirilishi va unifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha «Yo'l xaritasi»da "Kinematografiya to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish belgilangan. Shundan so'ng mazkur ishning ijrosi sifatida 2021- yilning 8- aprelida "Kinomatografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarini ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida"gi 5060-sonli Prezident Qarorga binoan sohani rivojlantirish maqsadida ko'plab yangliklar va o'zgarishlar kiritildi. Shuningdek, kino asarlari bilan bog'liq bo'lgan mualliflik huquqi obyektlarini, shu jumladan, kino mahsulotlarining noqonuniy tarqatilishini aniqlash va bartaraf etish, ular bilan ruxsatsiz foydalanishdan ishonchli himoya qilish, qaroqchilikka qarshi kurashishning aniq mexanizmlari mavjud emasligi kino mahsulotlarining asl nusxalarini yuqori darajada noqonuniy aylanmasiga va mamlakatdagi kinokompaniyalar va kinoteatrlarga sezilarli zarar yetkishi bilan bog'liq holatlarni sodir etmaslik choralarini ko'rilmogda.

<sup>52</sup> ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ И ЗАЩИТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ПРАВ НА АУДИОВИЗУАЛЬНЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ В СЕТИ ИНТЕРНЕТ - Стрелго Валентина Ефимовна- Москва – 2018- стр-25

<sup>53</sup> LEGAL PROTECTION FOR CREATORS OF CINEMATOGRAPHIC WORKS AGAINST COPYRIGHT INFRINGEMENT THROUGH STREAMING AND FREE DOWNLOAD DITES - Pujiyono, Universitas Sebelas Maret Sufmi Dasco Ahmad, Universitas Islam Bandung - Volume 22, Issue 3, 2019 - page 3-4

Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun audiovizual asarlarni "proyektorlar, tomoshabinlar yoki elektron jihozlar kabi mashinalar yoki qurilmalar, agar mavjud bo'lsa, qat'i nazar, hamrohlik qiluvchi tovushlar bilan birga ko'rsatish uchun mo'ljallangan bir-biriga bog'liq tasvirlar seriyasidan iborat" deb ta'riflaydi. Audiovizual asarlarning turlariga quyidagilar kiradi:

- Harakatli Rasmlar.
- Arkada o'yinlari va video o'yinlar.
- Karaoke namoyishlari.
- Mobil telefonlar va planshetlar uchun mo'ljallangan ilovalar.
- Banner reklamalari.
- Vebinarlar.
- Slayd taqdimotlar.
- Audiovizual komponentga ega multimedia to'plamlari.
- Virtual haqiqat muhitlari.

Audiovizual asarning "soundtrack"i va "ovozli yozuv" o'rtasida qonuniy farq mavjud. Ovozli yozuvning qonuniy ta'rifida ushbu toifaga "kinofilm yoki boshqa audiovizual asar bilan birga keladigan tovushlar" kirmasligi alohida ta'kidlangan. Audiovizual asarlar ko'pincha tasviriy san'at asarlarini, ya'ni tasviriy va grafik tasvirlarni o'z ichiga oladi.<sup>54</sup>



Audiovizual asarlarning tasviriy san'at asarlaridan farqi shundaki audiovizual asardagi tasvirlar:

- (i) ketma-ket bo'lishi;
- (ii) o'zaro bog'liq bo'lishi;

<sup>54</sup> Third edition of USA copyright office compendium – audiovisual work – 2022 .  
<https://www.dekuzu.com/en/2020/09/audiovisual-work.html>

(iii) mashina yoki qurilma yordamida namoyish etilishi kerak. Tasviriy san'at asarlarida bunday talablar yo'q. Audiovizual asarlar matnni o'z ichiga olishi mumkin va faqat matndan iborat ekran tasviri audiovizual asar ichida "tasvir" bo'lishi mumkin. Adabiy asarning qonun bilan belgilangan ta'rifida bu toifaga audiovizual asarlar kirmasligi alohida qayd etilgan. Shunday qilib, planshet yoki karaoke mashinasi kabi qurilma ekranida paydo bo'ladigan kitob, jurnal, jurnal yoki boshqa adabiy asar matni kabi uzluksiz matn audiovizual ish hisoblanmaydi.

Audiovizual asar mualliflik huquqiga ega bo'lishi uchun yetarli miqdorda original va ijodiy inson muallifligini o'z ichiga olishi kerak. Asarni ro'yxatga olish mumkinmi yoki yo'qligini aniqlashda vizual material, eshitish materiali va umuman ishning oqimi baholanadi.

Audiovizual asar mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi uchun ushbu asar muallifidan kelib chiqishi kerak. Boshqa manbadan ko'chirilgan audiovizual asar mualliflik huquqiga ega emas. Audiovizual asar o'zaro bog'liq tasvirlar seriyasi ko'rinishida yetarli miqdordagi ijodiy ifodani o'z ichiga olishi kerak.

Audiovizual asar ijodiy inson muallifligini o'z ichiga olishi kerak. Sof mexanik jarayon orqali yaratilgan yoki faqat oldindan mavjud dasturiy ta'minot orqali yaratilgan audiovizual asari mualliflik huquqiga ega emas.

### **Internetda audiovizual asarlarga nisbatan intellektual mulk huquqlarini himoya qilish .**

Mualliflik huquqi - intellektual mulkni himoya qilish qamrovi eng keng tarqalgan shakli. Mualliflik huquqini himoya qilishga doir obyektlar ro'yxatiga kiritilgan asarlar "Mualliflik huquqi vaturdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunda to'la ko'rsatib o'tilgan va shu obyektlardan biri kinematografik asarlardir. Kinematografiya ishi harakatlanuvchi tasvirlar (harakatlanuvchi tasvirlar) ko'rinishidagi ijoddir. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq bu kabi asarlarga nisbata qaroqchilik qilish qonunan mualliflik huquqini buzilishi bo'lib huquqbuzalik sanaladi. Mualliflik huquqining buzilishi hozirda texnologiyaning rivojlanishi natijasida kuchaygan.

Dastlab kinematografiya qaroqchiligi DVD formati endi fayl almashish uchun internet va veb-saytdan foydalangan holda almashtirildi. Bugungi kunda filmlar dunyosizdan bahramand bo'lish uchun turli qonuniy faoliyatda ishlovchi ilovlar mavjud. Netflix, iflix, HOOQ, Genflix, Catchplay Video, Amazon kabi qonuniy ravishda filmlarini taqdim etish orqali xizmat ko'rsatadi. Bu ilovalardan farqli ravishda ba'zi internet saytlarida filmlar taqdim etilaveradi va bu mualliflarning hech qanday ruxsatisiz amalga oshiriladi. Jamiyatdagi fuqarolar bu vweb sahifalardagi tekin filmlarni ko'rishga ko'proq moyil bo'lishadi pulli kinoteart yoki qimmatbaho ilovalarga pul sarflab xizmatlardan foydalangandan ko'ra. Mualliflik huquqining buzilishiga barham berish bo'yicha jamoatchilik o'rgatishlari kerak. So'rovnomalardan ayon bo'lishicha, ba'zi odamlarga bepul saytlar orqali yangi

qo'yilgan filmlarni aslida qaroqchilik mahsuli ekanini bilishmasligi isbotlangan.<sup>55</sup> Hozirgi film qaroqchiligi avvalgiga qaraganda ancha sifatliroq, ya'ni odatda avval kinoteatrlarda namoyish etilayotgan filmni yashirin kamera orqali yozib olingan bo'lsa endi provayderlar orqali ularni bepul yuklab olishga harakatlar ko'p kuzatilmoqda.

Turli davlatlarda bunga nisbatan turli qarashlar va usullar ishlab chiqilish orqali mualliflik huquqlarini muhofaza qilish choralari ko'rilmogda. Misol uchun, 2021-yil 1-iyundan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun keng ko'lamlı mavzularni qamrab olgab bo'lib, ijtimoiy tarmoqlardagi mualliflik huquqi uning asosiy bog'ini hisoblanadi. Filmlarni ba'zi guruhlarga bo'lgan va ularni himoya qilish buyicha yangi usul yaratdi. "Mualliflik huquqi to'g'risida" gi qonunning asl nusxasida ko'rsatilganidek, filmlar va filmlar yaratishga o'xshash tarzda yaratilgan asarlar" endi audiovizual asarlarning barcha shakllarini qamrab ololmaydi.

- Agar qonun "filmlar va kinoga o'xshash asarlar" dan boshqa ijodiy yutuqlarni "kino suratga olish uslubiga o'xshash tarzda yaratish" ni talab qilishda davom etsa, ayrim asarlarni huquqiy himoya qilishni qiyinlashtirardi.

- Texnik darajadan ko'p audiovizual asarlarni ishlab chiqarishda an'anaviy "otishma" usullari endi qo'llanilmaydi. Misol uchun, ba'zi animatsion videolarni to'g'ridan-to'g'ri kompyuterda yaratish mumkin. Agar biz asarlarni "kino suratga olish uslubiga o'xshash tarzda yaratish" degan talabdan kelib chiqib belgilashda davom etsak, huquqiy himoyada bo'shliq paydo bo'lardi.

- "Filmlar va kinoga o'xshash asarlar" tasnifidan foydalanishni davom ettirish jonli efir, onlayn o'yin tasvirlari va boshqa tegishli video va tasvirlarning xarakterini aniqlashda qiyinchiliklarga olib keladi. Musiqiy favvoralar, yorug'lik shoulari va feyerverklar kabi badiiy dizaynning ba'zi natijalari mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunga muvofiq asarlarni himoya qilishga kiritilishi mumkin emas. Internet, raqamli texnologiyalar va nomoddiy ommaviy axborot vositalarining shakllari va vositalari yordamida yaratilgan audiovizual mahsulotlarning ayrim yangi turlarini ham "filmlar va kinoga o'xshash asarlar" ni himoya qilishning dastlabki doirasiga kiritish qiyin.

- Audiovizual asarlar turlarini tartibga solish mualliflik huquqini himoya qilish doirasiga yanada ijodiy "yutuqlar" olib keladi. Shu ma'noda "filmlar va kinoga o'xshash asarlar" tasnifi asosida videospektakl sohasida "pan-asarlar" shakllanadi. Bu yangi mualliflik huquqi qonunini qo'llashdagi muammolardan biridir.

Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunda qayta ko'rib chiqilishidan oldin ko'zda tutilgan "filmlar va kinoga o'xshash asarlar" asarlarning o'ziga xosligi uchun yuqori talablarni belgilaydi. Masalan, filmlar va kinoga o'xshash asarlarning ssenariysi,

<sup>55</sup> LEGAL PROTECTION FOR CREATORS OF CINEMATOGRAPHIC WORKS AGAINST COPYRIGHT INFRINGEMENT THROUGH STREAMING AND FREE DOWNLOAD SITES - Journal of Legal, Ethical and Regulatory Issues Volume 22, Issue 3, 2019 – page 3

jumladan, syujet, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar, musiqa, qo'shiqlar, spektakllar va boshqalar bo'lishi kerak. Ular odatda ijodiy jamoa tomonidan rejissyor bilan birgalikda yakunlanadi. Shuning uchun bunday asarlarning aslligini baholash mezonlari nisbatan aniq. Huquq buzilgan taqdirda himoya qilish ham nisbatan oson.<sup>56</sup>

Xitoyda kinolarni taqdim etish bilan shug'ullanuvchi xitoy NETFIX ilovasini blocheyn dasturiga joylash maqsadida ya'ni agar bu dastur qo'llaniladiga bo'lsa qarorchilik va kontarafakt kino savdosiga chek quyiladi. Hozirgacha kelib chiqqan NFT mualliflik huquqi bo'yicha nizolar uchta asosiy ish turi mavjud:

- bevosita plagiat,
- ikkilamchi yaratish
- haddan tashqari litsenziyalangan foydalanish.

Birinchi, to'g'ridan-to'g'ri plagiat odatda taniqli qahramonlar, rasmlar, multfilmlar va boshqa tasvirlar va ularni yuqoriga ulanishni tarqatish uchun NFT-ga joylashtirish, ba'zi hollarda, bir nechta turli xillarni bir-biriga qo'shish va birlashtirishni o'z ichiga oladi mualliflik huquqi ob'ektlari yoki muqobil ravishda ikki o'lchovli kvartirani texnologik qayta ishlash uch o'lchovli versiyada ishlash. To'g'ridan-to'g'ri plagiat eng oddiy hisoblanadi mualliflik huquqini buzish shakli. Dunyoda birinchi bo'lib hukm qilingan va yakunlangan NFT asarlarining mualliflik huquqini buzish ishi Shenzhen Golden Idea ishi edi.<sup>57</sup> Buni oldini olish maqdasida faqatgina Xitoyda hozirda aynan xitoy NTFga blocheyn dasturi yuklangan va tomoshabinlar filmlarni ko'rishlari uchun to'lov amalga oshirishlari lozim va hech qanday hakkerlar tomonidan filmni yuklash imkoniyati, dasturni buzish imkoni yo'q. Ammo boshqa mamlakatlarda bu soha hali qonunlarda ham, dasturiy texnikalar yordamida ham tartibga solinmaganligicha qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kinematografiya qaroqchiligi xizmati endi provayderi yordamida amalga oshirilmoqda va huquqbuzarlar asarlarni veb-sayt va bepul yuklab olish orqali o'z faoliyatini yuritishmoqda. Bu holatda ularning mijozlarining ko'pligi hayratlanarli holat. Demak xulosalash kerakki hali jamiyatning o'zi ham huquqbuzarlarning ishlarini qabul qilishayotganidan behabarlar. Buni oldini olish maqsadida nortamativ huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar va qoshimchlar kiritish, Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun, Huquqiy, axloqiy va tartibga solish masalalari to'lava aniq holatlarda qonunlarda bayon etilishi lozim. Ammo ko'pchilik qaroqchilik/o'g'irlash sodir bo'lganda buni qaysi huquqning buzulganligini bilmaydi va shuning uchun bu holat jinoyat sodir etmaslik deb baholanadi. Uning yaratuvchisi nuqtai nazaridan, o'z ishini himoya qilish uchun hali ham hech qanday xabardorlik mavjud emas aynan internet tarmoqlarida.

Himoyani yaxshilash uchun quyidagi amallarni bajarish tavsiya etiladi.

<sup>56</sup> Regulating audiovisual works under revised Copyright Law – China business law journal  
<https://law.asia/regulating-audiovisual-works-revised-copyright-law-2/>

<sup>57</sup> COPYRIGHT OF NFT WORKS IN CHINA: INFRINGEMENT, LIABILITY, AND REMEDIES - March 2023 – page 10

1. Mualliflik huquqini yaxshilash yanada takomillashtirilishi kerak. Bilimlarni jamiyat bilan bo'lishish, bu qaroqchilik kontenti, shuningdek, uning yaratuvchisini biluvchi mualliflik huquqi xabardorlik darajasini oshirish.

2. Internet, intellektual mulk va huquqbuzarlik bilan bog'liq qoidalar yanada kuchayishi kerak.

3. Yangi dasturlar va xavfsizlik choralarni o'rnatish orqali hakkerlar hujumini qaytarish va ularni yuklab olishga yo'l quymaslik. Malakali kadrlarni bu sohada tayyorlab ularni kinomatografik asarlarni himoya qilish ishlari bilan band qilish.

#### Adabiyotlar

1. ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ И ЗАЩИТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ПРАВ НА АУДИОВИЗУАЛЬНЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ В СЕТИ ИНТЕРНЕТ - Стрегло Валентина Ефимовна- Москва – 2018- стр-25
2. Yusupov, Sardor. "Psychological Issues in Robotic systems and Advanced Computer Legal Regulation." *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 1.8 (2022): 17-22.  
<http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/198/156>
3. LEGAL PROTECTION FOR CREATORS OF CINEMATOGRAPHIC WORKS AGAINST COPYRIGHT INFRINGEMENT THROUGH STREAMING AND FREE DOWNLOAD SITES - Pujiyono, Universitas Sebelas Maret Sufmi Dasco Ahmad, Universitas Islam Bandung - Volume 22, Issue 3, 2019 - page 3-4
4. Third edition of USA copyright office compendium – audiovisual work – 2022 . <https://www.dekuzu.com/en/2020/09/audiovisual-work.html>.
5. Rustambekov, Islambek, and Mokhinur Bakhramova. "Legal Concept and Essence of International Arbitration." URL: <https://www.ijsshr.in/v5i1/Doc/18.pdf>: 122-129. <https://www.ijsshr.in/v5i1/Doc/18.pdf>
6. LEGAL PROTECTION FOR CREATORS OF CINEMATOGRAPHIC WORKS AGAINST COPYRIGHT INFRINGEMENT THROUGH STREAMING AND FREE DOWNLOAD SITES - Journal of Legal, Ethical and Regulatory Issues Volume 22, Issue 3, 2019 – page 3.
7. Bahramova, Mohinur Bahramovna. "Nizolarni onlayn hal qilish (ODR) va uning xalqaro yurisdiksiyasi." *Интернаука* 35-2 (2021): 43-44.  
[https://www.elibrary.ru/ip\\_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D46653440](https://www.elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D46653440)
8. Regulating audiovisual works under revised Copyright Law – China business law journal <https://law.asia/regulating-audiovisual-works-revised-copyright-law-2/>
9. Yusupov, Sardor. "ROBOTOTEXNIKA VA SUN'Y INTELEKTNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 2.4 (2022): 120-124.  
<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/328>



## ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ ЖИНОЯТИНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Миробидов Миршод Бахтиёрвич  
Ўзбекистон Республикаси  
ИИБ академияси курсанти*

**Аннотация.** Мақолада Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш жиноятини тергов қилишнинг ўзига хос хусусиятлари, алоҳида жиҳатлари, шунингдек амалиёт ходимлари фаолиятини ўрганилган ва ҳуқуқшунос олимларни бу соҳадаги фикрларини таҳлил қилиб, криминалистика, жиноят ҳуқуқи, жиноят процесси ҳамда бошқа фанларнинг асосий низом ва қоидаларига суянган ҳолда якуний хулосалар чиқарилган. Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш жиноятини тергов қилиш шахс ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимоя қилиниши ва жиноят ишини қўзғатишни кечитириб бўлмаслиги ҳамда ишни аниқ, холисона ва тўлиқ қўриб чиқишга оид муҳим масалалар ёритиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** транспорт воситаси, автомобил йўллари, жиноят, муддат, йўл ҳаракати қоидалари.

**Аннотация.** В статье рассматриваются особенности и особенности расследования преступления о нарушении правил безопасности движения транспортных средств или их использования, а также деятельность практических специалистов и анализируются мнения ученых-правоведов в данной области, опираясь на основные положения и правила криминалистики, уголовного права, уголовно-процессуального и других дисциплин, сделаны окончательные выводы. Важные вопросы, связанные с расследованием преступления о нарушении правил безопасности движения транспортных средств или их использования, защиты прав и свобод личности, невозможности затягивания возбуждения уголовного дела, а также ясность, беспристрастное и полное рассмотрение дела.

**Ключевые слова:** транспортное средство, автомобильные дороги, преступление, срок, правила дорожного движения.

**Annotation.** The article discusses the features and peculiarities of investigating a crime on violation of traffic safety rules for vehicles or their use, as well as the activities of practitioners and analyzes the opinions of legal scholars in this field, based on the basic provisions and rules of criminology, criminal law, criminal procedure and others. disciplines, final conclusions are drawn. Important issues related to the investigation of the crime of violating the rules for the safety of the movement of vehicles or their use, the protection of the rights and freedoms of the individual, the impossibility of delaying the initiation of a criminal case, as well as clarity, impartial and complete consideration of the case.

**Key words:** vehicle, highways, crime, term, traffic rules.

Транспорт воситалари ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларининг бузилиши жамоат тартиби ва жамоат хавфсизлигига салбий таъсир кўрсатади. Транспорт воситалари ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларининг бузилиши инсон соғлиғига шикаст етказилиши, инсон ёки инсонларнинг ўлимига, мулкӣ зарар етказилишига ҳамда халқаро муносабатларнинг чигаллашишига ҳам сабаб бўлиши мумкин.

Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар – бу транспорт воситаларининг нормал ҳаракатланиш ва улардан хавфсиз фойдаланишни таъминловчи ижтимоӣ муносабатларга зарар етказувчи Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси билан тақиқланган ижтимоӣ хавфли қилмишлардир.

Автомобил йўлларида ва шу йўллар учун ажратилган минтақада тегишли рухсатсиз ер ости ва ер усти коммуникациялари ўтказиш, уларни таъмирлаш, бу ишларни бажаришнинг белгиланган шартлари ва муддатларига риоя қилмаслик, ўзбошимчалик билан арқлар, тўсиқлар, шлагбаумлар ёки бошқа иншоотлар ўрнатиш, йўлларга материал ва бошқа нарсаларни уюб қўйиш, йўл устини бузиш транспорт воситаларининг нормал ҳаракатланишига, бунинг оқибатида эса йўл транспорт ҳодисалари содир этилиб, фуқароларнинг соғлиғига, уларнинг ҳаёти ёки мулкига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Йўл транспорт ҳодисалари деганда, ҳаракатдаги лоақал битта транспорт воситаси иштирокида юзага келган, одамлар ҳалок бўлиши ёки жароҳатланишига, транспорт воситаси, иншоотлар, юклар шикастланишига сабаб бўлган ҳодисалар тушунилади. Ушбу тушунчада фикримизча, моддий зарарнинг хусусияти тўғрисидаги масала ҳам ўзининг аксини топиши мақсадга мувофиқ бўлар эди. Махсус адабиётларда ҳам йўл-транспорт ҳодисасининг турли тушунчалари келтирилган, бизнингча В.И. Жулев томонидан келтирилган тушунча энг аниқ билдирилган фикр сифатида ажратиб кўрсатилиши мумкин.<sup>58</sup>

Йўл-транспорт ҳодисаларини белгилашда уч асосий мезонга эътибор қаратиш керак бўлади. Биринчиси, унда транспорт воситаларининг иштирок этишидир. Транспорт воситалари сифатида автомобиллар, мотоцикллар, мотороллерлар, мопедлар, трамвайлар, троллейбуслар, тракторлар ҳамда двигателининг қуввати ва энг юқори ҳаракатланиш тезлигидан катъий назар, бошқа ўзиюрар механизмлар транспорт воситалари ҳисобланади. Транспорт воситалари қаторига юқоридагилардан ташқари велосипедлар ва от-улов воситаларини ҳам киритиш мумкин.

Иккинчи мезон - транспорт воситасининг ҳаракатда бўлганлиги ҳисобланади. Агарда юқорида кўрсатиб ўтилган хавфли оқибатлар турган транспорт воситаси, масалан автомашинанинг юкхонасидаги юк тушиб кетиб

<sup>58</sup> В.И. Жулев

инсонга там жароҳати етказган бўлса, бу ҳодиса йўл-транспорт ҳодисаси эмас, балки юкларни ортиш ва тушириш жараёнида техника қоидаларини бузиш сифатида ҳисобга олиниши керак бўлади ва бу йўл-транспорт ҳодисаси бўлмайди.

Учинчи мезон - одамларнинг ҳалок бўлиш ёки жароҳатланиши ёхуд моддий зарар етказилиши ҳисобланади. Йўл-транспорт ҳодисалари натижасида келиб чиққан оқибатларга қараб қонун ҳужжатларига кўра жиноий, маъмурий жавобгарлик чоралари ва улар билан бир қаторда моддий зарарни қоплаш учун фуқароий-ҳуқуқий жавобгарлик чоралари қўлланилиши мумкин.

Транспорт воситасини бошқарувчи шахс томонидан транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш баданга ўртача оғир ёки оғир шикаст етказилишига сабаб бўлса энг кам ойлик иш ҳаққининг эллик бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланади.<sup>59</sup>

Мазкур жиноятлар бўйича иш юритишда фуқароларга етказилган тан жароҳатларини ва етказилган зарар миқдорини аниқлаш ва қоплаш чораларини кўриш дастлабки тергов органлари олдида турган долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Ушбу турдаги жиноятларни тергов қилиш услубияти, бу жиноятларни турли хил усулларда содир қилиши билан, бу жиноятлар бошқа жиноятлар билан биргаликда содир қилиниши билан, бу жиноятлар ўзига хос хусуситларига эга. Шунинг учун ҳам транспорт воситасидан фойдаланиш қоидаларини бузиш жиноятларини тергов қилишда кечиктириб бўлмас ва дастлабки тергов ҳаракатларини ўтказиш терговчидан процессуал тартибни ва криминалистик тактикасини яхши билишларини талаб қилади.

Йўл-транспорт ҳодисалари деярли ҳамма ҳолларда тўсатдан содир бўладиган воқеадир. Йўл-транспорт ҳодисалари кўкқисдан содир бўлгани учун унинг иштирокчилари ва воқеа шохидлари йўл-транспорт ҳодислари қандай юз берганидан, муайян сабабларидан етарлича хабардор бўлмай, асосан унинг оқибатларига эътибор берадилар. Боз устига кўпчилик шохидлар автотехникага оид билимларга эга бўлмай, воқеа уларни тўсатдан руҳий ҳаяжонга солгани учун аниқ ва тўла кўрсатув беришга ожизлик қиладилар.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 266-моддасида кўрсатилган жиноятлар бўйича суриштирувчи, терговчи ва прокурор бундай жиноят содир этилгани тўғрисида сабаб ва етарли асослар мавжуд бўлган барча ҳолларда Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 321-моддасига асосан жиноят ишини қўзғатиши шарт. Лекин деярли барча ҳолларда бу тоифадаги ишлар бўйича жиноят ишини йўл-транспорт ҳодисаси содир бўлган жойни кўздан кечирган суриштирувчи ёки терговчи томонидан қўзғатилади, прокурор эса,

<sup>59</sup> ЎзР 20.08.1999й 832-И-сон қонуни таҳриридаги санкция

ишни кўзгатиш ёки кўзгатишни рад этишнинг устидан назоратни олиб боради.

Тергов ҳаракати сифатида йўл-транспорт ҳодисаси жойини кўздан кечириш процессуал жиҳатдан ягона, лекин ўзининг ички тузилишига кўра, бир неча босқичга ажртилиши мумкин. Булар:

- 1) ташкилий-тайёргарлик;
- 2) тахлилий-кидирув;
- 3) баён қилиш-тасвирлаш босқичларидир.

Биринчиси, терговчининг йўл-транспорт ҳодясаси содир этилганлигн ҳақидаги ахборотни олгач, воқеа жойига етиб бориб, дарҳол амалга ошириладиган ишларидан иборат бўлади. У бажариши лозим бўлган ишларда процессуал талабларга риоя этилиши, тегишли мутахассислар, холислар таклиф қилиниши, уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тушунтирилиши, кўздан кечириш чегаралари ҳамда объектларини белгиланишининг барчаси йўл-транспорт ҳодисаси содир бўлган жойини кўздан кечиришнинг қонуний ва самарали бўлишини таъминлайди.

Иккинчиси - кўздан кечиришни амалга ошираётган ёки унда иштирок этаётган шахсларнинг кидирув ва тахлилий ишларини ўз ичига олади. Аниқланган, кузатилаётган ёки қонуний йўл билан суриштириб билинган ахборот, маълумотлар, объектлар, жараёнлар ва ҳоказоларни содир бўлган ҳодиса ҳолатларини ҳамда ҳодисанинг оқибатига таъсир кўрсатган омилларни тушуниб етиш мезонлари, уларнинг исботлаш предметига тааллуқлилиги нуқтаи назаридан тахлил қилиш ва олинган ахборотни процессуал жиҳатдан аҳамиятли шаклларга киритиш лозим бўлади.

Ўзбекистон Республикасида адвокатура, адвокатлик фаолияти кафолатлари ҳамда адвокатнинг ижтимоий ҳимояси соҳасида қонунчилик асослари яратилган: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, «Адвокатура тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни (1996 йил 27 декабрда қабул қилинган, унга 2000 йил 15 декабр, 2003 йил 25 апрел, 2005 йил 23 сентябрдаги қонунлар асосида ўзгартиришлар киритилган), «Адвокатлик фаолиятининг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни (1998 йил 25 декабрда қабул қилинган) ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.<sup>60</sup>

Адлия вазирлиги ва Молия вазирлигининг 2008 йил 26 ноябрдаги 8, 109-сон [қарори](#) билан тасдиқланган гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчига адвокатлар томонидан юридик ёрдам кўрсатиш бўйича харажатларни давлат ҳисобига ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низомда белгиланишича<sup>61</sup>

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг [50-моддасига](#), Ўзбекистон Республикасининг «Адвокатура тўғрисида»ги

<sup>60</sup> «Адвокатура тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни (1996 йил 27 декабрь)

<sup>61</sup> Адлия вазирлиги ва Молия вазирлигининг 2008 йил 26 ноябрдаги 109-сон [қарори](#)

Қонунининг [11-моддасига](#) ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Адвокатлар томонидан кўрсатилган юридик ёрдам учун давлат ҳисобидан ҳақ тўлаш механизмини такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида» 2008 йил 20 июндаги 137-сонли [қарорига](#) асосан, гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи адвокатлар томонидан кўрсатилган юридик ёрдам учун ҳаражатлардан озод қилинган ҳолларда юридик ёрдам учун ҳаражатлар давлат ҳисобига ўтказилади.

2. Гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчига адвокат томонидан юридик ёрдам кўрсатиш бўйича ҳаражатларни давлат ҳисобига ўтказиш учун асос бўлиб, юридик ёрдам учун ҳақ тўлашдан озод қилиш тўғрисидаги суриштирувчи, терговчи, прокурорнинг қарори, суднинг ажрими ҳисобланади.

3. Оиласида ҳар бир оила аъзосига тўғри келадиган ялпи ойлик даромад юридик ёрдам кўрсатилганлиги учун ҳақ тўлашдан озод қилиш тўғрисида қарор (ажрим) қабул қилинган кундаги энг кам ойлик иш ҳақининг 1,5 бараваридан ортиқ бўлмаган шахслар адвокатлар томонидан юридик ёрдам кўрсатилганлиги учун гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчининг иш жойидан берилган охирги ўн икки ойлик даромади тўғрисидаги маълумотнома мавжуд бўлган тақдирда, уни илова қилган ҳолда яшаш жойидаги маҳалла, овул, қишлоқ фуқаролар йиғини ёки фуқаролар йиғини томонидан ваколатланган комиссия томонидан берилган хулосага асосан ҳақ тўлашдан озод қилинади ва ҳаражатлар давлат ҳисобига ўтказилади.

4. Гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчи ҳимоячидан воз кечиши билан боғлиқ процессуал ҳаракатда адвокат иштирок этиши ҳолларида, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси 52-моддасининг [иккинчи қисмига](#) мувофиқ жиноят ишида ҳимоячининг қатнашиши мажбурий деб ҳисобланган ҳолларда ҳам юридик ёрдам учун ҳақ тўлаш бўйича ҳаражатлар давлат ҳисобига ўтказилади.

5. Адвокатлар томонидан юридик ёрдам кўрсатилганлиги учун адвокатлик тузилмаси тегишли молия органига мурожаат қилгандан кейин ўттиз кундан кечикмай Молия вазирлигининг қарор (ажрим) чиқарган орган жойлашган жойдаги Ғазначилиги ҳудудий бўлинмаси орқали Давлат бюджетининг ҳаражатлари параметрларида назарда тутилган маблағлар ҳисобидан ҳақ тўланиши тасдиқланган шакл бўйича кўрсатилган юридик ёрдам тўғрисидаги маълумотномага асосан амалга оширилади.

Тараққиётнинг шиддат билан ривожланиб бориши, ўз навбатида ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг ўзгариб бориши ва янги турлари пайдо бўлишига олиб келади. Кейинги вақтларда минтақамизда транспорт воситалари оқимининг кескин кўпайиши утрли хилдаги транспорт воситаларида содир етиладиан жиноятларнинг ошиб боришида катта омил бўлиб келмоқда. Шунингдек фуқароларнинг транспорт соҳаси бўйича билимларининг пастлиги ва маълум бир малакага эга эмаслиги, йўл қоидаларини тўлиқ билмаслиги, пиёдаларнинг йўл ҳаракати қоидаларига

амал қилмаслиги, менсимаслиги, пиёдаларнинг белгиланмаган жойлардан кесиб ўтиши ёки хайдовчиларнинг пиёдаларга ва ўзаро хурмат қилмаслиги натижасида йўл-транспорт ҳодисалари содир этилишига сабаб бўлади.

Ўзбекистон Республикасида 2022 йилнинг январь-июнь ойининг ўзида расман 3559 та ЙТХ рўйхатга олинди. 2021 йилнинг мос даврида — 3753 та қайд этилганди, бу 2022 йилда йўл транспорт ҳодисалари 194 тага ёки 5,2 фоизга кам дегани. Аварияларда 2775 киши жароҳат олди (2842, -67, -2,4%), 784 киши эса вафот этди (911, -127, -13,9%).

22,9 фоиз ёки 818 та ЙТХга белгиланган тезликка риоя қилмаслик сабаб бўлган. 254 та ҳолатда (7,1%) — хайдовчининг тажрибасизлиги, 182 тасида (5,1%) — оралиқ масофани сақламаслик, 133 тасида (3,7%) — пиёдага йўл бермаслик, 105 тасида (2,9%) — светофор ёки йўл белгисига риоя қилмаслик, 101 тасида (2,8%) — қувиб ўтиш қоидаларини бузиш, 35 тасида (1%) — маст ҳолда транспорт воситасини бошқариш, 313 та ҳолатда эса (8,7%) — бошқа сабаблар оқибатида авариялар содир бўлган.

ЙТХларнинг 1618 таси (45,5%) эса объектив сабабларига кўра келиб чиққан. Бу пиёдалар ўтиш жойи ташкил қилинмаганлиги — 11% (393), велойўлаклар йўқлиги — 8,3% (298), йўлни ажратувчи тўсиқлар ўрнатилмаганлиги — 8,1% (289), йўллар ёритилмаганлиги — 5,2% (186), йўл хўл ёки музлама бўлганлиги — 1,9% (68). Хизмат шунингдек, шу турдаги сабабларга пиёдалар ҳаракатини чекловчи тўсиқлар (панжара) ўрнатилмаганлиги — 4,6% (167), тор йўлларнинг ўтказувчанлиги транспорт оқимига мослаштирилмаганлиги — 4,3% (155), ерости ва ерусти пиёдалар ўтиш жойи ташкил этилмаганлигини — 1,7% (62) ҳам киритган.

Аварияларнинг катта қисми енгил автомобиллари иштирокида содир бўлган — 84% (2990 та). 10,4 фоиз аварияларда (373 та) юк машиналари, 10,3 фоизда (372) — велосипедчилар ва 1,3 фоизда (47) — автобуслар катнашган.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т. –2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. –Т. –2017.
3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят Процессуал кодекси –Т.
4. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси–Т. –2011.
5. Жиноят ҳуқуқи дарслиги. А. Якубов, Р.Қобулов, З. Зарипов ва бошқалар. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси –Т. – 2016.
6. Рустамбоев М. Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. – Т. – 2016.
7. Рустамбоев М. Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. – Т. – 2016.
8. Рустамбоев М.Х. , Ахраров Б.Д. бошқарув тартибига қарши жиноятларни квалификация қилиш: ўқув қўлланма. –Т.2007.

9. Хожиев Э. Давлат бошқаруви. –Т. – 2006.
10. Кирминалистика олий ўқув юртлар учун дарслик муаллифлар  
Ғ.Абдумажидов ва бошқалар. – Т.–2003. 2 ж.
11. Алимова Р. А , Норбоев А жиноят ишени тергов қилиш усуллари ўқув  
қўлланма. – Т- ТЮИ нашриёти.–2007.– Б.62
12. Жиноят процесси махсус қисм дарслиги . юридик фанлар номзоди  
Ғ.Иноғомжоновни умуий таҳрири остида.  
– Т-ТДЮИ. – 2003.– Б. 380
13. Жиноят процесси умуий қисм. Юридик институт талабалари учун  
дарслик доцент Ғ Иноғомжоновнинг умуий таҳрири остида.– Т. Янги  
аср авлоди.– 2002. –Б. 382
14. Кирминалистик тактика дарслик юридик фанлар доктори  
У.Таджихоновнинг умуий таҳрири остида. – Т. Ўзбекистон  
Республикаси ИИВ Академияси.– 1996. –Б.214
15. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодексига шарҳлар маъсул  
муҳарир проф. Ғ.Абдумажидов. – ТДЮИ нашриёти.– 2009. –Б.950
16. Рижакон.А.П.Комментарий Уголовно процессуалному кодексу Российской  
Федерации. 2.е. изд.изм.идоп. М.Издотества. – 2002 .
17. Омелченко.С.С. Уголовно провавая оценко и оскробления  
–М. – 2001.
18. Гражданского кодексу Российской Федерации. – М. –2005.
19. Муродов.Б.Б. Даствлабки терговда жиноят ишени тугатиш масалалари  
юрдик фанлар номзоди, доцент, автореферат –Т. Ўзбекистон  
Республикаси ИИВ Академияси. – 2008.–Б.24.
20. Тергов процессуал хужжат намуналари Ш.Т.Икрамовнинг умуий  
таҳрири остида ИИВ Академияси -Т. –2012.
21. Влахин.В.А., Николайчик.В.М. определение преступлений,  
относящихся к коррупции, по американскому законодательству (обзор  
нормотивних актов и литературы) // Проблемы борьбы с коррупцией. –М.  
– 1999. –Б.160-185
22. Пироженов Сергей Александрович, 2005, 12.00.09 — Уголовный  
процесс, криминалистика и судебная экспертиза; оперативно-розыскная  
деятельность

## АЙРИМ ШАХСЛАРНИНГ МУРОЖААТЛАРИНИ КЎРИБ ЧИҚИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Кучкаров Жахонгирбек Улугбек ўгли  
Тошкент давлат юридик университети  
Магистратура босқичи талабаси*

**Аннотация.** Ушбу мақолада фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилувчи асосий институлардан бири – мурожаат институти, мурожаатнинг айрим турларини кўриб чиқиш процедураси, унинг ўзига хос хусусиятлари тадқиқ қилинади.

**Калит сўзлар:** мурожаат, вояга етмаган шахс, васий, ҳомий, қамокда турган шахс.

Мурожаат этиш ҳуқуқи асосий конституциявий ҳуқуқлардан бири ҳисобланади. Ушбу ҳуқуқ билан фуқаролар ўз ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилади ҳамда уларнинг бузилган ҳуқуқларини тиклашда мурожаат асосий воситалардан бири ҳисобланади. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конститутциясининг 40-моддасига кўра, ҳар ким бевосита ўзи ва бошқалар билан биргаликда давлат органларига ҳамда ташкилотларига, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига, мансабдор шахсларга ёки халқ вакилларига аризалар, таклифлар ва шикоятлар билан мурожаат қилиш ҳуқуқига эга.

Мурожаатларни бериш, уларни кўриб чиқиш процедураси Ўзбекистон Республикаси “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни билан тартибга солинади. Бироқ, қонунчиликда айрим мурожаатларнинг кўриб чиқишнинг ўзига хос хусусиятлари белгилаб ўтилган. Қуйида ушбу нормаларнинг айримларини таҳлил қилиб чиқамиз.

Улардан биринчиси, вояга етмаган шахсларнинг мурожаатларидир. “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуннинг 241-моддасида вояга етмаган шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқишнинг ўзига хос хусусиятлари белгиланган. Унга кўра, вояга етмаган шахслар ўз ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этилиши масалалари юзасидан давлат органларига, ташкилотларга ёки уларнинг мансабдор шахсларига белгиланган тартибда мустақил равишда мурожаат беришга ҳақли. Давлат органлари, ташкилотлар ёки уларнинг мансабдор шахслари томонидан вояга етмаган шахснинг мурожаатларини кўриб чиқиш унинг қонуний вакиллари, шунингдек васийлик ва ҳомийлик органлари иштирокида амалга оширилиши мумкин. Вояга етмаган шахслар тўлиқ муомала лаёқатига эга бўлмаганлиги сабабли уларнинг мурожаатларини кўриб чиқмасдан қолдиришга йўл қўйилмайди. Бундай ҳолатда вояга етмаганларнинг мурожаатлари аноним деб топилиши ҳамда мурожаатларга илова қилинган ҳужжатлар мавжуд бўлмаганлиги сабабли кўрмасдан қолдирилмайди. Ушбу мурожаатлар давлат органи ёки мансабдор



шахс томонидан кўриб чиқилиши ёки тегишлилик бўйича бошқа органга юборилиши лозим.

Мурожаатда қўйилган масалаларни ҳал этиш ўз ваколатига кирмайдиган давлат органлари, ташкилотлар, шунингдек уларнинг мансабдор шахслари мурожаатни тегишли давлат органига, бошқа ташкилотга ёки мансабдор шахсга ёхуд васийлик ва ҳомийлик органига юбориши шарт. Бундан ташқари, “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги Қонуннинг 12-моддасига кўра, васийлик ва ҳомийлик органлари ўз вакиллигидаги вояга етмаган шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича мурожаатлар бериш ҳуқуқига эгаллиги белгиланган. Ушбу мурожаатлар ҳам вояга етмаганларнинг мурожаатларига тенглаштирилади.

Иккинчидан, тадбиркорлик субъектларининг мурожаатларининг кўриб чиқишнинг алоҳида тартиби белгиланган. “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуннинг 31-моддасига кўра, Тадбиркорлик фаолияти субъектлари давлат органларига ёки хўжалик бошқаруви органларига аризалар, таклифлар ва шикоятлар билан мурожаат этиш ҳуқуқига эга. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг аризалари, таклифлари ва шикоятлари уларда қўйилган масалаларни ҳал этишга ваколатли бўлган давлат органига ёки хўжалик бошқаруви органига бевосита ёхуд бўйсунув тартибида юқори турувчи органга берилди.

Мурожаатларда юридик шахс бўлган тадбиркорлик субъектининг тўлиқ фирма номи, жойлашган ери (почта манзили) ёки жисмоний шахс бўлган тадбиркорлик субъектининг фамилияси, исми, отасининг исми, яшаш жойи (манзили) кўрсатилиши, шунингдек аризининг, таклифнинг ёки шикоятнинг моҳияти баён этилиши керак. Ёзма мурожаатлар юридик шахс бўлган тадбиркорлик субъекти ваколатли шахсининг имзоси билан ёки жисмоний шахс бўлган тадбиркорлик субъектининг имзоси билан тасдиқланган бўлиши керак. Тадбиркорлик субъектларининг электрон шаклда тақдим этилган мурожаатлари тадбиркорлик субъектининг электрон рақамли имзоси билан тасдиқланади.

Тадбиркорлик субъектларининг мурожаатлари албатта қабул қилиниши ва кўриб чиқилиши керак. Ушбу мурожаатларни ҳужжатлар етишмаслиги важи билан кўрмасдан қолдириш ёки мазмунан такрорланганлиги муносабати билан тугатиш мумкин эмас. Ушбу мурожаатлар кўриб чиқилиши ва тадбиркорлик субъектларига мурожаат бўйича қонуний жавоб берилиши лозим.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг таклифлари давлат органига ёки хўжалик бошқаруви органига келиб тушган кундан эътиборан бир ойгача бўлган муддатда кўриб чиқилади, қўшимча ўрганишни талаб этадиган таклифлар бундан мустасно бўлиб, бу ҳақда таклиф киритган тадбиркорлик фаолияти субъектига ўн кунлик муддат ичида маълум қилинади. Аризалар ёки шикоятлар масалани моҳиятига кўра ҳал этиши шарт бўлган давлат органига ёки хўжалик бошқаруви органига келиб тушган кундан эътиборан

бир ойгача бўлган муддатда, кўшимча ўрганишни ва текширишни талаб этмайдиганлари эса, ўн беш кундан кечиктирмай кўриб чиқилади.

Аризани ёки шикоятни кўриб чиқиш учун текшириш ўтказиш, кўшимча материалларни талаб қилиб олиш ёхуд бошқа чора-тадбирлар кўриш зарур бўлган ҳолларда, аризани ёки шикоятни кўриб чиқиш муддатлари тегишли давлат органи ёки хўжалик бошқаруви органи раҳбари томонидан истисно тариқасида кўпи билан бир ойга узайтирилиши мумкин бўлиб, бу ҳақда ариза ёки шикоят берган тадбиркорлик фаолияти субъектига маълум қилинади. Ушбу муддатлар мурожаатларни кўриб чиқишнинг умумий муддатлари билан бир хил ҳисобланиб, алоҳида хусусиятга эга эмас. Бироқ, ҳар бир давлат органида тадбиркорлик субъектларининг мурожаатларини қабул қилувчи алоҳида тизим яратилиши мажбурий ҳисобланади. Хусусан, 31-модданинг 6-қисмига кўра, давлат органлари ва хўжалик бошқаруви органлари томонидан Интернет жаҳон ахборот тармоғида тадбиркорлик субъектларига давлат органларининг ёки хўжалик бошқаруви органларининг ғайриқонуний қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ғайриқонуний ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан шикоят бериш имкониятини берувчи доимий равишда янгилаб бориладиган саҳифа яратилиши белгиланган. Қонунчиликда бошқа субъектларнинг мурожаатларини қабул қилувчи тизим яратиш талаби учрамайди.

Учинчи кўриб чиқилишида алоҳида қоидалар белгиланган мурожаатлар бу – ушлаб турилган ва қамоққа олинган, маъмурий қамоққа олинган ва озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган шахсларнинг мурожаатлари ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси “Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) тўғрисида”ги Қонуннинг 141-моддасига кўра, Ушлаб турилган ва қамоққа олинган, маъмурий қамоққа олинган ва озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган шахслар ёзма шаклдаги мурожаатларни (хатлар ва телеграммаларни) уларнинг сони чекланмаган ҳолда Вакилнинг номига юбориш ҳуқуқига эга. Вакил номига юбориладиган мурожаатлар цензура қилинмайди. Жиноят ижроия кодексининг 79-моддасига кўра, маҳкумларнинг хатлари ва бошқа жўнатмалари цензурадан ўтказилиши белгиланган. Бироқ, Омбудсманга юбориладиган хатлар истисно ҳолат ҳисобланади. Бу маҳкумлар томонидан жазони ижро этиш муассасаларида уларнинг ҳуқуқлари бузилаётганлиги ҳақида огоҳлантириш ҳамда ўз ҳуқуқларини ҳимоя қила олиш имкониятини беради.

Жазони ижро этиш муассасаларининг, қамоқда сақлаш жойларининг ва махсус қабулхоналарнинг маъмурияти қамоқда турган шахсларнинг мурожаатларини Вакилга йигирма тўрт соатдан кечиктирмай, муҳрланган тарзда юборади, телеграммаларни эса дарҳол юборади. Вакилнинг жавоби кўздан кечирилиши мумкин эмас, яъни жавоблар ҳам цензурадан ўтказилмайди ва арз қилувчига зудлик билан етказиб берилади. Бундан ташқари, ушбу мурожаатларни назорат қилувчи махсус давлат органи қонун

билан белгиланган. “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуннинг 32-моддасига кўра, прокуратура органлари ушлаб турилган, қамоққа олинган, озодликдан маҳрум этилган ҳамда жиноят-ҳуқуқий таъсирнинг бошқа чораларига тортилган шахсларнинг жазони ижро этувчи орган ёки муассаса маъмуриятига, бошқа давлат органларига, жамоат бирлашмаларига, мансабдор шахсларга шикоят ҳамда аризалар билан мурожаат қилиш ҳуқуқлари тўғрисидаги қонун талабларига риоя этилиши устидан назоратни амалга оширади.

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, мурожаат қилиш ҳуқуқи фуқароларнинг ўз ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилувчи восита ҳисобланади. Ўзбекистон қонунчилигида айрим субъектларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш ва уларни назорат қилиш тартиби алоҳида белгиланган бўлиб, ушбу алоҳида қоидалар ушбу субъектларнинг ўз конституциявий ҳуқуқларидан тўлиқ ва ноқонуний аралашувларсиз фойдаланишларига ва бу орқали ўз бузилган ҳуқуқларини қайта тиклашларига имкон беради.

#### **Фойдаланилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси
2. Ўзбекистон Республикаси “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни
3. Ўзбекистон Республикаси “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги Қонуни
4. Ўзбекистон Республикаси “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни
5. Ўзбекистон Республикаси “Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) тўғрисида”ги Қонуни
6. Ўзбекистон Республикаси “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуни
7. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ижроия кодекси

**KIBER JINOYATCHILIKNING RIVOJLANISHIDA HUQUQIY ONG VA  
MADANIYATNING TA'SIRINI ANIQLASH MASALALARI.  
KIBERXAVFSIZLIK. MUAMMO VA YECHIMLAR.**

*Baxtiyojon Mirzaolimov*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Kiber huquq fakulteti magistiri*  
[mirzaolimovbaxtiyorjon@gmail.com](mailto:mirzaolimovbaxtiyorjon@gmail.com)  
99 690 65 12

**Anotatsiya.** Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda kiberjinoyatlarning soni va turlari kundan kunga ko'payib, turli xil muammolarga, shuningdek ba'zi hollarda esa aholi orasida o'zlarining shaxsiyati va mol-mulki kiber jinoyat obyektiga aylanib qolishidan qo'rquv paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida O'zbekistonda kiberjinoyatlar, hozirgi muammolar va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, kiber jinoyatchilikning turlari, ularning alomatlari, ular aholining qaysi qatlami orasida ko'proq sodir bo'layotgani, ulardan qanday himoyalani zarurligi, kiber jinoyatchilikka qarshi aholining barcha qatlami orasida huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish, ya'ni fuqarolarga kiber jinoyatchilikning tashqi belgilari va ulardan qanday birlamchi himoyalani mumkinligi haqida ma'lumotlarni yetkazish orqali imunitet hosil qilish masalalari tahlil qilingan. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun chet davlatlari tajribalari, hozirgi kunda sodir etilayotgan kiber jinoyatchiliklarning tahlili, sodir etilgan kiber jinoyatlarga keltirilgan misollar va tahlil natijasida ularning eng ma'qulini aniqlash bo'yicha ish amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli huquq, ijtimoiy tarmoqlarda etika, axloqiy ong, globallashuv, ommaviy madaniyat, axloq ijtimoiy ong, internet.

**Annotation.** As we all know, today the number and types of cybercrimes are increasing day by day, causing various problems, and in some cases, fear among the population that their identity and property will become the object of cybercrime. is happening In this master's thesis, the types of cybercrime, their symptoms, among which strata of the population they occur more often, how to protect against them, the development of legal awareness and culture among all strata of the population against cybercrime, that is, external signs of cybercrime to citizens and the issues of creating immunity by providing information on how to protect themselves from them were analyzed. In order to carry out this analysis, the experience of foreign countries, the analysis of cyber crimes committed at present, the examples of cyber crimes committed and the analysis of the best ones were carried out.

**Key words:** digital law, ethics in social networks, moral consciousness, globalization, mass culture, moral social consciousness, Internet.

**Kirish.** Kiber jinoyatchilik bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning ko'plab davlatlarida rivojlanib, uning kundan kunga yangidan yangi

turlari paydo bo'lib, ushbu jinoyatchilikning sodir etish soni ham oshib bormoqda. Shu tufayli shaxsan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham yurtimizda kiber jinoyatchilikning oshib borayotgani, undan aholining barcha qatlamlari, ziyolilardan tortib, oddiy aholigacha uning jabrlanuvchilariga aylanib qolayotgani, buni oldini olish, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash va kerakli choralarni ko'rish haqida turli xil video selektor orqali o'tkazilgan, yurtimizning barcha hududini qamrab olgan yig'ilishlarda va o'zining maruzlalarida ham to'xtalib o'tdi. Buning isboti sifatida, joriy yilning 15-aprel sanasida "Kiberxavfsilik to'g'risida" gi qonunning qabul qilinganligini keltirish mumkin. Qonunga ko'ra, kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish davlatning kiberxavfsizligini ta'minlashda ustuvor hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik Xizmatining bu boradagi olib borayotgan salmoqli faoliyati hamda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to'g'risida" Qonunining qabul qilinishi ushbu yo'nalishni yurtimizda rivojlantirish va kiberxavfsizlik masalalarida yanada keng ko'lamda tatbiq qilishning asosiy yo'nalish va o'ziga xos jihatlarni belgilab berdi.

Asosiy qism: Yana shuni takidlash lozimki, Internet vositalaridan o'rin olgan jamiki axborot va ma'lumotlarning hammasi ham real haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo'lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish joizki, olinayotgan dalillarning qay darajada to'g'riligini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir. Shuni unutmazlik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. O'tgan yillar davomida o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy yuksalishi, axborotga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish, axborot erkinligini ta'minlash maqsadida zarur texnologik sharoitlar va huquqiy kafolatlar yaratildi. Har kimning fikrlash va so'z erkinligi, o'zi istagan axborotni izlashi, olishi, uni tarqatish borasidagi konstitutsiyaviy normalar milliy qonunlarimizda rivojlantirildi. Shuningdek, xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratilishini e'tirof etuvchi normalar qonunlarimizda o'z aksini topdi. Xususan, bugungi kunda axborot sohasida ommaviy axborot vositalari, shundan televideniya, Internet-kafelar, Internet provayder, davlat axborot resurslari, "ZiyoNET" yoshlar axborot portali va axborot-kutubxona muassasalari faoliyat yuritmoqda Bularning barchasi fuqarolarimiz, xususan, yoshlarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqining ifodasidir. Global axborot makoniga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, hozirda keng jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida nosog'lom manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta'siridagi agressiv axborotlarning (o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar, kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlik, o'ta jangari ruhdagi (beshafqat urushlar, o'ldirishlar, otishmalar, portlatishlar va hokazo) Internet saytlar mavjudligi), milliy axborot makonimizga

kirib kelishidir. Axborot sohasi liberallashtirilgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda) o'zlarining g'arazli manfaatlarini yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini ko'rsatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagani yoshlarni chalg'itish, ularning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlarini kuchaytirayotgani sir emas. Nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Jumladan, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to'g'risida" Konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida" Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" BMT Konvensiyasini, "Yoshlarni himoyalash to'g'risida" Germaniya, "Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida" gi, Litva "Bolalarni sog'ligi va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida" gi Rossiya qonunlarini tilga olishimiz mumkin. Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan. Axborot makonining globallasuvi jarayonida yoshlarning ma'naviyaxloqiy tarbiyasini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks choratadbirlar rejasini ishlab chiqish, buni amalga oshirishda jamiyatimizning keng qatlamlari: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ot-onalar va pedagoglarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq. Internet ta'lim olish, dam olish yoki do'stlar bilan muloqot qildishning ajoyib va foydalasi vositasi bo'lishi mumkin. Ammo hayotga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, tarmoq o'z o'rnida xavfdan ham xoli emas: uning ham o'ziga xso bezoriligi, jinoiy olami, zarari va nomaqbullik tomonlari mavjud. Virtual muloqot insonlarga bolalarga zarar keltiruvchi manba bo'lib qolishi ham hech gap emas. Oxirgi paytlarda Internetda ko'pgina tajovuzkor va ijtimoiy xavfli materiallar paydo bo'lib qolmoqda. Bugun dunyoning bir nuqtasida sodir bo'lgan voqea, yangilik xususida yetarli axborot olishimiz uchun atigi bir necha soniya kifoya. Monitor qarshisida sichqonchasimon moslamani boshqarib, istalgan mavzuda istalgan axborotni olish mumkin. Internet bir necha o'n yil ichida global tarmoqqa aylanib, nainki

axborotlashgan jamiyatni yuzaga keltirdi, balki jahonda globallashtirish jarayonining tezlashishida ham muhim omil bo'ldi.

Natijalar va muxokamalar: Internet – insoniyat tafakkuri mahsuli. Ish stolimizda turgan kompyuterga shunchaki elektron qurilma sifatida qaray olmaymiz. Internet axborot olish, almashish va uzatishning eng samarali, qulay vositasidir. Uning multimediyaga (tasvir, ovoz, matn) xizmati va boshqa qator qulayliklari insoniyatni virtual olamga ohanrabodek tortmoqda. Lekin masalaning ikkinchi, g'oyat e'tibor talab jihati ham bor. Ba'zi mamlakatlarda virtual olamga g'arq bo'lish oqibatida o'zining yoxud o'zgalarning joniga qasd qilish odatiy holga aylanayotgani ham sir emas. Yoki qator davlatlarda real hayotni virtual hayotga almashtirgan, ruhiy nosog'lom bemorlarni davolashga ixtisoslashgan shifoxonalar tashkil etilayotganini ham hech kim inkor etolmaydi. Ilmiy saytga kirib, kerakli manbani o'qib turgan paytingizda asosan tanishuv yoki pornografik saytlar reklamasi ekranda paydo bo'ladi. Ruhiy boshqarish quvvatiga ega bu reklamalarga e'tibor qaratish, ortiqcha informatsiyalar ortidan quvish inson resurslarini behuda sarflash demakdir. Ayrim kompyuter o'yinlari inson ruhiyatida sadizmga moyillikni uyg'otadi. Bularning oldini olish uchun bolalarni, yoshlarni internetdan chetlashtirib qo'ya olmaymiz, albatta. Bu davr talabi, zamondan orqada qolib bo'lmaydi. Eng to'g'ri yo'l, nazarimda, o'quvchilarimizga virtual olamda nima yaxshi-yu, nima yomonligini o'rgatishimiz, ularda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz kerak. Bunda asosiy mas'uliyat ota-ona, o'qituvchi-pedagoglar zimmasiga tushadi. Internet tarmog'i orqali "Ommaviy madaniyat" kabi engil-elpi hayotga targ'ib etuvchi, shaxs egaizmini targ'ib etuvchi filmlar, musiqa va kliplar yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Global axborot makoniga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, hozirda keng jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida nosog'lom manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta'siridagi agressiv axborotlarning (o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar, kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlik, o'ta jangari ruhdagi beshafqat urushlar, o'ldirishlar, otishmalar, portlatishlar va hokazo Internet saytlar mavjudligi, va ularning milliy axborot makonimizga kirib kelishidir. Demak, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlardan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish madaniyati deganda, yuqorida keltirilgan salbiy holatlar va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik tushuniladi. Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xattiharakatlar man etilishi", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadriyatini taqqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquq buzarlilar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan

foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi” belgilab berilgan. Masalan, siz ijtimoiy tarmoqdan foydalanish tartibini yaxshi tushunmasdan, faqat do`stimga yuboryapman, degan ishonch bilan ayrim shaxsiy surat yoki ma`lumotlarni hamma ko`radigan joyga joyladingiz. Yoki hech kimga ko`rinmaydi, deb o`ylab, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim saytlarga qo`yilgan shubhali havolalar ustiga bosdingiz; bilmasdan uni o`z sahifangizda baham ko`rdingiz yoki ehtiyotsizlik bilan shubhali saytni ochganingiz uchun sizning roziligingizsiz bu sayt haqidagi ma`lumotlar hammaga ko`rinadigan sahifangizda paydo bo`lib qoldi. Shaxsiy hayotingizga taalluqli bo`lgan bunday ma`lumotlarning boshqalarga oshkor bo`lishi sizning obro`ingizga putur yetkazishi yoki siz haqingizda boshqalarda salbiy tasavvur hosil bo`lishiga olib kelishi mumkin. Bu ma`naviy zarar hisoblanadi. Bundan tashqari, bu kabi ehtiyotsizlik natijasida sizning nomingiz bilan turli taqiqlangan saytlarga tashrif buyurishlari mumkin. Virus va zararli dasturlar hujumidan saqlanish uchun, odatda, maxsus himoya dasturlaridan foydalaniladi. Ammo bu kabi tahdidlarga qarshi eng yaxshi himoya vositasi – internet gigienasiga rioya qilishdir. Ya`ni, internetdan to`g`ri foydalanish qoidalarini bilsangiz va shubhali manbalarni ishonchli saytlardan farqlay olsangiz hamda ularga duch kelganda nima qilish lozimligini bilsangiz, kiber xurujlar qurboni bo`lishingiz ehtimoli juda kam. Misol uchun, Phishing – Bunday tahdid turi email orqali keladigan eng katta xavflardan biri bo`lib, odamlarning shaxsiy ma`lumotini o`g`irlashga qaratilgan bo`ladi. “Phishing” maktublar sizga tanish bo`lgan tashkilot yoki muassasa nomidan yuborilgandek tasavvur uyg`otadi. Masalan, siz biror bank yoki moliyaviy tashkilot bilan ishlayotgan bo`lsangiz, sizga shu bank nomidan maktub yozib, shaxsiy bank ma`lumotlaringizni so`rashlari yoki havola orqali saytlariga kirib qo`shimcha ma`lumot berish yoki olishni iltimos qilishlari mumkin. Agar maktubdagi havolaga bossangiz, kompyuteringizga ma`lumot o`g`irlovchi zararli dastur o`rnatilishi hech gap emas. Bunday maktublarning professional tarzda yozilishi, ularda haqiqiy tashkilotlarning logo rasmlari va jismoniy manzillari qo`yilgani sizni aldab qo`ymasligi kerak. Agar sayt <http://> belgisi bilan boshlangan bo`lsa, saytning shubhali ekani ehtimoli yanada oshadi. Ishonchli va katta saytlarning deyarli barchasi hozir <https://> protokoli bilan ochiladi. [https](https://) belgisi saytning xavfsizlik sertifikatiga ega ekanini bildiradi. Internetdan bo`ladigan yangi tahdidlarga qarshi muhim himoya vositalariga ega bo`lish uchun operatsion tizimdagi yangilanishlarni (update) o`z vaqtida ko`chirib olib, tizimni yangilab boring. Shubhali narsalarni, dasturlarni aslo kompyuter/noutbukingizga ko`chirib olmang va ularni o`rnatmang. Ular ma`lumot o`g`irlovchi yoki kompyuteringizni buzuvchi zararli dasturlar yoki viruslar bo`lishi mumkin. Antivirus dasturlari o`rnatilgan taqdirda ham, ayrim viruslar o`tib ketishi mumkin. Ishlatmayotgan paytingiz kompyuter yoki noutbukingizni o`chirib qo`yishga odatlaning. Birovlarning diski yoki USB-drive xotira fleshkalarini kompyuter/noutbukingizga ulashda ehtiyot bo`ling. Ular virus bilan zararlangan bo`lishi mumkin. Agar bitta kompyuterni birdan ortiq odam ishlatsa, har bir foydalanuvchi uchun alohida profil (account)



oching. Kompyuterdagi ma'lumotlarni har doim saqlab (backup) qo'ying. Ularni alohida xotira disklarida yoki onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib qo'yishingiz mumkin. Google Drive va Dropbox kabi ma'lumot saqlash xizmatini taqdim etuvchi saytlarda bepul 15-20 Gigabaytgacha joy olishingiz mumkin. Mobil qurilmalarni himoyalash yo'llari: Yangi avlod vakillari borgan sari internetga, asosan, mobil qurilmalar orqali kirishga odatlanmoqda. Kompyuterlar orqali bajariladigan barcha ishlarni, masalan, savdo qilish, bank xizmatlaridan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarga kirish kabi faoliyatlarning barchasini hozir maxsus dastur-illovalar yordamida telefon yoki planshet orqali amalga oshirish mumkin. Sunday ekan, ularni ham himoyalashga ehtiyoj borgan sari oshib bormoqda. Quyida mobil qurilmalarni qanday himoya qilish bo'yicha ayrim maslahatlarni beramiz. Telefon yoki planshetingiz ekranini doim parol bilan qulflashga odatlaning. Parolingiz murakkab bo'lishiga diqqat qarating. Ishlatmayotgan paytingiz, qurilma ekрани avtomatik qulflanadigan bo'lsin. Telefoningizni boshqalarga bermang. Undagi ma'lumotlarni kompyuterga yoki onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib boring. Masalan, Apple mobil qurilmalarida iCloud xizmati orqali ma'lumotlaringizni onlayn serverlarga ko'chirib o'tkazish va ularni maxsus kodlar yordamida shifrlab qo'yish (encryption) mumkin. Andoid tizimidagi telefon egalari esa Google Drive yoki boshqa axborot saqlovchi xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Nozik va shaxsiy ma'lumotlar mavjud sms-xatlari yoki elektron maktublarni telefoningizda saqlamang. Ularni o'chirib tashlang. Bunday xat yuborganlarni bloklab qo'yishingiz ham mumkin. Shubhali bo'lgan dastur-illovalarni ko'chirib olmang. Shubhali saytlarga kirmang. Telegram, Whatsapp kabi dasturlardan yoki Facebook, Odnoklassniki kabi ijtimoiy tarmoqlardan ro'yxatdan o'tishda faqat o'z telefon raqamingizdan foydalaning. Chunki boshqa birovning raqamidan foydalansangiz, ular shu raqam orqali sizning parolingizni qo'lga kiritishi yoki siz bexabar bu dastur va tarmoqlardagi sizning profilingizga kirib, faoliyatingizni kuzatishi mumkin.

**Xulosa.** Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik borasida ham muammolar kamaygani yo'q. Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma'naviy-ruhiy ko'magiga muhtoj. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero, yoshlar ma'naviyatiga daxldor yumushlarda beparvolikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma'naviy-ruhiy ko'magiga muhtoj. Biz

oʻsib kelayotgan yosh avlodning media savodxonligi va Internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirishimiz lozim.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. A.Abduqodirov “Axborot texnologiyalari” Toshkent 2003 yil
2. “Ziyonet” axborot taʼlim portal.
3. Multimediya.uz sayti
4. Avast! Free Antivirus: <https://www.avast.com/>
5. AVG Antivirus: <http://www.avg.com/affiliate/ww-en/free-antivirusdownloa>

## O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHGA DOIR XALQARO STANDART HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA DAVLATLARNING MANFAATLI HAMKORLIGI

*Umarov Faxriddin Dilshodjon o'g'li*  
*Ichki ishlar vazirligi leytenant*

**Annotatsiya.** Kiberjinoyatlar bilan kurashishga doir xalqaro standartlar va davlatlarning hamkorligi kiberxavfsizlik sohasidagi muammolarni hal qilishda juda muhimdir. O'zbekistonda ham davlat va xalqaro tashkilotlar kiberxavfsizlikning o'rnatilishiga va kiberjinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladilar.

**Kalit so'zlar:** Kiberjinoyatlar, standartlar, maxfiylik sozlamalari, xalqaro standartlarni joriy qilish, kooperatsiya;

Xalqaro standartlar: Xalqaro tashkilotlar, masalan, ITU (International Telecommunication Union) va ONU (O'zbekiston) kabi tashkilotlar o'rtasida kiberxavfsizlik sohasida hamkorlik amalga oshirishadi. Ular standartlarni yaratish, ma'lumot almashish va qo'llash, kiberjinoyatlar bilan kurashish, ma'lumotlarni himoya qilish va tashkilotlar orasidagi hamkorlikni ta'minlash uchun yo'l harakatlarini ko'rsatadi.

Davlatlarning manfaatli hamkorligi: Davlatlar, kiberxavfsizlik sohasida hamkorlikni mustahkamlash va kiberjinoyatlarni oldini olishda bir-biriga yordam berishadi. O'zbekistonda Respublika Kiberxavfsizlik markazi (CERT.uz) kabi tashkilotlar kiberjinoyatlar va ularning oldini olish sohasida davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishadi. Bu tashkilotlar o'rtasida ma'lumot almashish, maxfiylik sozlamalari, kiberjinoyat va yo'l qo'ymaslikni aniqlash, ma'lumotlarni himoya qilish va boshqa xizmatlarni taqsimlashni o'z ichiga olgan kooperatsiya va shirikliklarni rivojlantirish mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekistonda kiberxavfsizlik sohasidagi tadbirlar, kiberjinoyatlar bilan kurashish va o'z resurslarini ta'lim, ilmiy tadqiqot va amaliyot sohasida rivojlantirish uchun tashkilotlar orqali davlatning o'zining kiberxavfsizlik strategiyalarini amalga oshiradi.

Barcha bu faoliyatlar bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: xalqaro standartlarni joriy qilish, ma'lumot almashish, ma'lumotlar bazalarini himoya qilish, kiberjinoyatlarni oldini olish va maxfiylik sozlamalarini ta'minlash, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan kiberxavfsizlik sohasida hamkorlikni rivojlantirish. Bu hamkorliklar, kiberxavfsizlikning o'rnatilishi va davlatlar orasidagi kooperatsiyani mustahkamlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, ko'rishimiz mumkinki butun dunyo ushbu turdagi jinoyatlarga kurashayotgan bir davrda MDH mamlakatlari ham bundan chetda turmadi. 2018 yil 28 sentabr kiberjinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilish masalasini tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan hujjatlardan biri hisoblanmish Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha Bitim imzolandi. Ozarbayjon

Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Moldova Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Ukraina ushbu Bitim qatnashchilaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.02.2019 yildagi PQ-4188-sonli qarori bilan 2018 yil 28 sentyabrda MDH davlatlari rahbarlari kengashining majlisida imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitimni tasdiqladi. Ushbu Bitimni amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ larsifatida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi belgilandi. Ushbu hujjat doirasida, axborot texnologiyalari sohasida quyidagi harakatlarni (agar ular qasddan qilingan bo'lsa) tergov qilishda Bitimga qo'shilgan davlatlar bilan hamkorlik qilish mumkin: a) axborotni yo'q qilish, blokirovka qilish, o'zgartirish yoki nusxalash, axborot (kompyuter) tizimining ishlashini qonun bilan himoyalangan kompyuter ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish orqali xalaqit berish;

b) zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, foydalanish yoki tarqatish;

v) kompyuter tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qonun bilan qo'riqlanadigan kompyuter ma'lumotlarini yo'q qilishga, blokirovka qilishga yoki o'zgartirishga olib keladigan qoida larning buzilishi, agar bu xatti-harakatlar jiddiy zarar yoki jiddiy oqibatlarga olib kelgan bo'lsa;

g) kompyuter ommaviy axborot vositalarida saqlanadigan yoki ma'lumotlar tarmoqlari orqali uzatiladigan kompyuter tizimida ishlov berilgan ma'lumotni o'zgartirish yoki kompyuter tizimiga noto'g'ri ma'lumotlar kiritish orqali mulkni o'g'irlash;

d) qonun bilan himoyalangan kompyuter ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish bilan;

O'zbekiston kiberjinoyatlarni tekshirishga olish va ular bilan kurashishda xalqaro standartlarga rioya qilishga intilishmoqda. Xalqaro standartlar, O'zbekistonning kiberxavfsizlik sohasidagi faoliyatini tan olish, yaxshi amalga oshirish va kiberjinoyatlarni oldini olishda hamda xalqaro hamkorliklarda hamda ma'lumot almashishda yordam beradi.

Kiberxavfsizlik sohasida O'zbekiston, OIT (ITU) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekiston Kiberxavfsizlik markazi (CERT.uz) OIT bilan hamkorlik qilish va xalqaro standartlarni joriy qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston IT sohasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga olgan holda kiberjinoyatlarni oldini olish uchun qo'shimcha tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston davlatining kiberxavfsizlik sohasidagi tadbirlari, kiberjinoyatlarni teshirga olish, ma'lumot almashish va o'z resurslarini ta'lim, ilmiy tadqiqot va amaliyot sohasida rivojlantirishga qaratilgan. Davlat, O'zbekiston Kiberxavfsizlik markazi (CERT.uz) va boshqa tashkilotlar orqali kiberxavfsizlik strategiyalarini

amalg oshirib, xalqaro standartlarni joriy qilib, kiberjinoyslarni teshirga olish, ma'lumotlarni himoya qilish va boshqa xizmatlarni taqsimlashni o'z ichiga olgan kooperatsiya va shiriklikni rivojlantirishga intilmoqda.

Bunday hamkorliklar, O'zbekiston kiberxavfsizlik sohasidagi faoliyatni yaxshilash, kiberjinoyslarni teshirga olish, maxfiylik sozlamalarini ta'minlash va kiberxavfsizlikning o'rnatilishi bilan bog'liq xizmatlarni takomillashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston kiberxavfsizlik sohasidagi ilmiy va amaliy yondashuvni rivojlantirish, yangiliklar almashish va hamkorliklarni rivojlantirish uchun xalqaro standartlarga rioya qilishga intiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik turli xil jarayonlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Xalqaro tashkilotlar asosiy maqsad sifatida uyushgan jinoiy tarmoqlar faoliyatiga barham berishni oliy maqsad sifatida belgilab olishlari zarurdir. Fikrimiz yakunida taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kiberjinoysatchilikka qarshi kurashish tartibini tartibga soluvchi yagona global hujjat ishlab chiqilmagan bo'lib, kiber kosmosdagi sub'ektlarning harakatlarini qonuniy tartibga solish, kiberjinoysatchilikka qarshi kurashish choralarini sayozligicha qolmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zgadzai O.E., Kazantsev S. Ya. Cybercrime: factors of danger and problems of struggle. Vestnik GU «Nauchnyitsentrbezopasnostizhiznedeyatel'nostidetei» = Bulletin of «Research Center for the Security of Children», 2013, no. 4 (18), pp. 80–86. (In Russian).
2. Gradov A. The activities of the North Atlantic Treaty Organization in the sphere of cyber-security. Zarubezhnoevoennoeobozrenie = Foreign Military Review, 2014, no. 7, pp. 13–16. (In Russian)
3. Convention on cybercrime, opening of the treaty: Budapest, 23/11/2001. URL: [www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention](http://www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention)
4. <http://indianexpress.com/article/india/home-ministry-pitches-for-budapestconvention-on-cyber-security-rajnath-singh-5029314/>
5. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо давлатларнинг ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши кураш бўйича ҳамкорлиги тўғрисида”ги Битим, 3-моддаси

## AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA CHET EL DAVLATLARINING QONUN HUJJATLARI TAHLILI

*Umarov Faxriddin Dilshodjon o'g'li*  
*Ichki ishlar vazirligi leytenanti*

**Annotatsiya.** Xalqaro miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim bo'lgan samarali xalqaro hamkorlikning istiqboli davlatlarning mahalliy qonunchiliklari va sohaga doir tamoyil va tushunchalarning talqiniga bog'liq ekanligi kundek ravshan. Shu nuqtai nazardan, sohadagi xalqaro hamkorlik masalalariga doir xulosalar va takliflar berish dastlab mahalliy qonunchiliklarning tahliliga asoslanishi muhimdir. Mazkur maqola bir necha davlatlarning axborot xavfsizligini ta'minlash va sohaga doir jinoyat ishlarini javobgarlikiga tortish bo'yicha qonunchiliklarni ko'rib chiqadi va tahlil qiladi. Tahlil uchun qiyosiy-huquqiy va taqqoslash kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki faqatgina jinoyat qonunchiligidagina axborot xavfsizligini qonunan muhofaza qilishga tizimli yondashuv mavjud. Boshqa bir necha davlatlarda turli turdagi maxfiy ma'lumotlarning tizimli himoya qilinishini kuzatish mumkin. Ko'plab davlatlarda, shu jumladan Rossiya Federatsiyasida ham, axborot xavfsizligiga qarshi harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortish masalalari Jinoyat kodeksining ma'lum bir qisimlarida tarqoq joylashgan.

**Kalit so'zlar:** axborot xavfsizligi, xalqaro hamkorlik, xalqaro huquq, axborot maxfiyligi, kiber jinoyat, kiber xavfsizlik.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat jadal suratlar bilan shakllanib, axborotlar dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Global kompyuter tarmog'i jahon davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimini yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi va boshqa qonunlar qabul qilindi hamda amalda tatbiq etib kelinmoqda. Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotni muhofaza qilish sohasida xalqaro standartlar. Har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o'tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo'lgan ma'lumotlar qat'iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalariga va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko'rinishiga ega bo'lib, ichki va tashqi bozorda unga bo'lgan talab ortib bormoqda. Axborot

texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo'nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfedensial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. «Axborotlashtirish to'g'risida», «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida», «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida» va boshqa qonunlar hamda bir qator Hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga tatbiq etildi. Axborotni muhofaza qilish axborotni ixtiyoriy ko'rinishda yo'qotishda (o'g'irlash, buzish, qalbakilashtirish) ko'riladigan zararining oldini olishni ta'minlashi lozim. Axborotni muhofaza qilish choralari axborot xavfsizligiga oid amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida va axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlariga ko'ra tashkil etilishi zarur. Axborot sohasida jamiyat manfaatlari bu sohada shaxs manfaatlarini ta'minlashda, demokratiyani mustahkamlashda, ijtimoiy huquqiy davlatni qurishda, ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab-quvvatlashda o'z aksini topadi. Axborot sohasida davlat manfaatlari milliy axborot infrastrukturasi rivojlanishiga sharoitlar yaratishda, axborot olish sohasida shaxs va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishda, O'zbekistonning hududiy birligini, suverenitetini va konstitutsiyaviy tuzumining mustahkamligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash maqsadida axborotdan foydalanishda, qonuniylik va huquq tartibotni qat'iy amalga oshirishda, o'zaro tenglik va o'zaro manfaatdorlikdagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ifodalangan. Axborot xavfsizligi – ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etishda huquqiy, ma'muriy, protsedurali va dasturiy-texnik choralarni qo'llaniladi. Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan uchta asosiy tamoyil mavjud: – ma'lumotlar butunligi – axborotni yo'qotilishiga olib keluvchi buzilishlardan, shuningdek ma'lumotlarni mualliflik huquqi bo'lmagan holda hosil qilish yoki yo'q qilishdan himoya qilish; – axborotning konfedensialligi. Axborot va uning tashuvchisining holatini belgilaydi va unda axborot bilan ruxsatsiz tanishishning yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa ko'chirishning) oldini olish ta'minlangan bo'ladi; – foydalanish huquqlariga (mualliflikka) ega barcha foydalanuvchilar axborotdan foydalana olishliklari. Ta'kidlash joizki, ayrim faoliyat sohalari (bank va moliya institutlari, axborot tarmoqlari, davlat boshqaruv tizimlari, mudofaa va maxsus tuzulmalar) ularda ko'riladigan masalalarning muhimligi va xarakteriga ko'ra, ularning axborot tizimlari faoliyati ishonchliligiga nisbatan yuqori talablar va xavfsizlik bo'yicha maxsus choralar ko'rilishini talab etadi.

Hozirgi kunda, kasbiy yoki rasmiy ma'lumotlarning maxfiylikni buzish masalalari ma'lumotning turi va uni maxfiylikiga putur yetqazgan shaxsning

kimligiga qarab Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksining turli moddalarida tarqoq joylashgan. Bular oila yoki shaxsga oid maxfiy ma'lumotlarga, aloqaning maxfiyligiga, bola boqib olishning maxfiyligiga qarshi amalga oshirilgan jinoiy xatti-harakatlarga oid 137, 138, 155- moddalar keltirib o'tilgan. Ko'plab sobiq Sovet ittifoqi davlatlarida, bu kabi jinoiy xatti-harakatlarga oid qonunlar odatda jinoyat kodeksining konstitutsiyaviy fuqarolik huquqlar uchun ajratilgan qismida keltirib o'tilgan. Bu kabi yondashuvni, Armaniston Respublikasining Jinoyat kodeksining "Shaxs va fuqaroning konstitutsiyaviy ozodligi va haq-huquqlari" deb nomlangan 19-bobida[4] va Ukraina Jinoyat kodeksining "Shaxsiy haq-huquqlarga qarshi jinoyatlar" uchun ajratilgan 5-qismida ko'rish mumkin[5] Shu masalaga doir qiziq yondashuvni Germaniya qonunchiligida ko'rish mumkin. Germaniya Federal Respublikasining Jinoyat kodeksi 15- qismining 203-moddasiga ko'ra shaxsiy sirlarni, ya'ni shaxsga ish jarayoni mobaynida oshkor bo'lgan shaxsiy yoki tijorat sirlarini buzish uchun javobgarlik belgilangan. Ya'ni Germaniya qonunchiligi, kasbiy yoki rasmiy sirlarni oshkor etishni, bu ma'lumotlar shaxsga ish beruvchi tomonidan oshkor etilishi taqiqlangan axborotni oshkor etish sifatida javobgarlikka tortadi. Fransiya Jinoyat kodeksi "shaxsiy hayotning yaqinligi" tushunchasidan foydalanadi[8], va kodeksga ko'ra, maxfiy ravishda ifoda etilgan so'zlarning yozib olinishi yoki ruxsatsiz jo'natilishi, va insonning ruxsatsiz uni shaxsiy joyda rasimga olinish, ruxsatsiz u insonning rasmini jo'natilishi bu tushunchaning buzilishi sifatida javobgarlikka tortiladi. Shu bilan birga, shaxsga doir bu kabi ma'lumotlarni jamoaga oshkor qilish ham qonun bilan jazolanadi.

Shaxsiy hayot huqqining tarkibiy qismi bo'lmishi aloqa yoki yozishmalar, pochta, telegraf va boshqa xabarlarining maxfiyligi huquqi ham chet el jinoyat qonunchiligi bilan himoyalangan. Biroq, bu borada davlatlar qonunchiligida farqlar uchrab turadi. Belgiya qonunchiligi aloqa yoki telefon aloqasi sirlarini buzilishini jamoat tartibiga qarshi jinoyat sifatida belgilaydi[9]. Ispaniya Jinoyat kodeksi bu kabi maxfiy ma'lumotlarni buzish borasida hech qanday qonun keltirmaydi. Ispaniya Jinoyat kodeksining 197-moddasi shaxsiy hayotni himoya qilishga bag'ishlangan, ammo jinoiy javobgarlik shaxsning ruxsatsiz unga tegishli bo'lgan xatlar, elektron xatlar, elektron omborlar va arxivlarda joylashgan ma'lumotlarni yig'ish va oshkor etish va bu jarayonda texnik vositalardan foydalanish uchun belgilangan. Qonuniy uslub nuqtai nazaridan, Estoniya qonuniy yondashuvi ham e'tiborga sazovor. Estoniya Jinoyat kodeksining aloqaning maxfiyligini buzish haqidagi 156-moddasi, aloqa vositalarini umuman ifodalab o'tmagan va masalani juda qisqa ta'kidlab o'tgan: "Aloqa vositalari orqali aloqaning maxfiyligini buzish javobgarlikka tortiladi". Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksida, yozishmalar maxfiyligini buzish va aloqa maxfiyligini buzish alohida ajratilgan. Yozishmalar maxfiyligini buzish bu shaxs o'ziga tegishli bo'lmagan, muhrlab yopilgan xat yoki biror hujjatning, texnik vositalardan foydalangan holda uni ochmay turib hujjat ichidagi ma'lumot bilan tanishish deb ta'riflangan. Aloqa maxfiyligini buzish esa, shaxsga jo'natilgan ma'lumotlarni, shaxsiy yoki ish beruvchi tomonidan, jo'natgan tomon roziligisiz tarqatish oshkor etish hisoblanadi.



Ko'plab davlatlarda, tijorat yoki bankga doir ma'lumotlarga nisbatan noqonuniy harakatlar amalga oshirish jinoyat hisoblanadi. Shu bilan birga juda kam sonli davlatlarda bu kabi ma'lumotlarni yig'ish sanoat yoki tijorat josusligi hisoblanadi. Misol uchun Belorusiya respublikasining Jinoyat Kodeksining 254 moddasi sanoat josusligiga, ya'ni tijorat ma'lumotni yoki bank sirlarini noqonuniy ish qilish yoki oshkor qilish maqsadida to'plash, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Avstriya Jinoyat kodeksi ham tijorat yoki sanoat sirlarini oshkor etishni javobgarlikka tortadi.

O'tgan asrning oxirida rivojlangan mamlakatlarning aksariyati kiberjinoyatchilik deb nomlangan salbiy ijtimoiy hodisa bilan yuzlanishlariga to'g'ri keldi. Dastlab, kompyuter axborot sohasida jinoyatlar sodir bo'lishi bilan bir qatorda, chet el qonunchilik organlari ikki yo'nalishda rivojlana boshladi: an'anaviy qoidalarni kengroq talqin qilish; kiberjinoyatchilik bo'yicha ixtisoslashtirilgan qoidalarni ishlab chiqish. Shu bilan birga, chet-el qonun chiqaruvchilarida kompyuter ma'lumotlariga qarshi noqonuniy xatti-harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi milliy qonunchiliklarga nisbatan boshqacha tarzda hal qilindi. Kompyuter ma'lumotlariga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha MDH davlatlarining jinoyat qonuni ko'p jabhalarda bir biriga o'xshash bo'lib, ularning ko'pchiligida MDH davlatlarining Jinoyat kodeksining namunaviy qoidalari qabul qilingan, ammo ularning ba'zilari o'zgarib bormoqda.

Davlatlar qonunchiligi yuzasidan solishtirma tahlillar shuni ko'rsatadiki Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 272-moddasiga binoan javobgarlikka tortilishi ko'zda tutilgan kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy kirish harakatlarini tavsiflashda yagona yondashuv yo'qligi kuzatildi. Axborot tizimining xavfsizligini ta'minlashda axborotni qayta ishlash tizimining barcha zaif va eng zaif tomonlarini, shuningdek buzuvchilar (ayniqsa, yuqori malakali) tomonidan tizimga qilingan hujumlarning mohiyati, mumkin bo'lgan obyektlari va yo'nalishlarini hisobga olish kerak, tajovuzkorlar), tarqatilgan tizimlarga kirish usullari va ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish usullari. Himoya tizimi nafaqat ma'lum bo'lgan barcha kirish kanallarini hisobga olgan holda, balki xavfsizlikka tahdidlarni amalga oshirishning printsiplial jihatdan yangi usullarini hisobga olgan holda qurilishi kerak.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qattiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent "O'zbekiston" 2017-yil
3. Axborot xavfsizligi asoslari. I.M.Karimovning umumiy tahriri asosida Toshkent-2013
4. Платонов В.В. Программно-аппаратные средства защиты информации. Учебное пособие для ВУЗов. –М.: Издательский центр «АКАДЕМИЯ», 2013

## ҲОКИМИЯТНИ СУИТЕМОЛ ҚИЛИШ, ҲОКИМИЯТ ВАКОЛАТИДАН ТАШҚАРИГА ЧИҚИШ ЁКИ ҲОКИМИЯТ ҲАРАКАТСИЗЛИГИ ЖИНОЯНИНГ УМУМИЙ КРИМИНАЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Абдуганиев Улғбек Саидакбар ўғли*

*Ўзбекистон Республикаси Мудофаа Вазирлиги ҳарбий ҳизматчиси  
бўлим катта офицери*

**Аннотация.** Ушбу мақоланинг мақсади амалдаги қонунчилик, суд ва тергов амалиётини ҳар томонлама таҳлил қилиш асосида жисмоний зўравонлик билан боғлиқ ҳарбий хизматга қарши жиноятларнинг криминалистик хусусиятларини аниқлашдан иборат. Мақолада ушбу турдаги жиноятларнинг криминалистик хусусиятларига таъсир қилувчи энг муҳим омилларни аниқлаш масалалари муҳокама қилинади.

**Калит сўзлар:** жисмоний зўравонлик, ҳарбий хизмат, жиноий шахс, жиноят таркиби, криминалистик хусусиятлар.

Криминалистическая характеристика преступлений против военной службы, сопряженных с применением физического насилия

**Аннотация.** Цель данной статьи заключается в том, чтобы на основе всестороннего анализа действующего законодательства, судебно-следственной практики определить особенности криминалистической характеристики преступлений против военной службы сопряжённых с применением физического насилия. В статье рассматриваются вопросы определения наиболее важных факторов влияющих среди криминалистических характеристик данного вида преступлений.

**Ключевые слова:** физическое насилие, военная служба, преступное лицо, состав преступления, криминалистическая характеристика.

Criminalistic characteristics of crimes against military service involving the use of physical violence

**Abstract.** The purpose of this article is to determine the features of the criminalistic characteristics of crimes against military service involving the use of physical violence on the basis of a comprehensive analysis of current legislation, judicial and investigative practice. The article discusses the issues of determining the most important factors influencing the criminalistic characteristics of this type of crime.

**Keywords:** physical violence, military service, criminal person, corpus delicti, criminalistic characteristics.

Жиноятларни муваффақиятли очиш, тергов қилиш ва олдини олишга бевосита таъсир кўрсатадиган шартларни муҳокама қилар эканмиз, ишонч билан таъкидлаш мумкинки, энг муҳим нуқтаи назарлардан бири жиноятларнинг криминалистик тавсифига берилган.

XX асрнинг биринчи ярмида жиноятларнинг криминалистик хусусиятлари масалаларини ўрганишга биринчи уринишлар С. А. Голунский,

В. У. Громов, Б. М. Шавер, И. Н. Якимов (1) каби криминалистлар томонидан қилинган. Ўтган асрнинг етмишинчи йилларида жиноятларнинг криминалистик хусусиятлари назариясини илмий ўрганиш унинг ривожланишининг энг нотинч босқичига етди.

Саксонинчи йилларнинг охиридан то ҳозирги кунгача жиноятларнинг криминалистик хусусиятларининг анагенези ривожланишнинг учта йўналиши бўйича ҳаракат қилмоқда:

- ажралмас индивидуал криминалистик тоифаси шаклида;
- унинг элементар таркибини илмий ва амалий ўрганиш;
- ахборот бошланиши шаклида, муайян турдаги жиноятни тергов қилишнинг турли усулларининг морфогенези.

А. Ф. Дубин жиноятнинг криминалистик хусусиятларини тадқиқ қилиш бўйича илмий фикрларни таҳлил қилди ва уларни қуйидаги жадвалда тақдим этди:

	A	B	C	D	E	F	G	H	J	I	K	L	M	N	O	P	Q	R	S
Белкин Р.С. Быховский И.Е.	+	+	+		+	+		+		+	+			+					
Дулов А.В.	+	+	+		+	+		+		+	+			+					
Васильев А.Н.	+				+	+													
Герасимов И.Ф.	+		+	+	+	+			+					+	+				
Возгрин И.А.	+				+							+							
Колдин В.Я.	+		+		+											+		+	
Образцов В.А.			+	+	+			+								+	+		+
Пантелеев И.Ф.	+		+	+	+	+			+		+			+		+		+	
Сергеев Л.А.	+	+	+	+	+			+					+						
Яблоков Н.П.	+	+	+		+			+						+					+

А-жиноят содир этиш усули;

В-жиноят содир этиш шартлари;

С-вазият;

Д- тажовулар объекти (предмети);

Е-жиноят субъекти (шахс хусусиятлари);

Ғ-жиноят излари;

Г-жиноий алоқалар (алоқа жиҳати);

Н-жиноятнинг таркибий элементлари ўртасидаги алоқалар;

Ј-жиноят содир этишнинг одатий ҳолатлари;

І-одатий тергов ҳолатлари;

К-жиноятни яшириш хусусиятлари;

Л-ушбу турдаги жиноятчиликка қарши кураш ҳолати;

М-бошқа турдаги жиноятлар билан боғлиқлик;

Н-жабрланувчининг шахси (виктимологик жиҳати);

O-ҳаракатнинг тарқалганлик ҳолати;

P-мотив, мақсад, муносабат;

Q-асбоблар ва воситалар;

R-жиноят натижаси (оқибатлари);

S-жиноят механизми.(2)

А. Ф. Лубин таҳлил натижаларига кўра жиноятларнинг криминалистик хусусиятларининг элементлари шартли равишда иккита кичик гуруҳга бўлинган деган хулосага келган. Биринчи кичик гуруҳда жиноятларнинг криминалистик хусусиятларининг энг муҳим элементлари, криминалистларнинг аксарияти жиноят содир этиш усули, жиноят предмети ва шунга мос равишда вазиятни ўз ичига олади. Иккинчи кичик гуруҳда криминалист олимларининг турли илмий фикрларига асосланиб, жабрланувчининг шахсини, жиноят изларини, жиноятнинг барча элементлари ўртасидаги муносабатни, тажовуз объекти (предмети)ни кўрсатди.

Ўз нуқтаи назарини билдирган Р. С. Белкин маълум бир турдаги жиноятнинг криминалистик хусусиятлари манба маълумотларининг тавсифини, жиноятни содир этиш ва яшириш усули ва ундан фойдаланишнинг типик вазиятлари, эҳтимолий жиноятчининг шахси ҳақидаги маълумотлар тизимини ўз ичига олиши керак деган фикрда эди ва жиноятнинг эҳтимолий сабаблари, шунингдек, жиноят содир этишнинг айрим ҳолатлари ҳақида ёзган. Шу билан бирга, у ўз асарларида криминалистик хусусиятларнинг барча элементлари бир-бири билан чамбарчас боғлиқлигига эътибор қаратади.(3)

Кейинчалик, Р. С. Белкин жиноятларни тергов қилишда криминалистик версияларини илгари суриш учун асослар ҳақида гапирганда, унинг элементлари ўртасидаги корреляциялар аниқланган тақдирда, уларни куриш ва тарғиб қилиш учун жиноятнинг криминалистик хусусиятларининг ажралмас амалий аҳамиятини таъкидлаган.(4)

Бизнинг фикримизча, Л. Г. Видонов ва Н. А. Селиванованинг тадқиқотлари, яъни улар томонидан ишлаб чиқилган "намунавий жадваллар" статистик эҳтимолий таҳлилнинг мумкин бўлган имкониятларини аниқ кўрсатди, аммо жиноятларнинг криминалистик хусусиятларининг умумий назариясида улар қотилликни тергов қилишнинг хусусий методологиясида бевосита ишлатилган, бунинг натижасида туб ўзгаришлар бўлмаган. Бундан ташқари, Ўзбекистон жамиятининг замонавий воқеликларини, таълим даражаси, алоқа воситалари, турмуш даражаси, гиёҳвандлик воситаларидан фойдаланишнинг кўпайиши ва бошқаларни ҳисобга олган ҳолда, бизга Л. Г. Видонов томонидан аниқланган маълумотлар бугунги кунда ишламайди.

В. Я. Колдин жиноятларнинг криминалистик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, ундаги жиноятлар тоифаларининг типик умумий, гуруҳий ва ўзига хос хусусиятларини аниқлайди. У уларни "криминалистик вазият" нинг илмий тушунчаси ва индивидуал жиноятнинг шахсий ҳолати ўртасида қўяди.

Шу билан бирга, юқорида айтиб ўтилган "хусусиятлар" типик ахборот моделлари талабларига жавоб бериши керак:

- ҳукм қонуний кучга кирган тегишли жиноят ишларининг статистик ёки бошқа вакиллик умумийлигининг махсус дастурига мувофиқ умумлаштириш ва қайта ишлашга асосланади;

- уларнинг индивидуал хусусиятларини эмас, балки барча таркибий элементларнинг тўлиқ типик тавсифини ўз ичига олади;

- уларнинг таркибий элементлари орасидаги мунтазам алоқаларнинг табиати тўғрисида тўғри тасаввур бериш;

- тегишли жиноий фаолиятнинг яхлит тизим кўринишини ўз ичига олиш". (5)

Биз таҳлил қилган криминалистика соҳасидаги олимларнинг турли фикрларига асосланиб, бугунги кунда замонавий воқеликка жавоб берадиган бундай тадқиқотни ўтказиш зарурати борлигига ишонамиз. Ушбу тадқиқотни ўтказиш, шунингдек, жиноятнинг криминалистик хусусиятларини кейинги илмий ўрганиш жиноятларнинг муайян турларини хусусий тергов қилиш техникасини такомиллаштириш ва криминалистик хусусиятларнинг ягона умумэтироф этилган илмий концепциясини ишлаб чиқиш учун зарурдир.

Шуни таъкидлаш керакки, ҳарбий хизматга қарши жиноятларнинг криминалистик хусусиятларининг элементар таркиби учун зарур маълумотларини ўз ичига олади, уларнинг ёрдамида жисмоний зўравонлик билан боғлиқ бўлган ва жабрланувчига ўлим билан боғлиқ бўлмаган барча жиноятларнинг умумий гуруҳидан Жиноят кодекси махсус қисмида кўрсатилган, нафақат ҳарбий хизматчилар, балки оддий фуқаролар томонидан ҳам ҳарбий хизматчилар томонидан белгиланган ҳарбий хизмат тартибига қарши содир этилган жиноятларни тўғридан-тўғри ажратиш кўрсатиш мумкин, фақат жисмоний зўравонликдан фойдаланиш билан боғлиқ бўлиб, бу ўз навбатида ушбу тоифадаги жиноятларни тергов қилиш жараёнини оптималлаштиради.

Профессор Л. В. Бертовскийнинг фикрига кўра, "дастлаб жиноятларнинг криминалистик хусусиятларининг мақсадини тушуниш керак. Энг умумий шаклда у жиноятни аниқлаш, очиш ва тергов қилиш жараёнида терговчи (суриштирувчи) суд-тергов амалиётининг таҳлил қилинган маълумотларига асосланиб, воқеанинг энг эҳтимоллий версияларини илгари суриши учун мўлжалланган ва бошқа нарсаларни эҳтимол камроқ версиялар текшириш учун вақт ҳамда пулни тежаш. Ушбу позициялардан жиноятнинг криминалистик хусусиятларининг элемент-компонент таркиби кўриб чиқилиши керак. Шундай қилиб, агар у ёки бу элемент таклиф қилинган версиянинг объективлигига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин бўлса, у жиноятнинг криминалистик хусусиятларига киритилиши керак."(6)

Ҳокимиятни суистемол қилиш, ҳокимият ваколатидан ташқарига чиқиш ёки ҳокимият ҳаракатсизлиги жинояти криминалистик хусусиятларининг илмий ва амалий аҳамиятини, шунингдек, тергов ва суд амалиётини таҳлил

килиш билан бир қаторда ундан илмий ва амалий фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадида, криминалистик хусусиятлар белгиларининг элементар таркибига оид юқоридаги нуқтаи назарларни асос қилиб олган ҳолда., биз жиноят ҳолатларида криминалистик хусусиятлар элементлари масаласида ўз позициямизни кўрамиз. Бундай элементларга қуйидагилар киради:

- ҳарбий хизматчилар томонидан жиноятни тайёрлаш, содир этиш ва яшириш усулидан иборат ҳарбий вазифаларни бажаришда жиноий бузилиш усули;

- ҳарбий вазифаларни бажариш учун белгиланган қоидаларнинг одатий бузилиши;

- жиноий ҳатти-ҳаракатларнинг мақсади ва моҳияти;

- жиноят содир этилган вақт ва жой;

- ишончли маълумот ташувчилар ва жисмоний зўравонлик билан боғлиқ ҳарбий хизматга қарши жиноят содир этиш механизми ва ҳолатининг бошқа ҳолатлари;

- жиноят содир этган ҳарбий хизматчининг шахси, унинг турмуш тарзи ва ҳарбий хизматдан олдинги алоқалари, ҳарбий жамоадаги ижтимоий мавқеи, ҳарбий хизматдан олдин ҳам, ҳарбий хизмат пайтида ҳам олган маҳорати ва қобилиятлари тўғрисида криминалистик аҳамиятга эга маълумотлар;

- жиноят жабрланувчиси бўлган ҳарбий хизматчининг шахси, унинг турмуш тарзи ва ҳарбий хизматдан олдинги алоқалари, ҳарбий жамоадаги ижтимоий мавқеи, ҳарбий хизматдан олдин ҳам, ҳарбий хизмат пайтида ҳам олган маҳорати ва қобилиятлари тўғрисида криминалистик аҳамиятга эга маълумотлар.

Жиноят содир этишнинг ҳар қандай усулининг ўзига хос хусусиятлари фақат жиноят содир этишнинг ўзига хос усулига хос бўлган индивидуал изларнинг шаклланиши бўлиб, уни қўллашнинг бевосита моҳиятини тасдиқлайди.

Жиноят таркиби объектив томонининг энг муҳим элементи бўлиб, жиноят содир этиш усули истисносиз барча жиноятларга, шу жумладан жисмоний зўравонлик билан боғлиқ ҳарбий хизматга қарши жиноятларга хосдир.

Жиноят усули ҳақидаги криминалистик таълимот ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб Р. С. Белкин, С. Ю. Журавлев, Г. Г. Зуиков, В. Н. Карагодин, В. П. Лавров, И. М. Лузгин каби криминалистлар томонидан ишлаб чиқилган.(7)

Жиноят усули жиноятни содир этиш механизмига ва ўз навбатида исботланадиган ҳолатлар қаторига киради. Криминалистика умумий назариясининг бир қисми бўлган криминалистик доктринанинг қоидалари ушбу фаннинг бошқа учта бўлимини ривожлантириш учун муҳимдир, лекин энг муҳими - жиноятларнинг айрим турларини тергов қилиш усуллари учун.

*Ҳарбий хизматчиларни ҳокимиятни суистемол қилиш, ҳокимият ваколатидан ташқарига чиқиш ёки ҳокимият ҳаракатсизлиги жиноятини содир этишдаги тайёргарлик*

У қуйидагилардан иборат:

- жиноий режани амалга ошириш учун қулай жой топиш (қоида тариқасида, бу канцелярия хонаси, взвод командирлари хонаси, омборхона ёки ювиниш хонаси, казармадан ташқарида, қоида тариқасида, автопарк, ҳарбий қисмнинг хизмат итлари питомниги ва ҳарбий хизматчиларнинг шу жумладан офицерлар ва прапоршикларнинг энг кичик концентрацияси бўлган бошқа жойлар);

- жиноят воситаларини тайёрлаш (оддийгина жисмоний куч билан, қўлбола ички буюмлар ва мебеллардан ва махсус воситаларидан фойдаланиш-қоида тариқасида, резина таёқлардан фойдаланиш ва камдан - кам ҳолларда ҳарбий қуроллардан фойдаланиш билан тугйдиш) - масалан, автоматнинг приклади ёки шомпол);

- иштирокчиларни танлаш (кўпинча улар муддатли ҳарбий хизматга чақирилган аскарлар, ҳамкасблар орасида ижтимоий мавқеи паст ёки барча тоифадаги раҳбарларга нисбатан оддийгина бўйсунувчилар);

- жабрланувчини танланган жойга жалб қилиш усули (ёки потенциал жабрланувчи жойлашган жойга келиш);

- жиноят содир этилган вақтни аниқлаш (кўп ҳолларда у кечқурун ёки кечаси, камдан кам ҳолларда кундузи).

Импульсив зўравонлик жиноятларини содир (тўсатдан пайдо бўлган ният туфайли ёки усиз соғлиққа турли хил жиддий зарар етказиш, бўйсунуш муносабатлари бўлмаган тақдирда ҳарбий хизматчилар ўртасидаги муносабатларнинг қонуний қоидаларини бузиш, расмий ҳокимиятни суистемол қилиш ва бошқалар), тайёргарлик ҳаракатлари умуман бўлмаслиги ёки жуда қисқа вақт ичида бажарилиши мумкин.

*Жиноятни яшириш*

Жиноятни яшириш жиноят ҳақидаги объектив ҳақиқатни аниқлашга йўл қўймаслик ва жиноятчини жавобгарликдан қочиш, жиноят изларини яшириш, йўқ қилиш ёки қалбакилаштириш орқали қасддан қилинган ҳаракатлар шунингдек жиноят процессига айбловчи маълумотларнинг кириб келишига йўл қўймаслик ва улардан тергов пайтида фойдаланишга тўсқинлик қилиш деб таърифланиши мумкин. Жиноятни яширишга қаратилган ҳаракатлар турли йўллар билан тавсифланади. Мазмунига кўра жиноятни яшириш усуллари қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин: (8)

- бор маълумотни барчадан яшириш ва ҳеч кимга ошкора қилмаслик;

- жиноят изларини йўқ қилиш орқали жиноятни яшириш (бўлинмадаги қонуний ички тартибни тиклаш, вайрон қилинган объектларни тиклаш, жиноят содир этилган хоналарни нам тозалаш);

- ахборотни ёлфон маълумот билан алмаштириш орқали жиноятни яшириш (расмий ҳужжатлардаги маълумотларни ўзгартириш, ёлфон гувоҳлик бериш).

Камдан кам ҳолларда ҳарбий хизматчилар бошқа шахсларнинг содир этилган жиноятга алоқадорлиги изларини сохталаштирадилар: улар жиноят содир этилган жойга кўрсатилган шахсларнинг шахсий буюмларини ташлаб кўйишади. (9)

Баъзи ҳолларда жиноят изларини яшириш жиноятни содир этишда иштирок этмаган (масалан, штаб наряд-дневальный) шахсларга, ювиш, олиб ташлаш ва ҳоказолар вазифаси тушади. Бундай ҳолда, улар кўпинча жиноят субъекти сезмаган баъзи изларни эътиборсиз қолдирадилар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Криминалистика. Методика расследования отдельных видов преступлений: Учебник / Голунский С.А., Шавер Б.М. / Под ред. Вышинского А.Я. - М.: Юрид. изд-во НКЮ СССР, 1939. - 372 с; Криминалистика. Техника и тактика расследования преступлений / Бобров Н.А., Винберг А.И., Голунский С.А., Громов В.И., и др. / Под ред. Вышинского А.Я. - М.: Юрид. изд-во НКЮ СССР, 1938. - 538 с; Криминалистика. Руководство по уголовной технике и тактике. Новое издание, перепечатанное с издания 1925 г. / Якимов И.Н. - М.: ЛексЭст, 2003. - 496 с.
2. Лубин А.Ф. Механизм преступной деятельности: методология криминалистического исследования. - Н. Новгород, 1997. - С. 42.
3. Белкин Р.С. Криминалистика: проблемы, тенденции, перспективы: От теории - к практике. - М.: Юрид. лит., 1988. - С. 173.
4. Белкин Р.С. История отечественной криминалистики. - М., 1999. - С. 274.
5. Колдин В.Я. Криминалистика / В.Я. Колдин. М.: изд. Юрист. 2009. - С. 87
6. Бертовский Л.В. Проблемы теории и практики выявления и расследования преступного нарушения правил экономической деятельности: дис. ... д-ра юрид. наук. - М., 2005. - С. 76.
7. Расследование экономических преступлений / Журавлев С.Ю. - М.: Юрлитинформ, 2005. - 496 с.; Зашляпин Л.А., Драпкин Л.Я., Карагодин В.Н. Криминалистика. Искусство расследования преступлений - М., 2007. - 672 с.; Поиск преступников по признакам способов совершения преступлений. Учебное пособие / Зуйков Г.Г. - М.: НИиРИО ВШ МВД СССР, 1970. - 191 с.
8. Образцов В.А. Проблемы совершенствования научных основ методики расследования преступлений: дис. д-ра юрид. наук. - М., 1985. - 164 с.
9. Колдин В.Я. Криминалистика / В.Я. Колдин. М.: изд. Юрист. 2009. - С. 87



MUNDARIJA

*C: Tarix. Geografiya. Siyosiy fanlar. Yuridik fanlar*

<b>Muzaffarova M.U.</b> Boshqalarga qaraganda kamroq tenglikka ega bo'lgan ayollar huquqlari.....	2
<b>Muzaffarova M.U.</b> “Gender tenglik faoli” va “Yil ayoli” milliy tanlovi .....	7
<b>Muzaffarova M.U.</b> Huquqiy davlat barpo etishdagi munosib harakatlar .....	12
<b>Salayev S.Z.</b> Antik davr xorazm me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari .....	16
<b>Ibragimov A.M., Junaydullaev O.Q.</b> Amir Temur yurishlarida qo'llangan harbiy taktika va xiylalar .....	21
<b>Эргашев Б.Ф.</b> Muayyan yashash joyiga ega bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish markazlari faoliyati.....	27
<b>Абдухалилов А.А.</b> Профилактика инспекторининг маъмурий ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганиш ва таҳлил қилиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари .....	29
<b>М.А.Ахмедова</b> Вояга етмаган шахслар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилишда педагог ва психолог иштирокини такомиллаштириш .....	32
<b>Абдухалилов А.А.</b> Профилактика инспекторининг маъмурий ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганиш ва таҳлил қилиш фаолияти .....	40
<b>Ergasheva M.R.</b> Intellektual mulk huquqida hammualliflik tushunchasi. Hammualliflik shartlari .....	43
<b>Очилова Ш.С., Анна Мустафина Джалильевна</b> Об истории происхождения и развития узбекской национальной одежды .....	49
<b>Kakhkhorova N.</b> Internet tarmog'ida audiovizual asarga bo'lgan intellektual huquqlarni himoya qilish muammolari va ularni buzganlik uchun javobgarlik .....	56
<b>Миробидов М.Б.</b> Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш жиноятини тергов қилишнинг хусусиятлари.....	63
<b>Кучкаров Ж.У.</b> Айрим шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқишнинг ўзига хос хусусиятлари .....	70
<b>Mirzaolimov B.</b> Kiber jinoyatchilikning rivojlanishida huquqiy ong va madaniyatning ta'sirini aniqlash masalalari. Kiberxavfsizlik. Muammo va yechimlar .....	74
<b>Umarov F.D.</b> O'zbekistonda kiberjinoyatlarni tergov qilishga doir xalqaro standart hamda ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda davlatlarning manfaatli hamkorligi.....	81
<b>Umarov F.D.</b> Axborot xavfsizligini ta'minlashda chet el davlatlarining qonun hujjatlari tahlili	84
<b>Абдуғаниев У.С.</b> Ҳокимиятни суитемом қилиш, ҳокимият ваколатидан ташқарига чиқиш ёки ҳокимият ҳаракатсизлиги жиноятининг умумий криминалистик хусусиятлари .....	84